


**СЎЗ САНЪАТИ  
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ**  
4 СОН, 3 ЖИЛД

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ИСКУССТВО СЛОВА**  
НОМЕР 4, ВЫПУСК 3

**INTERNATIONAL JOURNAL  
OF WORD ART**  
VOLUME 4, ISSUE 3



**Бош муҳаррир:**  
**Холбеков Муҳаммаджон**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

**Таҳрир хайъати:**

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўгли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Боқиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Юсупов Ойбек**  
масбул. котиб, доцент (Ўзбекистон)

**Главный редактор:**  
**Холбеков Муҳаммаджон**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Заместитель главного редактора:**  
**Тухтасинов Илҳом**  
к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

**Редакционная коллегия:**

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бақиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Балтабаев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Юсупов Ойбек**  
отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

**Editor in Chief:**  
**Kholbekov Muhammadjan**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

**Editorial Board:**

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogly**  
Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibdulla**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. sci. (Georgia)

**Yusupov Oybek**  
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT


<b>1. Aimbetova Gulayim</b> FIRST INVESTIGATIONS IN KARAKALPAK LITERATURE AND LINGUISTICS.....	4
<b>2. Imomkulova Oysanam</b> O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANIDA BADIY XARAKTER YARATISH MAHORATI VA RUHIYAT TALQINI.....	9
<b>3. Ўраева Дармоной, Назарова Гулбахор</b> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА ҚУШЛАР ОБРАЗИ.....	16
<b>4. Джурахолова Бахора</b> ГЕНДЕР ТУШУНЧАСИНИНГ СОЦИОЛОГИК ВА ЛИНГВИСТИК ЖИХАТДАН ТАЛҚИНИ.....	23
<b>5. Jalilova Dilorom</b> INGLIZ ZABON GAZETA SARLAVHALARI KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING TARJIMADAGI XUSUSIYATLARI.....	29
<b>6. Алланазарова Мамура</b> ЛИНГВОМАДАНИЯТШУНОСЛИК ФАНИНИНГ АСОСИЙ ХОЛАТЛАРИ.....	35
<b>7. Тошпўлатов Акрам</b> "ДАШТУ ДАЛАЛАРДА" НОВЕЛЛАСИДА ХАРАКТЕР ЯРАТИШ МАҲОРАТИ.....	42
<b>8. Nilufar Khodjaeva, Gubayeva Khurshida</b> ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE).....	48
<b>9. Rajabova Sadoqat</b> QARORLAR TILIDA ISHLATILGAN NEOLOGIZMLAR IZONI.....	53
<b>10. Sharipova Sunbula</b> ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDA ABDURAHMON JOMIY SIYMOSI.....	60
<b>11. Бозорова Умида, Саидов Ёқуб</b> ЖАДИД ШЕЪРИЯТИДАГИ ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ЛЕКСИКАНИНГ МАВЗУИЙ ТАСНИФИ.....	65
<b>12. Yusupova Dilzoda</b> O'ZBEK MAROSIM FOLKLORINING O'RGANILISHI VA TASNIFI MASALALARI.....	71
<b>13. Mamirova Dilnoza</b> REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI.....	78
<b>14. Нуруллаева Сарвиноз, Ўринова Мафтуна</b> ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ.....	84
<b>15. Джалилова З.Б.</b> ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ.....	90
<b>16. Салойдинова Наргиза</b> ҚУРИЛИШ ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ БОШҚА ФАНЛАР ТЕРМИНОЛОГИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	95
<b>17. Қурбоназарова Наргис</b> ЛИСОНИЙ ТИЗИМДА ЭТНОГРАФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТИ (СУРХОНДАРЁ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ МИСОЛИДА).....	99

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Gulayim Izzetovna Aimbetova**

PhD student of Uzbek language, literature and folklore  
institute of the Academy of Sciences of the Republic of  
Uzbekistan, Tashkent city, Uzbekistan  
Aimbetova88@bk

## FIRST INVESTIGATIONS IN KARAKALPAK LITERATURE AND LINGUISTICS

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-1>

### ANNOTATION

In this article the first stages of development and progress of Karakalpak philological science on the basis of scientific and literary sources, the activities of the scientist who laid the foundation stone at these stages are described. Furthermore, it is proven that the works done in this direction has not been studied in science and their relevance has been scientifically substantiated. A number of conclusions have been made on the theme. The study of his life and work, as well as his scientific work as a scientist who revived many traditions, is one of the problems that needs to be solved.

**Key words and word expressions:** Karakalpak folklore, Tang Nuri, dramaturgy, karakalpak literature, drama circles, karakalpak language, orthography.

**Гулайим Иззетовна Аимбетова,**

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси  
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти таянч  
докторанти, Тошкент, Ўзбекистон  
Aimbetova88@bk

## ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИ ВА ТИЛШУНОСЛИГИДАГИ ДАСТЛАБКИ ИЗЛАНИШЛАР

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада илмий ва адабий манбалар асосида Қорақалпоқ филология илми ривожланиши ва тараққиётининг илк босқичлари, бу босқичларда дастлабки тамал тошини қўйган олим фаолиятига изоҳ берилган. Қолаверса, бу йўлда амалга оширилган ишларнинг фанда ўрганилмагани ва долзарблигини илмий жиҳатдан асослаб берилган. Мавзуга доир бир қатор хулосалар илгари сурилган. Йўқола бошлаган жуда кўп анъаналарни қайта тиклаган олим сифатида унинг ҳаёти ва ижоди, илмий фаолиятини ўрганиш ўз ечимини кутаётган масалалар сирасига кирди.

**Калит сўз ва иборалар:** қорақалпоқ фольклори, Тонг Нури, драматургия, қорақалпоқ адабиёти, драма тўғарак, қорақалпоқ тили, орфография.

**Гулайим Иззетовна Аимбетова,**  
Базовый докторант института Узбекского языка,  
литературы и фольклора АН РУз,  
Ташкент, Узбекистан  
Aimbetova88@bk

## ПИОНЕРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ЯЗЫКОЗНАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье на основе анализа научных и литературных источников приводятся этапы развития каракалпакской филологии, и даётся оценка деятельности этапов исследований ученого основоположника. На основе анализа и исследований обоснована малоизученность проблемы и научная актуальность дальнейших исследований. Проводятся ряд выводов по результатам исследований. Изучение его жизни и творчества, а также его научной деятельности как ученого, возродившего многие традиции - одна из проблем, требующих решения.

**Ключевые слова:** Каракалпакский фольклор, Танг Нури, драматургия, каракалпакская литература, драма кружок, каракалпакский язык, орфография.

---

As it is in the history of all nations and peoples and countries, the growth of national spirituality does not happen by itself. The growth of the nation's spirituality and enlightenment is carried out by the most leading intellectuals of the nation known to us. In this sense, as a scientist who developed the science of Karakalpak linguistics and literature, Kalli Ayimbetov has left more than 200 literary, scientific researches, textbooks and methodical manuals.

K. Ayimbetov, who had an encyclopedic scientific erudition and knew the national language and history well, made a significant contribution to the emergence and development of linguistics in Karakalpakstan. Although he was young, he participated in the creation of the "Karakalpak alphabet" together with other authors and this textbook was published with the introduction word by K. Avezov in 1929 in the fortress of Turtkul in 10,000 copies in the Latin alphabet. Together with Genjebay Ubaydullaev, a scientist from the Republic of Karakalpakstan, he wrote a "project of the Karakalpak language orthography on the transition from Arabic to Latin script" (Turtkul.1929) and published several articles on the subject in the newspapers "Kizil-Karakalpakstan" and "Kengash Muallimi" and reported the questions of the consistent development of the orthography of the Karakalpak literary language to the scientific community.

In 1923-1933, two scientific-theoretical conferences dedicated to the important problems of the Karakalpak language were held in Turtkul fortress, which were attended by famous scientists, academicians A.N. Samoilovich, V.N. Gordlevsky, professors S.E. Malov, P.P. Ivanov, N.K. Dmitriev, A.A. Sokolov, K.K. Yudakhin, A.K. Borovkov, N.A. Baskakov, G.G. Alfarov, ethnographers Ardashir Daulet, A.S. Moozova. These Russian scholars studied the theoretical problems of the Karakalpak language and conducted a wide range of scientific activities, as well as provided practical help to the young authors in developing the orthography of the Karakalpak language and creating textbooks. Such cooperation gave its effective results, of course. For example, K. Ayimbetov participated in organizing the orthography (spelling) conference held in 1932 in Turtkul fortress, and he made a scientific report on the formation of the Karakalpak language orthography co-authored with professors G.G. Alfarov and G. Ubaydullaev. Also, he compiled a table of the "Karakalpak alphabet of different periods of time" and indicated with a visual aid which letter should be written and read in Arabic, Latin and Russian graphics. In 1938-1940, G. Ubaydullaev, N. Daukarayev, K. Ayimbetov developed a new project of the Karakalpak language orthography based on the Russian graphics, and this project was approved, and from 1940 Karakalpak writing and publishing were transferred to the Russian alphabet. K. Ayimbetov wrote about it in his book "Memories of the past":

“Until the transition of the Karakalpak script from the Latin alphabet system to the Russian alphabet in 1940, the Latin alphabet served as a cultural revolution in struggling against illiteracy and educating people in Karakalpakstan. I am also happy to be involved in this work in my time and to serve for the people, at least a little bit, and I will write down what I remember. I spoke in Russian and Karakalpak at the meeting of intellectuals on the great political significance of the transition of our alphabet to Russian graphics. I also spoke on this issue in Chimbay and Kegeyli districts. I also published articles in the newspapers about the spelling project” [1].

K. Ayimbetov also contributed to the development of lexicography in Karakalpakstan. Since the establishment of the Terminology Committee in Nukus, he had been actively involved in the work of Terminkom. For example, in 1934 he compiled the Russian-Karakalpak Dictionary of Paperwork Terms, which was published in several issues of the “Kyzyl Karakalpakstan” newspaper in June, July, and August (Kyzyl Karakalpakstan, 1934. №110, 111, 116, 118, 121 and etc). Also, K. Ayimbetov took part in compiling a spelling dictionary of the Karakalpak language. This dictionary was published in 1940 as a separate book. In the years after World War II, he published a number of articles, such as “the Dictionary of the Karakalpak Language” (Kyzyl Karakalpakstan, 1951) and “The Culture of Speech” (Soviet Karakalpakstan, November 5, 1971).

Kalli Ayimbetov worked not only in the field of linguistics, but also he contributed to the development of Karakalpak drama. In 1927-1928 the circle of amateurs expanded in the city of Turtkul. In the history of the Karakalpak people there was no drama genre, theater, stage art, because it was the beginning of the first Karakalpak theater in the Soviet era, this theater group was called “Tong nuri”(Morning Light) [2; 9-10].

K. Ayimbetov was one of the founders of the national troupe “Tong nuri” (Morning Light), in which he acted as a prompter. Therefore, the scientist was not an ordinary researcher on the road of formation and development of art in Karakalpakstan, but one of the devotees of culture who directly participated in it.

One of the fields of special research of Kalli Ayimbetov was on dramaturgy and its scientific principles. His dissertation was devoted to the study of the development of Karakalpak drama in the field of literature, and this study was published in 1963 in a separate book entitled “Essays on the history of Karakalpak Soviet dramaturgy”. In this monograph, the scholar searched the early original roots of dramaturgy and stage art, which were new genres in our literature, in the works of Karakalpak folklore, such as weddings, narrations, forty young men, folk songs, folk tales, short stories and classics of Karakalpak literature. The first part of the book is entitled "Roots of Karakalpak Soviet dramaturgy and early dramas" and assesses the role of customs, values and traditions of the people in the formation of this genre in the new Karakalpak literature as in the following: "Traditions of the people cover all periods of life. In these traditions, the original elements of drama, art, theater are manifested”.

They were the wedding spectacles of the Karakalpak people in the past, when the bride was taken away, or the bride was brought in, and the songs sung at the festivals. At the weddings the contest “Khaular”, face opening, boys and girls contest of singing, folk song bakhshis (singers), narrators, folk programs, clown puppy theatres were of great significance in the life of the people in the past too [2; 3]. In the early years of the Soviet government, K. Ayimbetov was the founder of drama circles established in Kungrad, Khojayli and Chimbay districts and later Karakalpak national drama troupes. In 1927-1928 the ranks of amateurs in the Turtkul fortress increased. His drama repertoire expanded a bit. The one-night program of the repertoire of drama circles consisted of two parts (in Karakalpak and Uzbek). It was a one-act play or a piece of play. The second part was called "Literature" and included poems, folk songs, mostly "Bozatog", "Qizminayim", and the satirical songs "Pochchajon", "Brothers, let me know", "If I do this, what will be left" by A. Utepov were sung on the stage. Later, A. Begimov's "Memory", "Freedom from humiliation", A. Utepov's "The girl who found an equal", the play "Hunger", J. Aymurzaev's comedy "Hakisliker" were staged.

K. Ayimbetov noted that one of the best plays in the period of emergence and formation of the genre of drama in the new Karakalpak literature was the drama "The Girl Who Found an Equal"

by A. Uteпов. This work was dedicated to the events that took place in 1925-1926 in the village of Sorkul, Kungrad district of Karakalpakstan, and was first staged in amateur clubs in Kungrad district under the name "Shaleke boy". After that, the play was reworked and improved, and in 1932 it was published in the Latin alphabet at Turtkul fortress. A. Uteпов's play "The Girl Who Found an Equal" was included in the repertoire of the Karakalpak national troupe "Morning Lights" in 1927, and from 1930 to 1934 in the repertoire of the Karakalpak State Theater. K. Ayimbetov explained the reasons for the drama's success as follows:

"Karakalpak playwrights learned from this play and wrote plays. This play was one of the plays that the playwright and actor first taught stage skills. A. Uteпов was the author of this play and played the leading role in it" [3; 20].

K. Ayimbetov talked about the comedy "Hakisliker" by the writer Jolmurza Aymurzaev. The playwright wrote this play in 1927-1928 in order to expose the work of bureaucrats who used state property for their own needs without considering the interests of the people. But the plot of this play was very simple and lack of artistic value [3; 21].

The second part of K. Ayimbetov's monograph was devoted to Karakalpak drama before the Second World War. During this period, great changes took place in the social and cultural life of the Karakalpak people. The Karakalpakstan Autonomous Province was transformed into the Autonomous Republic in 1932. While these were the changes in the political life of the Karakalpaks, there were also major innovations in culture. In 1930, the Karakalpak State Music and Drama Theater named after Berdakh was opened. In 1932, the Writers' Union was formed and began to publish the journal "Labor Literature" (later renamed "Jenis khaoazy", "Aodaryspaq jalyny", "Karakalpakstan literature and art, "Amiodarya")

In 1931 the Karakalpak Research Institute and in 1934 the Teacher Training Institute were opened. The youth of Karakalpakstan took education in Moscow, Tashkent, Almaty, Leningrad and other central cities, and began to work in various fields in their homeland. Of course, these changes in the social and cultural life of the Karakalpak people had a positive impact on the development of the genre of drama in Karakalpak literature.

The best examples of the nations of the Soviet Union and world literature of this period were A.N. Ostrovsky's "Poverty is not a fault", A.M. Gorky's "Vassa Zheleznyova", V. Veshnyovsky's "First Cavalry Army", Azerbaijani playwright U. Gadjibekov's "Archin mol alan", Uzbek playwright Hamza's "The Tricks of Maysara" and French playwright J.B. Moller's "Skapen's Tricks" were translated into Karakalpak and staged at the state theater, which caused further improvement of the stage skills of our playwrights and actors.

In the pre-war period, Karakalpak playwrights A. Uteпов's "Boyaoshi oakil", "100 gram", "Iyne qalas", "Eki basli suo qabaq", M. Daribaev's "Arman", "Jana adamlar", "Koklem batyr", N. Daoqaraev's "Alpamis", R.Majitov's "Tazagul", J.Aymurzaev's "Oz tayagi ozine" were staged at the State Music and Drama Theater. The plays mentioned in the second part of K. Ayimbetov's monograph were analyzed and their achievements and shortcomings were explained on the basis of facts.

K.Ayimbetov's book "Essays on the history of Karakalpak Soviet dramaturgy" reflected thirty years of history, and in the second part of the monograph J.Aymurzaev's "Lieutenant Elmuratov", "Perzent", "Kolya", S.Khojanियazov's "Bizin Bahadir" written during the years of World War II were mentioned and analyzed. He concludes his observations as follows: "Although the level of wartime dramas in the development of Karakalpak Soviet drama was a bit low, these plays served to form the patriotic feelings of our people. J.Aymurzaev and S.Khojanियazov were the playwrights who contributed to the dramaturgy during the war and wrote plays on this subject [3; 56]. "The fourth part of K. Ayimbetov's monograph was called "The period of Karakalpak Soviet dramaturgy after the Great Patriotic War", in which the scientist briefly dwelled on the plays created in 1945-1954. During this period, the ranks of playwrights were covered at the expense of young writers, and their professional skills were enhanced. Classics of Russian literature N.V. Gogol's "Inspector", N. Dyakov's "Jasaoli toy", Kazakh playwright G. Muriрепов's plays "Kiz jipek", "Kazi Korpesh-Bayan sulio", Turkmen writer G. Mukhtarov's "Shanaraq namisi", Uzbek

playwrights H. Hamza's "Rich and servant", Uygun's "Golden lake", A. Qahhor's "Shohi sozana" ("New land"), "Aoirio tislari", B. Rakhmatov's "Jurek sirlari" were translated into Karakalpak language and staged. Such wonderful works of fiction had a positive impact on the growth and development of Karakalpak dramaturgy, and Karakalpak writers learned from them and created their own new plays.

Among the best plays written in the post-war period, K. Ayimbetov included S. Khojaniyazov's comedy "Suymegenge suykenbe", J. Aymurzaev's "Aygul-Abat", "Amiodarya boyinda", A. Shamuratov's "Aral kizi" dramas and analyzed them. Furthermore, in terms of genre, he considered the fact that almost all of these plays were musical dramas to be one of the main shortcomings of Karakalpak dramaturgy.

In his work, K. Ayimbetov scientifically explained the emergence of the genre of drama in the new Karakalpak literature and the period of its thirty-year development. Therefore, this monograph was evaluated as one of the achievements of Karakalpak literature in the 50s. For example, the Russian scientist N.A. Baskakov considered the scientific research of N. Daoqaraev, K. Ayimbetov, M. Nurmammedov as one of the great events in the spiritual development of Karakalpakstan in September 1954 at a scientific conference on the Karakalpak language and literature in Nukus [4]. K. Sultanov in his book "Kally Ayimbetov a folklorist" said: "This work is the result of the work of Kally brother, in which he was interested in from a young age, lived with and grew up together. Because, the new life led to the formation of a new literature. Any innovation in literature begins with a new person, that is, with the creation of his image. This is his contribution to the development of Karakalpak literature, to the science of literary criticism" [5].

It can be said that Kally Ayimbetov was a scientist who carried out the first researches in the field of Karakalpak enlightenment in linguistics and literature and achieved results in this field.

### Literature:


1. Қ.Айымбетов "Ўтган кунлардан хотиралар"
2. Айымбетов.Қ Қорақалпоқ совет драматургияси тарихидан очерклар, Т.: Нукус, 1963.
3. Қорақалпоғистон давлат архиви. Ф.26,а,1.е.х, 357, 20-б.
4. "Советская Каракалпакия" 26 сентябрь.1954.№192(6021)
5. Султанов Қ. Қаллы Айимбетов – фольклоршы.
6. Камалов Қ., Илмли элга нур ёғар, Нукус: Илм, 2010, 92 б.
7. Нурымбетов С., Қаллы Айимбетовке Шиғармалари. Том 1. –Нукус: 1960, 298 299 б.
8. Султанов Қ., Фолклорши Қаллы Айимбетов. –Нокис: 1979, 44 б.
9. Раҳмонов К., Қаллы аға Айимбетовтин естелигине. Омир, сен уллысан. –Нокис: 1981, 33 35 б.
10. Мақсетов Қ., Қаллы Айимбетов ва қорақалпоқ фольклористикаси–Нукус, 1989, 246 271 б.
11. Алимов А ва Ерплатов Т., Қаллы Айимбетов – илим доктори // Совет Қорақалпоғистони. 1965, 16 апрель. № 75 (9148)
12. Камалов Н., Илимпаз ақсақал. //Совет муғаллими. 1965, 21 ноябрь. №23.



# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Imomkulova Oysanam Binayevna**  
Muhammad al- Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalar  
universiteti qoshidagi akademik litseyi o'qituvchisi  
oysanamimomkulova@gmail.com

## О'ТКИР HOŠIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANIDA BADIY XARAKTER YARATISH MAHORATI VA RUHIYAT TALQINI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-2>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqining zabardast va sevimli yozuvchisi bo'lgan, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida badiiy xarakter yaratish va ruhiyat talqini xususida ayrim mulohazalar yuritiladi. Badiiy ijodda ruhiy tahlilning o'rni va ahamiyati beqiyos. Har qanday badiiy asarning darajasi unda inson qalbi haqidagi haqiqat qay yo'sinda, qanday ifoda etilgani yoki tasvirlanganligiga ko'ra belgilanadi. Badiiy asar markazidagi inson qiyofasi uning ruhiyati tahlili orqali ochib beriladi. Ilmiy fikrlar romandagi qahramonlarning ichki kechinmalari, xarakteri, o'y-xayollari, ruhiy dunyosidagi jarayonlar misolida asoslab boriladi.

**Tayanch so'zlar:** Psixologik-ruhiy tasvir, shaxs tushunchasi, badiiy xarakter, xarakter va muhit, xarakter va konflikt.

**Имомкулова Ойсанам Бинаевна**  
Преподаватель академического лицея при  
Ташкентского университета информационных  
технологий имени Мирзо Улугбека

## НАВЫКИ И ДУХОВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ХАРАКТЕРА В РОМАНЕ УТКИРА ГАШИМОВА "ЖИЗНЬ В МЕЧТЕ"

### АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о создании художественного персонажа и толковании психики в романе народного писателя Узбекистана Уткира Хошимова, блестящего и любимого писателя узбекского народа, в романе «Жизнь в мечте». Роль и значение психологического анализа в искусстве несопоставимы. Уровень любого произведения искусства определяется тем, как истина о человеческом сердце выражается или изображается. Образ человека в центре произведения искусства раскрывается через анализ его психики. Научные идеи основаны на внутреннем опыте, характере, мыслях и процессах в духовном мире главных героев романа.

**Ключевые слова:** психологический образ, концепция личности, художественный характер, характер и окружение, характер и конфликт.

**Imomkulova Oysanam Binaevna**

Teacher of lyceum of Tashkent University of Information  
Technologies after named Mirzo Ulughbegh

## UTKIR HASHIMOV'S MOVEMENT AND SPIRITUAL INTERPRETATION OF ARTISTIC CHARACTER IN THE NOVEL "LIVES IN A DREAM"

### ABSTRACT

This article discusses the creation of an artistic character and the interpretation of the psyche in the novel "Lives in a Dream" by the People's Writer of Uzbekistan Utkir Hoshimov, a brilliant and beloved writer of the Uzbek people. The role and importance of psychological analysis in art is incomparable. The level of any work of art is determined by the way in which the truth about the human heart is expressed or portrayed. The image of a person at the center of a work of art is revealed through an analysis of his psyche. Scientific ideas are based on the inner experiences, character, thoughts, and processes in the spiritual world of the novel's protagonists.

**Keywords:** Psychological image, concept of personality, artistic character, character and environment, character and conflict.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o'rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o'ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san'ati yotadi. Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagina chuqur va ko'p qirralidir, ya'ni unda, nafaqat ruhiy-psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo'lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal, xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo'ysundiriladi.

Har qanday adabiy-badiiy asar bilan o'quvchi tanishar ekan, uning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Asarni tushunish uchun esa, o'quvchi uni o'qish asnosida muayyan qoidalar, qonuniyatlar asosida ish ko'rish zarur bo'ladi. Bu qonuniyatlar asarga tegishli bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan, tushunish masalasini osonlashtiruvchi bir qator omillardir. Bu omillardan biri, badiiy asarning ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, o'y-xayollari, ruhiy dunyosini anglash, demakdir. Badiiy asardagi har bir xarakter, xatti-harakatlar, detallar, voqealar rivoji, epizodlar orqali asar ruhiyati anglashiladi. Bu, nisbiy tushuncha. Chunki, badiiy asar ruhiyatini faqat yuqoridagi vositalar orqaligina tushunish mumkin, degan hukm noto'g'ri. Biroq, bu narsalar asarni to'laroq tushunishda vosita rolini o'ynaydi, xolos.

Badiiy asarni to'laligicha namoyon bo'lishi uchun qahramon va uning ruhiyati masalasi birinchi o'rindagi masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunos olim U.Normatov alohida qayd qilganidek: "Hozirgi jahon adabiyotshunosligida badiiy asar qimmat, darajasi birinchi galda unda hayot va shaxsning yangicha konsepsiyasi hamda badiiy talqini, ifodasiga qarab belgilanadi. Shu yuksak umumbashariy adabiy – badiiy mezonlar asosida yondashiladigan bo'lsa, O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani 90-yillar o'zbek adabiyotidagi jiddiy voqea, muhim yangilikdir"[1]. Bu fikrlardan ko'rinadiki, 90-yillar badiiy adabiyoti shaxs olamidagi ziddiyatlarni, shaxs va muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganligidan dalolat beradi. Roman voqealari hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etish bilan bir qatorda, hayotiy ziddiyatlarning shaxs xarakteriga tasirini borlig'icha yoritishga harakat qilgan. Shuning uchun har qanday yetakchi mavzu, ezgu g'oyalarni san'atkorona ifodalay olsagina yuksak badiiylik kasb etadi.

Adabiyotshunos O.Sharafiddinov ta'kidlaganidek: “Bugungi adabiyot, badiiy tafakkurimizda erishishimiz kerak bo'lgan eng muhim jihat – voqelikka dunyoga munosabatda yangi aspektlarga chiqish, dunyoni yangicha, chuqurroq, yuksakroq idrok qilishga o'tish. Binobarin, dunyoning, jamiyatning, insonning mohoyatini kengroq ochishga harakat qilishimiz kerak”[5].

Darhaqiqat, badiiy adabiyotdagi estetik o'zgarishlar jamiyatni, ma'lum bir davrni murakkab qirralarini yangicha tamoyillar asosida talqin qilar ekan, shaxs konsepsiyasiga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Estetik tamoyillarning o'zgarishi, inson xarakteridagi ziddiyatlarni, ijtimoiy muhit o'rtasidagi vujudga kelayotgan qarama-qarshiliklarni o'sha davr nuqtaiy nazaridan talqin etish O'tkir Hoshimov ijodida ham o'ziga xos ifodasini topgan. Ana shu nuqtaiy nazardan roman haqidagi fikrlarni umumlashtirish mavzuning yangiligini belgilaydi.

**Asosiy qism.** Yozuvchi O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida badiiy xarakter yaratish an'anasini, uning talqinini, xarakter va muhit, xarakter va konflikt kabi xususiyatlar asosida tahlil qilishimiz mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Shuningdek mustaqillik davr romanchiligi tarixiy taraqqiyotida adibning o'rni va badiiy mahoratini asosli ko'rsatib berishdan iborat. Adib ijodi haqidagi adabiy–tanqidiy qarashlarni umumlashtirish jarayonida, o'z mulohazalarimizni qayd qilish orqali, roman badiiyatini tahlilga tortish va badiiy xarakterlar olamini yoritishdan iborat.

Badiiy adabiyot xarakterlar yaratish san'ati ekan, yozuvchining bir romani misolida, bu tushunchalarni nazariy jihatdan asoslash, xarakter darajasiga ko'tarilgan badiiy obrazlarning o'ziga xosligini ifodalab berish orqali bugungi estetik ta'moyillardagi o'zgarishlarni badiiy asar sujetiga singdirilish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov «Tushda kechgan umrlar» romanida hayotimizning salbiy tamonlari bilan bir qatorda, afg'on urushining fojeali tomonlarini hayot haqiqatidan kelib chiqib tasvirlagan.

Hozirgi jahon adabiyotshunosligida badiiy asar qimmatini, darajasi birinchi galda unda hayot va shaxsning yangicha konsepsiyasi hamda badiiy talqini, ifodasiga qarab beliglanadi. Shu yuksak umumbashariy adabiy-badiiy mezonlar asosida yondashiladigan bo'lsa, O'.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romani 90-yillar o'zbek adabiyotidagi jiddiy voqea, muhim yangilikdir. Bir qarashda roman yangi o'zbek adabiyotida muayyan an'anaga aylanib qolgan mavzu-muammolar — mustabid tuzum tanqidi, afg'on urushi, «o'zbeklar ishi» qurbonlari haqida bahs etadi. Biroq badiiy asarda, xususan, romanda yozuvchining yangi so'zi u yaratgan jonli va ko'lamli shaxslar timsoli orqali gavdalanadi. «Tushda kechgan umrlar» romanidagi talay personajlar, xususan, ikki yorqin qahramon — Rustam va Komissar obrazlarini yozuvchining bugungi adabiyotimizdagi yangi so'zi, badiiy kashfiyoti desa bo'ladi. Asarda Rustam, Qurbonoy xola, Shahnoza, Soat G'aniyev (komissar), To'lagan, Fotima, Nazira, Mauzer, Mels kabi o'nlab obrazlar galeriyasi mavjud. Yozuvchimiz bu obrazlarni kasbi kori, turmush tarzi, ijtimoiy kelib chiqishi turli tuman bo'lishiga qaramasdan bir-birlari bilan shunday mohirona bog'liqlikda asar sujetiga singdirganki, natijada har bir personajning xakteri shakllanishida, ruhiy dunyosini ochib berishga bevosita xizmat qilgan.

Asar bosh qahramonlari Rustam, Komissar, Qurbonoylardir. Bu uchlik-obrazlar asarning g'oyaviy konsepsiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Asar peysaj tasviridan boshlanadi: «Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta – indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yosh to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi»<sup>2</sup>. Peyzaj tasviri ham inson ruhiyatini ma'lum bir qirrasini yoritishga xizmat qiladi. E'tibor qilinsa, ijodkorning badiiy mahorati shunda ko'rinadiki, voqealarni “...kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi...” tashbehi bilan boshlab, o'quvchini keyinroqda yuz beradigan fojeiy vaziyatga ruhiy jihatdan tayyorlab oladi.

Bilamizki, har qanday salmoqdor, ezgu g'oya san'atkorona ifodasini topgan taqdiridagina qudratli kuch kasb etadi, asar g'oyasi esa o'quvchi qalbini asir etadigan yaxlit sirli-sehrli tasvir ohangi orqali pafosga aylanadi. Ilk jumladagi mana shu ma'yus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib vujud-vujudigingizni qamrab oladi. Asar qahramoni qismati

boshdagi o'sha mungli so'zlar bilan intihosiga yetadi. «Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi» jumlasini faqat qahramon qismatidagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham dahldor — darhaqiqat, o'sha yillari jamiyat bamisoli o'lim to'shagida yotgan bemordek talvasada edi. Romanda o'zgacha davr, o'zgacha vaziyat, muammo, mojarolar. Biroq bosh qahramon boshiga tushgan savdolardan qutilish yo'li o'sha — Rustam tipidagi oriyatli, vijdonli yigitni bu mudhish ko'rguliklardan o'lingina mosuvo etadi. Chuqurroq qarasa, Rustam obrazi talqinida ekzistensializm falsafasining ta'siri seziladi... Darhaqiqat, agar «Tushda kechgan umrlar» romanini ekzistensializm nuqtai nazaridan tushunmoqchi bo'lsak, Rustam obrazi talqinida o'ziga tamomila «begona dunyo»da, o'ziga «dushman dunyo»da yashagan shaxs fojeasini ko'ramiz. Rustam o'zi yashayotgan dunyoda o'zini mutlaq «begona» his qiladi, o'z dunyosidan mantiq, hayotidan ma'ni topolmay qoldiki, ayni shu sharoitda uning qarshisida «hayot yashab o'tishga arziydimi?» qabilidagi absurdga xos savol ko'ndalang bo'ldi. Absurd falsafasining otasi Kamyu: «Inson ongidan tashqarida absurd mavjud emas. Uning o'limi bilan, boshqa barcha narsalar kabi, absurd ham yo'q bo'ladi», — deb yozadi. Ayni paytda, Kamyu insonning ixtiyoriy hayotdan ketishini ham yoqlamaydi, aksincha, uning talqinida «isyon o'lim emas, hayot manbaidir. Uning tub mohiyati — vayronkorlik emas, bunyodkorlik mantiqidir». Ya'ni, insonning isyoni voqeyelikni o'zgartirishga, tartibsizlikni (xaos) uyg'un tartibga (garmoniya) keltirishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, Kamyu — pessimist, dunyoni muayyan tartibga, bir paytlar ma'rifatchilar o'ylagandek inson uni «aqlga muvofiq holga keltira olishiga» ishonmaydi (aslida, modernizm dunyoqarash sifatida ma'rifatchilikning to'la inkori bo'lib maydonga kelgan). Demak, Kamyu talqinidagi inson mavjudligining sharti bo'lmish «isyon» ham avvalboshdan absurddan o'zga narsa emas, u insonning o'zi uchungina kerak, uning o'z hayotida ma'ni bor deb o'ylashi uchun aldov, xolos. Ayni shu o'rinda «Tushda kechgan umrlar»dagi va Kamyu talqinidagi «absurd» orasida ulkan farq mavjudligi ko'zga tashlanadi. O'.Hoshimov umidvorlik hissidan mosuvo emas, uning uchun «absurd voqeyilik» jamiyat taraqqiyotidagi bir bosqich, «absurd tuyg'usi» shu bosqichda yo'lsizlikdan qiynalayotgan shaxs dunyoqarashi, kayfiyatidagi muvaqqat holat. Kamyu uchun esa, ma'lumki, absurd — universal hodisa, u absurd tushunchasini insoniyatning tongidan shomiga qadar, azaldan abadga qadar tadbiq etadi...

Rustam — fojeiy shaxs. Katta hayotga endigina kirib kelayotgan, ona yurtning yetuk bir farzandi, sodiq fuqarosi bo'lishi, el-yurt uchun ko'p ishlar qilishi, sevgilisi vasliga erishib baxtli hayot kechirishi mumkin bo'lgan bu navqiron o'g'lon umri o'n gulidan biri ham ochilmay turib xazonga aylanadi. Uning hayotini mustabid tuzum, totalitar rejim siyosatini yurgizganlar, afg'on urushini boshlaganlar, «o'zbeklar ishi», «paxta ishi» mojarosini o'ylab topgan g'alamislar zavol etadi. Rustam halokati mana shu mudhish siyosatga zo'r bir aybnoma kabi yangraydi.

Asardagi Komissar obrazi esa murakkab obrazlardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, harakatlarini, faoliyatini oqlab ham, qoralab ham bo'lmaydi. Nazarimizda, u, sovet davrining ramziy ifodasiga o'xshaydi. Asarni o'qish davomida, ko'proq, uning salbiy xususiyatlari ko'zga tashlansa-da, biz uni butunlay inkor eta olmaymiz.

Davr, ijtimoiy muhit shunday ediki, hattoki, ta'riflab berish mushkul bo'lgan darajada, kishilar e'tiqodi “dogma” holatiga keltirilgan edi. Komissar ham ana shunday e'tiqodi qotgan, o'zi uchun qat'iy normalarni yaratib olgan—“prinsipial” kimsa edi. Uning ruhiyat olamiga, psixologik va ma'naviy qiyofasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zgalar fikrini tan olmaydigan, o'z fikrida “sobit”, o'zini jamiyatning eng kerakli ustuni, ya'ni uni “yot unsur” lardan tozalovchi kishi deb biluvchi kimsa ekanini bilib olamiz. U hech kimga ishonmaydi, hattoki farzandlari, xotini, yaqinlariga ham. Yozuvchi uning bu qiyofasini sekin-astalik bilan dalillab boradi. Birinchi dalil uning tergov hujjatidan keltirilgan biografiasida ko'rinadi.

“G'aniyev Soat G'aniyevich. Yetmish besh yoshda. Ittifoq miqyosidagi pensioner. Millati-yo'q. So'qqabosh. Avval sudlanmagan. Qatortol mavzei, 40-uy, 41-xonadonda istiqomat qiladi. 1941 yildan beri partiya a'zosi. Qizil Yulduz, Jangovar Qizil Bayroq ordenlari, oltin medal nishondori”.[6]

Mana shu tarjimai holda ko'rinadiki, uning hech qaysi millatga mansub emasligi (bo'lishi mumkin emas-K.Sh) va Sovet hukumati oldidagi “beqiyos” xizmatlari aytiladi.

-Savolni men...

-Yig'ishtiring demagogiyani! So'roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman sistemangiz aynib ketgan. Tartib yo'q. Tartib bo'lsa, Shomatovni organga ishga olmas edingiz.

-Kechirasiz grajdanin... o'rtoq Komissar... Bu gaplarni siz qayoqdan bilasiz?

-Men hamma narsani bilaman. Bu sohada ish boshlaganimda sizning otangiz ham tug'ilmagan edi.[6]

Ha, uning hamma narsadan xabardor bo'lib turishi o'zi va jamiyat uchun eng zarur hol edi.

«Ba'zilar organ deganda nuqul jazo beruvchi tashkilotni tushunadi. Unaqa emas. Organ jamiyatni yot unsurlardan himoya qiladi. Shunday ekan, uning qo'ligina emas, «qulog'i» ham yaxshi ishlashi shart. Har qanday tashkilotda, hatto yamoqchining do'konida ham «quloq» bo'lsa ziyon qilmaydi. To'g'ri-da, vaqti-vaqti bilan «tozalash» o'tkazib turmasa boshqarib bo'ladimi bu turfa jamiyatni!

Urushdan keyingi «tozalash» ham bejiz qilingani yo'q. Ayniqsa, olifta intelligentlar haddidan oshib ketdi. Gazeta-jurnallarda sovet jamiyatini masxara qiladigan narsalar paydo bo'la boshladi. Maktab o'qituvchisidan tortib olimgacha –hammasi «dono!». Hammasi-«daho!» Xex!».[6]

Asardan keltirilgan ushbu parchadan biz Komissar obrazi, uning ruhiy olami, ma'naviy qiyofasi haqida yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lamiz. U haqdagi xulosalarimizni jamlashga harakat qilamiz.

Asarda ijtimoiy muhit ta'sirida xarakteri shakllangan Soat G'aniyev obrazi juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo'yin egmaslik, cho'rt kesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko'ramiz: «- Ha –a, kamissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan!... Soat tag'in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo'llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi... o'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... - Eshitib qo'yinglar! –dedi Soat alam aralash g'azab bilan. – Men komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman! «(O'sha asar, 34-36 betlar). Bu satrlarda komissar bo'lish orzusida yurgan, bolalikning beg'ubor damlarini o'z boshidan o'tkaziyotgan Soat G'aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma'noda tasvirlangan. «O'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini», - anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Natijada, o'z farzandi ham unga qarshi chiqqanda azoblar iskanjasida qoladi: «Qarang, bu olifta intelligentni! O'z otangni tergashni kim qo'yibdi senga! Zamon qanaqa bo'lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g'alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamiyodga sadoqat, ofiserlik burchi, degan gaplar bor!», - deya o'zini oqlashga harakat qiladi. Bu obraz haqida adabiyotshunos U.Normatov shunday yozadi: «Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar – mustabid tuzumning hukmron mafkuraning qilich va qalqoni, tuzum yetishtirgan «siyosiy hushyorlik» yozuvlik, shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafasat, poklik ramzi».

Asar davomida komissarga xarakter jihatidan butunlay teskari bo'lgan Nazira oilasida yaxshigina uy bekasi, vafodorlik yo'lida o'z eriga sadoqatli, farzandlarining sevimli onasi sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Nazira hayoti davomida birov bilan qarama-qarshilikka bormagan, hatto erining ishlariga umuman, aralashmagan beozor inson kabi gavdalanadi. Hatto umri so'ngida ham osongina «jon taslim» etadi. Bu holatni yozuvchi qo'yidagicha tasvirlaydi: «Nazira hayotida hech kim bilan olishishni istamagani kabi o'limda ham ajal bilan tortishib o'tirgisi kelmaganidek osoyishta yotar, lablarida alamli tabassum qotib qolgan, go'yo oxir oqibat, bu azoblardan qutilganiga shukur qilgandek, sen bilan o'tgan umrimga ham, dunyoning ishlariga ham pushaymonman deb mayus kulayotgandek edi...» (O'sha asar, 142-bet). Komissar Naziraning o'limidan o'kirib yig'laydi. Ammo bu yig'i uning umrida birinchi va oxirgisi bo'lib qolishini o'zi ham tasavvur eta olmasdi.

Romanda tasvirlangan ikki qutbning ya'ni, Soat G'aniyev yozuvlik, munofiqlik timsoli bo'lsa-da, Nazira-poklik, ezgulik elchisi sifatida namoyon bo'lib, ularning hayoti birga kechsa-da, Naziraning qalbida unga nisbatan kuchli nafrat tuyg'usi o'sib ulgurmagani. Shuning uchun ham: «– Jon dadasi, - dedi yolvorib. - Ertaga chaqaloqni tug'ruqxonadan olib chiqishadi. Umrin bino

bo'lib sizdan hech nima so'ramadim? Iltimos, bir marta xo'p deng, boraylik... Mayli, ko'pmas, besh minutga... Bir og'iz tabriklab chiqing. Buva bo'ldingiz axir. – O'zing boraver! – Odammisiz o'zi nimasiz?! – dedi iltijo qilib. – Bir og'iz gap uchun o'z pushti kamaringizdan bo'lgan farzandingizdan kechasizmi?» (O'sha asar, 139-bet).

Asarning bu satrlarida Naziraning ichki dunyosidagi qarama-qarshilik yanada yorqinroq ifodalangan. Ammo uning qalbidagi alam asta-sekin yuzaga chiqa boshlaydi. Shunda ham o'zligini saqlab qolishga intiladi. Farzandiga bo'lgan onalik mehri kuchlilik qiladi.

Biz yuqorida “uchlik obraz” iborasini ishlatdik. Bu uchlikning yana biri Qurbonoy obrazidir.

Qurbonoy-o'zbek ayollarining timsoliga o'xshaydi. Unda haqiqiy o'zbek ayollariga xos bo'lgan andisha, mehr-oqibat, imon, pokizalik saqlanib qolgan.

Faqat shunisi qiziqki, nima uchun uning ismi aynan Qurbonoy? Nimaga Sadoqat emas? Nima uchun Mehrixon emas? Yoki umuman? Shu o'rinda yozuvchi ism tanlashda ana shu ismlarga ma'lum ma'nolarni yuklaganligiga amin bo'lamiz.

Davrning bo'ronlarida, mustabid tuzumning taloto'plarida aynan o'zbek millatining necha minglab farzandlari qurbon berilgani tarixiy faktlardan bizga ma'lum. Asardagi ana shu davrning, tuzumning eng katta qurboni ham Qurbonoydir. To'g'ri, uning ismi haqida asarning bir o'rnida to'xtab o'tiladi. Bu Komissar navbatdagi “tozalash”ni o'tkazayotgan paytda, Qurbonoylarning uyida yapon rezidentiga yozilgan xatni tintish jarayonida yuz beradi.

“Qurbonoy emish! Xo'p topibsanni, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug'ilgan. Maktabda o'qituvchilik qilasan, uyingda Qur'on o'qiysan... Ilon! Munofiq!” Qizaloq hamon onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo'yniga osilgisi kelar, ammo notanish “amaki”dan qo'r qar edi.”[6]

Bu o'rinda yozuvchining niyati o'sha davrda dinga, diniy marosimlarga munosabat qanday bo'lganligini ko'rsatish uchungina Qurbonoy ismini tanlaganligi biroz haqiqatdan chetroq tuyuladi. Albatta, biz ta'kidlagan fikrlarni yozuvchi o'ylagani aniq. Biroq, Qurbonoy obrazi asarda davrning eng katta qurboni sifatida gavdalanadi. Holbuki, u go'dakligidan boshlab qancha-qancha siyosiy zug'umlarni ko'rgan, bobosidan, otasidan va so'ngida onasidan ayancli holda ajragan edi. Bu voqealar, zug'umlar uning yuragini olib qo'ygan edi. Shuning uchun ham u taqdirga tan bergan, yozig'ida nimaiki bo'lsa, xudodan ko'rguvchi edi.

Bir qaraganda Qurbonoy obrazi asarda biz istaganchalik vazifa bajarmayotgandek tuyuladi. Uning asar bosh qahramoni Rustam bilan bir “dom”da istiqomat qiluvchi farrosh ayol ekanini bilamiz. Qurbonoy o'rniga boshqa obraz kiritilsa yoki umuman kiritilmasa ham bo'ladigandek. Biroq, gap bunda emas, Qurbonoy bilan Rustam o'rtasidagi munosabat unchalik chuqurlashmagan bo'lsa-da, davr muhiti, tuzum kishilari haqidagi xulosalarimizning yana ham quvvatliroq bo'lishida Qurbonoy obrazining o'rni kattadir. Chunki, uning taqdiri, o'tmish fojeasi bevosita Komissar bilan bog'liqdir. Komissar esa, necha minglab qurbonoylarning boshiga yetgan jamiyatning “qo'li” hisoblangan. Komissar xarakterining to'laqonli ochilishida Qurbonoy obrazining roli kattadir.

**Xulosa.** Roman epik hodisa bo'lgani holda undagi biz uchun eng muhim jihatlardan biri subyektiv ibtido (ya'ni, asarda tasvirlangan narsaning o'zigina emas)dir desak, yanglishmagan bo'lib chiqamiz. Zero, roman ijodkor tomonidan ko'rilgan, idrok etilgan va qayta yaratilgan borliqdirki, unda muallifning o'zi yashagan yoki asarda aks ettirilgan davr (jamiyat va inson)ni qanday tushunganiyu baholagani – dunyoyu davr konsepsiyasi o'z ifodasini topadi. Avvalroq aytdikki, klassik tushunchadagi roman ijtimoiy-shaxsiy ehtiyoj mahsulidir. Bu ehtiyoj esa ijodkor shaxsning jamiyat bilan ziddiyatidan yuzaga keladi, ya'ni roman o'z hayot yo'lida chigal muammolarga duch kelgan ijodkorning "ziddiyatli holatni adabiy yo'l bilan yechishga urinishi"dir [7]. Mazkur ehtiyojni qondirish uchun ijodkorning hayot materiali(dispozisiya)ni badiiy idrok etishiyu ideal asosida qayta ishlab badiiy reallik(kompozisiya)ka aylantirishi taqozo qilinadi. Voqeylik bilan muntazam muloqot asosida amalga oshgan ijodiy jarayon (badiiy tafakkur) asar strukturasi muhurlansa, muallif anglagan haqiqatlar asar butunligi(sistema)da o'z ifodasini topadi. Modomiki, romanning badiiy voqeyligi muallif ko'zi bilan ko'rilgan va ideali asosida qayta yaratilgan borliq ekan, u qanchalik obyektiv tasvirlanmasin, bari-bir ijodkor subyektivni o'zida aks

ettiraveradi. Zero, muallif subyekti roman situasiasidayoq,[8] ya'ni unda personajlarning joylashtirilishi har birining asar voqeeligida tutgan mavqeyidayoq ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga keldikki, O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani o'zbek adabiyotidagi jiddiy voqea, muhim yangilikdir. 90-yillar badiiy adabiyoti shaxs olamidagi ziddiyatlarni, shaxs va muhit o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganligidan dalolat beradi. Roman voqealari hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etish bilan bir qatorda, hayotiy ziddiyatlarning shaxs xarakteriga tasirini borlig'icha yoritishga harakat qilgan. Yozuvchimiz bu romani orqali badiiy xarakterning go'zal na'munalarini yaratdi. Badiiy adabiyot xarakterlar yaratish san'ati ekan, yozuvchining bir romani misolida, bu tushunchalarni nazariy jihatdan asoslash, xarakter darajasiga ko'tarilgan badiiy obrazlarning o'ziga xosligini ifodalab berish orqali bugungi estetik tamoyillardagi o'zgarishlarni badiiy asar sujetiga mohirona singdirganligidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

---

1. Normatov U., Quronov D. Romanning yangi umri// Jahon adabiyoti. 2001.№9, -185 bet
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Toshkent "Manaviyat", 2000-yil, - 112 bet.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent, "Sharq", 2002 yil. - 256 bet.
4. Yo'ldosh Q. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006 yil. – 548 bet.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, "Sharq", 2004 yil. – 640 bet.
6. Hoshimov O'. Saylanma. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent, "Sharq", 2001 yil, - 586 bet.
7. Прието А. Морфология романа//Семиотика.- М.,1983. - С. 371
8. Эсалнек А.Я. Об особенностях романной структуры // Принципы анализа литературного произведения. - М.,1984.- С.99
9. Karimov H. Istiqloq davri adabiyoti. Darslik. - Toshkent, "Yangi nashr" nashriyoti, 2010 yil, - 364 bet.
10. Sodiq Sanjar. Ijodning o'ttiz lahzasi. Adabiy - tanqidiy maqolalar. – Toshkent, "Sharq", 2005 yil, - 320 bet.
11. Sul-ton Izzat. Adabiyot nazaryasi. Darslik. – Toshkent, "O'qituvchi", 2005 yil. -272 bet.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART


**Ўраева Дармоной Саидахмедовна**

Бухоро давлат университети  
Ўзбек адабиёти кафедраси профессори,  
darmon.uraeva@mai.ru

**Назарова Гулбахор Пирмановна**

Бухоро давлат университети  
инглиз адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси,  
gulbakhorn@mail.ru

## ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА ҚУШЛАР ОБРАЗИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-3>

### АННОТАЦИЯ

Маълумки, жаҳон адабиётида миф ва асотирлар жуда муҳим ўрин тутади. Қайси бир миллат адабиётига назар солмасак, миф ва эртаклар миллатнинг яшаш тарзи, хусусиятларини ўзига мужассам этганлигининг гувоҳи бўламиз. Миф ва эртакларнинг асосий қахрамонлари эса турли миллат адабиётларида ўзгача бўлишига қарамай, барчаси яхшилик ва эзгулик сари чорловчи образлар ҳисобланади. Бу образларнинг баъзилари реал ҳаётда мавжуд бўлмасда, эртак ва афсоналардаги образлари орқали кўпчиликнинг кўнгилдан жой олган десак муболаға бўлмайди. Инглиз ва ўзбек адабиётида мифологик образларни қиёсий ўрганар эканмиз, бу икки миллат адабиётидаги мифологик образлар орасида муштарак хусусиятлар билан бирга тафовутларни ҳам кўриш мумкин.

Жаҳондаги турли халқлар оғзаки ва ёзма адабиётида қушлар образи алоҳида ўрин тутади. Улар кўриниши, овози орқали бир-биридан фарқ қилса-да, кўпинча яқин маъноларда, ўхшаш бадиий-эстетик функцияларда талқин этилиши жиҳатидан эътиборни тортади. Худди шу томонлама дунё халқлари орасида қушлар ҳақида кенг тарқалган афсона ва эртаклар диққатга сазовордир. Афсона ва эртакларда кўп қўлланиладиган қушлардан бойқуш, қарға, симурғ, қакнус каби қушлар образи ҳар иккала адабиёт намуналарида ўзгача образни акс этган. Масалан, қарға образи иккала адабиёт намуналарида ҳам худди бойқушлардек гоҳ салбий, гоҳ ижобий тимсол сифатида акс этирилган. Инглиз адабиётида мифологик тоғ қуши – Робин кенг қўлланиладиган образлардан бири бўлса, ўзбек адабиётида симурғ, қакнус, хумо каби қушлар образи мавжуд. Қушлар образи инглиз ва ўзбек адабиёти намуналарида ўз ўрнига эга бўлиб, улар аҳамиятли тимсоллардан саналади.

## ОБРАЗ ПТИЦ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

### АННОТАЦИЯ

Известно, что мифы и легенды играют очень важную роль в мировой литературе. Если не смотреть на литературу какого-либо народа, мы увидим, что мифы и сказки воплощают



образ жизни и особенности нации. Главными героями мифов и сказок, хотя и уникальными в литературе разных народов, являются образы, призывающие к добру и доброте. Хотя некоторые из этих изображений могут не существовать в реальной жизни, не будет преувеличением сказать, что они покорили сердца многих своими изображениями в сказках и легендах. Сравнивая мифологические образы в английской и узбекской литературе, мы видим общие черты и различия между мифологическими образами в литературе этих двух народов.

Изображение птиц занимает особое место в устной и письменной литературе разных народов мира. Хотя они отличаются друг от друга по внешнему виду и звучанию, они часто привлекают внимание с точки зрения интерпретации в близком смысле, в сходных художественно-эстетических функциях. Обращают на себя внимание распространенные у народов мира мифы и сказки о птицах в том же направлении. Из птиц, обычно используемых в мифах и сказках, образ птиц, таких как совы, вороны, и ястребы, имеет уникальный образ в обоих литературных образцах. Например, образ вороны изображается в литературе как сова, как негативный образ и в то же время позитивный. В английской литературе одним из самых распространенных образов является мифологическая горная птица - Робин, а в узбекской литературе встречаются изображения птиц, таких как симург, какнус и хумус. Образ птиц имеет свое место в сказках и легендах английской и узбекской литературы, и они являются важными символами.

---

## THE IMAGE OF BIRDS IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

### SUMMARY

It is known that myths and legends play a very important role in the world literature. Observing the literature of any nation, we will see that myths and fairy tales embody the way of life and characteristics of the nation. The main characters of myths and fairy tales, although unique in the literature of different nations, are images calling for kindness and kindness. While some of these images may not exist in real life, it is no exaggeration to say that they have won the hearts of many with their portrayal in fairy tales and legends. Comparing mythological images in English and Uzbek literature, we see common features and differences between mythological images in the literature of these two peoples. The depiction of birds occupies a special place in the oral and written literature of different nations of the world. Although they differ from each other in appearance and sound, they often attract attention from the point of view of interpretation in a similar sense, in similar literary and aesthetic functions. Myths and fairy tales about birds in the same direction, widespread among the peoples of the world, draw attention to themselves. Of the birds commonly used in myths and fairy tales, the image of birds such as owls, crows, and hawks has a unique image in both literary examples.

For example, the image of a crow, as well as an owl, is depicted in literature, as a negative image and at the same time positive. In English literature, one of the most common images is the mythological mountain bird - Robin, and in Uzbek literature there are images of birds such as the simurg, kaknus and hummus. The image of birds has its place in fairy tales and legends both in English and Uzbek literature, being one of the most important symbols.

---

Жаҳондаги турли халқлар оғзаки ва ёзма адабиётида қушлар образи алоҳида ўрин тутди. Асосийси, улар кўриниши, овози орқали бир-биридан фарқ қилса-да, кўпинча яқин маъноларда, ўхшаш бадиий-эстетик функцияларда талқин этилиши жиҳатидан эътиборни тортади. Худди шу томонлама дунё халқлари орасида қушлар ҳақида кенг тарқалган афсона ва эртақлар диққатга сазовордир. Уларда ер ва осмон узра парвоз этувчи қушлар кўпинча худолар хабарчиси сифатида тасвирланган. Масалан, кабутарлар юнон мифологиясида Астарте куши, Афродита, Венера, Муқаддас Рух каби мифологик образларнинг шаклланишига сабабчи ҳамда вафот этган кишиларнинг руҳи, ўлганларнинг тимсоли сифатида акс этирилган. Ирланд мифологиясида Один образи қарға тимсолида

гавдалантирилган бўлса, турналар Гермес, Меркурийнинг муқаддас куши, Кельт мифологиясида Ой куши, бургутлар Зевс ва Юпитер авлодлари сифатида талқин қилинган.

Бойкуш деярли барча халқларнинг оғзаки ва ёзма адабиётида кенг қўлланадиган образлардан биридир. Айтишларича, бойўғлилар “ички ёруғлик”ка эга бўлиб, мана шу туфайли уларда тунда кўриш қобилияти шаклланган экан. Шуниси борки, афсона ва эртақларда бойкушга бўлган муносабат турлича экани кузатилади. Бойкуш образи дастлаб фольклор асарларида талқин қилина бошланган. Сўнгра ёзма адабиётга ҳам кириб келган. Баъзи халқлар бойкушга кўрқув, нафрат ҳисси билан қараса, бошқа бир халқ унга донолик тимсоли, касалликларни даволовчи табиб, сеҳргар, ҳаёт ва ўлим орасидаги “кўприк” сифатида қараб, эҳтиром кўрсатади. Жумладан, ҳинд фольклорида бойкушлар келажакни башорат қилувчи кучга эга донолик тимсолида тасвирланади. Юнон афсоналарида, Эзоп эртақларида ҳам бойкуш худди шундай хусусиятлар билан гавдалантирилган. Аммо ўрта асрларга келиб Европада бойкуш ҳақидаги қарашлар аста-секин ўзгара бошлаган. Бу давр адабиётида бойкушлар ёвуз кучлар билан бирлашган, қоронғу ва ифлос жойларда кўним топган, ялмоғиз билан дўстлашган, ёлғизликни афзал кўрган салбий образ кўринишида талқин қилинган. У тун қаърида чарақлаб турган кўзлари ва ёқимсиз чинқириғи билан кишиларни кўрқувга солувчи, ёвузлик ҳамда ўлим шарпасидан дарак берувчи куш сифатида тасвирланган. XVIII асрга келиб эса бойкушларнинг орнитологик хусусиятлари чуқур ўрганилиши натижасида улар ҳақидаги тушунчалар кенгайиб, XX аср босқичида улар аввалгидай донолик ва башоратчилик рамзида ижобий маънодаги талқинига қайта эришган.

Бойкушнинг образлантирилиш тарихига чуқурроқ назар солинса, унинг бир илдизи қадимги юнон мифологиясига бориб тақалиши кузатилади. Бинобарин, унда донолик маъбудаси Афина бойкушнинг катта-катта кўзлари ва виқорли кўринишидан таъсирланиб, ўз ёрдамчиси бўлган қарғани саройидан ҳайдаши ва ўрнига бойкушни ёрдамчи қилиб олиши айтилади. Шу-шу Кичик бойўғли (*Athene noctua*) Афинанинг сеvimли қушига айланиб, бу кушларнинг оиласи алоҳида ҳимояга олиниб, аста-секин Акрополисда тарқала бошлагани баён этилади. Мана шу сабабли юнон кўшинлари бойкушни Афинанинг тимсоли билиб, уни турли урушларда ўзларига доимий ҳамроҳ, мадақкор сифатида олиб юришган. Агар жанг олдида бойкуш аскарлар устидан учиб ўтса, бу бўлажак жангда ғалабага эришиш белгиси сифатида қабул қаралган. Бойкушга шунчалик ишонч ва эҳтиромда бўлган юнонлар ўз тангаларининг орқа қисмида унинг суратини акс эттиришган. Тангаларда бойкуш суратининг акс эттирилиши савдо-сотик ишларининг омадли ва даромадли бўлишига ишонч билан боғлиқ бўлган. Қолаверса, юнонлар бойкушни кундалик ҳаётларида илҳом бағишловчи куш деб билганлар.[3]

Қадимги Римда эса бойкуш жасади бирор-бир нохушлик олдини олиш ёки уни тўхтатиш мақсадида хонадонлар эшигига илиб кўйилган. Аммо баъзи манбаларда бойкушнинг қичқириғи таҳдид солаётган ўлимнинг белгиси сифатида кўрсатилган. Масалан, Юлий Цезар, Август, Агриппаларнинг ўлимини шу куш қичқириғи башорат қилган, дейилади. Масалан, Уильям Шекспирнинг машҳур “Юлий Цезарь” асарида шундай талқин билан боғлиқ куйидаги парча учрайди: “...yesterday, the bird of night did sit Even at noonday, upon the market place, Hooting and shrieking”. Ушбу парчадаги the bird of night, яъни тунги куш тасвирий ифодаси орқали бойкуш назарда тутилган бўлиб, унинг “қичқириши ва чийиллаши” (Hooting and shrieking) келажакни ўлимдан дарак эканлиги ифодаланган.

Тигрис ва Юфрат дарёлари оралиғидаги текисликда бўлиб ўтган Рим армиясининг мағлубияти олдиндан бойкушлар томонидан билдирилганлиги афсоналарда айтиб ўтилган. [3]

Иккинчи аср башоратчиси ҳисобланмиш Артемидорус тушда бойкушни кўриш бўлажак саёҳатнинг муваффақиятсизликка учрашини билдиришини таъкидлаган.

Инглиз адабиётида ҳам бойкуш жуда кўп қўлланилган мифологик образ бўлиб, ижобий ҳамда салбий хусусиятларда ифода этилган. Масалан, омборхона бойкушлари (Barn Owls) шумлик, ёмонлик тимсоли ҳисобланган, чунки улар қоронғулик кушлари сифатида ўлим даракчиси саналган. Ўн саккизинчи ва ўн тўққизинчи аср шоирлари Роберт Блеер ва

Уильям Уордсвотлар ўз шеърларида омборхона бойкушлари (Barn Owls)ни “аччиқ қисмат” даракчилари (bird of doom) сифатида жуда кўп қўллашган. Бойкушлар уларнинг сеvimли тимсоллари ҳисобланган. Англияда яна омборхона бойкушлари (Barn Owls)га нисбатан об-ҳаво башоратчиси сифатида ҳам қаралган. Бойкушларнинг кичқириғи совуқ ҳаво ёки бўроннинг яқинлашаётганлигидан дарак ҳисобланган. Ўн тўққизинчи асрларда Англияда чақмоқ ва ёмон ҳавонинг олдини олиш мақсадида омборхона эшикларига бойкушнинг ўлик танаси осиб қўйилган. Инглиз эртақ ва афсоналарида бойкушлар айрим касалликларга даво сифатида ҳам талқин қилинган. Масалан, бойкушнинг тухумини хом ҳолда ичиш шаробга ружу қўйишнинг, ичкиликбозликнинг олдини олади, деб қаралган. Тухумни қовурган ҳолда тановул қилиш эса кўз нуруни яхшилашига ишонилган. Бойкуш гўштидан тайёрланган қайнатма шўрвадан эса сурункали йўтални даволашда фойдаланилган. Бундай одатлар ҳалигача инглиз халқ табобатида фойдаланиб келинмоқда. Англиянинг шимолий қисмида эса бойкушни кўриш омад белгиси ҳисобланган. [1]

Инглиз адабиётида энг кўп қўлланилган куш образларидан яна бири қарғадир. Қарға образи ҳам худди бойкушлардек гоҳ салбий, гоҳ ижобий тимсол сифатида акс эттирилган. [1] Шулардан бири Ирланд афсоналаридаги Морриган (Mórrigan or Morrigan) образидир. “Морриган” сўзининг маъноси “арвоқ қиролича” дегани бўлиб, у қадимги Ирланд адабиётида уруш, тақдир ва ўлим худоси ҳисобланган. Бу образ афсоналарда ўз кўринишини тез-тез ўзгартира оладиган ва кўпинча қора қарға кўринишида намоён бўладиган, урушдан олдин кўзга кўринса, даҳшатли хабар даракчиси ҳисобланган қиёфаларда гавдалантирилган.

Афсоналарда айтилишича, Морриган аслида Бадб (Badb), Мача (Macha) ва Немейн (Nemain) исмли уч эгиз опа-сингиллардан бири бўлган. Аммо баъзи бир манбаларда Морриган машхур учлик, яъни ер худолари – Эриу (Ériu), Банба (Banba) ва Фодла (Fódla)ларнинг бири сифатида кўрсатилган. Айрим манбаларда эса, Ирландия номи ҳам шу мифонимдан келиб чиққан деган фикрлар мавжуд. Яъни “Eire” ва “land” сўзлари кейинчалик Ирландия сўзининг шаклланишига сабаб бўлганлиги айтилади.[4]

Морриган, асосан, қиролича Маив даврида Коннат армиясига қарши жангда Улстер шаҳрини химоя қилган жасур Кухулин (Cuchulainn) ҳақидаги машхур эртақлар қаҳрамони сифатида эътибор марказида бўлган. Кухулин эса ирланд мифологиясининг асосий қаҳрамонларидан биридир. Бу туркум эртақларда тасвирланишича, Кухулин курашда душманни бирма-бир қириб ташлаётганда, Морриган гўзал қиз кўринишига кириб, бир неча марта уни йўлдан оздирмоқчи бўлади. Аммо Кухулин Морриганнинг мафтункорлигига учмасдан, уни рад этади. Бундан қаттиқ жаҳли чиққан Морриган тезда илонбалиқ кўринишига кириб, Кухулин фиорд (Норвегиядаги кирғоқлари қояли, тор ва чуқур денгиз кўрфази) орқали кетаётганида унинг оёғи тагига тушиб йикитмоқчи бўлади. Бироқ эпчил Кухулин илонбалиқни тезда тутиб олиб, уни қаттиқ савалайди. Морриган эса яна ўзининг сеҳрли кучини ишлатиб, дарҳол бўрига айланади. Атрофдаги чорвани Кухулин устига ҳайдаб солади, лекин Чучулфейн яна ўзининг эпчиллигини кўрсатиб, Морриганнинг кўзига камон орқали ўқ узиб, унинг бир кўзини жароҳатлайди. Морриган бу гал дарҳол бузоқ кўринишига киради ва Кухулинга тағин хужум қилади, аммо бу сафар ҳам унинг уринишлари бефойда бўлиб, Кухулин уни ўз камонидан ўқ отиб, оёғини яралайди. Эртақ охирида Кухулин жангдаги ғалабасидан хурсанд тарзда уйга қайтаётганида, сигир соғаётган бир қари аёлга дуч келади. Афсуски, бу аёлнинг бир кўзи кўр, бир оёғи чўлок эканлиги Кухулинга Морриганни эслатмайди. Аёл унга уч хўплам сут беради. Кухулин аёлни берган сути учун дуо қилади. Дуо қилаётган пайтида қари аёлнинг ҳар бир жароҳати тузала бошлайди. Кухулин эса бу аёл Морриганнинг янги қиёфаси эканлигини ўйлаб ҳам кўрмайди ва ўз дуолари билан уни даволашда давом этади. Морриган шу тарзда сўнгги маротаба Кухулин олдида унинг ўлимидан бурун пайдо бўлади. Кухулин жангларнинг бирида қаттиқ яраланади, аммо жароҳатларига қарамай, душманга тик боқади. Айни шу пайтда Морриган унинг елкасига қора қарға кўринишида келиб кўниб, Кухулиннинг ўлимидан дарак беради. [4]

Инглиз адабиётида мифологик тоғ қуши – Робин кенг қўлланадиган образлардан яна биридир. Европа адабиётида бу қуш “red breast”, яъни “қизил бағирли қуш” деб аталади. Швед афсоналарида бу қушни Томми Лиден, норвегия эртақларида питер Рос Тентак деган исмлар билан аташган. Инглиз адабиётида эса шоир Вордсворс бу қушга ўз шеърлятида кўп маротаба мурожаат қилган. Робин бу тоғ қушининг умумий номланиши бўлиб, эртақ ва афсоналарда унинг Робин Гудфеллов, Ҳобгоблин, Робгоблин каби бошқа номлари ҳам учрайди. У уй-рўзгор қуши сифатида таърифланиши кузатилади. Шу маънода у уйда боқилади. Одамлар бу қуш сақланган хонадонга бахт-омад келишига ишонишган. Агар бу қуш қафасда сақланса ёки ўлдирилса, бутун оилага бало-қазо ёпирилиб келиши таъкидланган. Уларнинг афсонавий ва муқаддас қуш эканлиги қишда айнан черков томларини танлашлари мисолида айтиб ўтилган. Тоғ қуши – Робинлар Жорж Смит, Александр Поп, Дон Жон каби инглиз шоирларининг шеърларида тез-тез учрайдиган образлардан биридир. Тахминан 1500 йилда Уильям Вейжер ўзининг машхур “The longer thou livest the more fool thou art” драмасида Робинларнинг қаҳратон қишдан қочиб, черковда паноҳ излаганини ва айнан черков томлари уларни асраб қолганини тасвирлайди ва шу орқали бу қушларнинг илоҳий куч ва хислатга эга эканлигини таъкидлайди.

Қизил бағирли қушларнинг мифологик образ сифатида тасвирланишини Уильям Шекспир асарларида ҳам кўриш мумкин. Масалан, у “Cymbeline” асарида бу қушни Раддок деб номлаган. “Рад” инглизчада “red” – қизил маъносини билдиради. Шоир тоғ қушини ўз асарида “қизил бўйин” номи билан ҳам ифодалаган.

Қушлар тимсоли инглиз ва бошқа кўпгина халқлардаги сингари туркий халқлар, жумладан, ўзбек мифологиясида ҳам илоҳий олам билан мулоқотга кириштирувчи – воситачи сифатида ифодаланган. Одам ўлганидан кейин ёки уйқусида руҳи қушга айланиб учиб кетиши ҳақидаги тасаввурлар халқнинг оғзаки ижоди ва маросиму урф-одатларида ўзига хос талқин қилинган. Масалан, “Майна”, “Опа-ука”, “Дев қиз”, “Туноҳсиз мусича”, “Рустам” каби ўзбек халқ эртақларида шундай талқинлар мавжуд. Ҳатто ўзбек мумтоз адабиётида ҳам қуш образи муҳим ўринга эга. Хусусан, ўзбек мумтоз адабиётининг буюк намояндаси Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонида қушлар образи рамзий-тимсолий маъноларда маҳорат билан қўлланилган. Асардаги қушлар образини қуйидаги гуруҳларга ажратиб таҳлил қилиш мумкин: а) афсонавий қушлар: Симуруғ, Анко, Ҳумо, Қакнус; б) реал қушлар: худхуд, булбул, тўти, товус, кумри, кабутар, кабки дари (каклик), тазарв, қарчиғай, шунқор, бургут, куф, ўрдак ва товук. Шунингдек, дostonда умумий тимсолий маънодаги жон қуши, кўнгул қуши, малойик қушлари кабилар ҳам келтирилган.[5]

Инглиз адабиётидаги қушлар образи талқини ўзбек адабиётидаги қушлар образи талқинига қиёсланса, бир неча ўхшаш хусусиятлар кўзга ташланади. Масалан, инглиз адабиётида бойқуш кўпинча ўлим ҳодисаси билан боғлиқликда талқин этилган. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида бойқушга қуйидагича таъриф берилган: “Салбий ва ёқимсиз воқеа-ҳодисалар даракчиси, сабабчиси (кўчма маънода). Миркарим Осимнинг Ўтрор асарида бойқушларни қуйидагича тасвирлайди: Бир у (Темиртош) шу бахтга эришган пайтида, юрт устида фалокат бойқуши қанот қоқа бошлади. Ёки бойқушлар яна жаҳолат, хурофот, бидъат қушлари деб ҳам таърифланган. [6]

Юқорида эслаб ўтилганидек, Уильям Шекспирнинг машхур “Юлий Цезарь” асарида бойқуш ўлим даракчиси тимсолида ифодаланган. Ибн Сино эса ўзининг “Тайр” қиссасида инсонларнинг руҳларини қушлар шаклида тасвирлайди, яъни инсон ўлгандан кейин унинг руҳи қушга айланишини айтади. Навоий лирикасида қушларнинг жон қуши, кўнгил қуши, малойик қушлари, арвоҳи қудсий қушлари, ҳидоят қушлари, васл қуши, хирад қуши, жунун қушлари каби тимсоллари келтирилган. Албатта, бунда жон қуши тимсолининг генезиси қадимги инсонларнинг одам ўлгач, руҳи қушга айланиши ҳақидаги анимистик тасаввурларига бориб тақалади. Шу маънода Алишер Навоийнинг “Ғаройиб ус-сиғар” ва “Лисон ут-тайр” асарларида киши руҳининг чиқиб кетиши қушнинг парвозига қиёсланган. [5]

Ўзбек адабиётида Симуруғ мифоними афсонавий қушлардан бири сифатида кенг қўлланади. Унинг тарихий илдизлари жуда узоқларга бориб тақалади. **Симуруғ (Семурғ)** –

Эрон-сўғд халқлари мифологиясида сеҳрли, барча нарсага қодир қуш рамзи сифатида тасвирланиб, Ахурамаздага тенглаштирилади. У бургутсимон тумшукли, катта қанотли, баҳайбат ва патлари ҳам сеҳрли қуш тарзида тасвирланади. Бу образ турли давр адабиётида турлича ном билан юритилган. Зардуштийларнинг муқаддас китоби “Авесто”да “Варағн”, “Саэна ирғға” шаклида келтирилган. Ўзбек халқ эртақларида ҳам Симуғ образининг Давлат куши, Бахт куши, Булбулигўё каби вариантлари бор. Эртақларда Симуғ гоҳ подшоҳларни ўзига жалб этадиган, бир пати ярим подшоликка тенг ноёб қуш тасвирида, гоҳ бош қаҳрамоннинг ҳомийси ва ҳимоячиси қиёфасида, гоҳ инсонни ўзига мафтун этадиган сайроқи ва гўзал қуш тимсолида келади. Ўзбек адабиётида Симуғ мифоними кўпинча илоҳий хусусиятга эга қуш сифтида ифодаланган. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонида Симуғ образи дostonнинг бош қаҳрамони сифатида Симуғ – ўттиз қуш, Оллоҳнинг рамзий тимсоли талқинида ифода қилинган. [5]

Инглиз ва ўзбек адабиётида орнитомифопозетонимлар – мифологик қушлар ранг-баранглиги кузатилади. Шундай орнитомифопозетонимлардан бири Анқодир. Бу афсонавий қуш қадимги Шарқ халқлари афсона, эртақ ва дostonларида бош қаҳрамонга ҳомийлик қилувчи қуш сифатида кўрсатилган. Анқо билан боғлиқ турли хил фикрлар мавжуд. Масалан, ўзбек фольклорида у билан боғлиқ бахт, толе, давлат қуши, кимга сояси тушса, ўша бахтли бўлади, деган қарашлар мавжуд. Афсона ва эртақларда Анқо Симуғ ва Хумога ҳам ўхшатилади. Бундан ташқари, Анқо қушининг ноёб, қимматли, топилмас, Кўхи Қофда яшайдиган қуш каби хусусиятлари ҳам мавжуд. Оғзаки нутқда “анқонинг уруғи” ибораси топилмайдиган, камёб нарсага нисбатан қўлланилиш ҳолатлари учрайди.

Анқо қуши қаторида Қакнус ҳам афсонавий, камёб қуш сифатида талқин қилинади. “Навоий асарлари луғати”да унга: “Қакнус – мавҳум бир қуш, афсонага кўра, тумшугида жуда кўп тешиқлар бўлиб, бу тешиқлардан чиққан овозлардан гўё мусиқа ўйлаб чиқаришлар эмиш”, – деган таъриф берилган. Аммо бу мифонимнинг келиб чиқиш тарихи жуда қадимларга бориб тақалади. Грек мифологиясида бу қуш Феникс деб аталган. Унинг кўриниши бургутсимон ва ранги қизил-тилласимон, олов рангда деб тасаввур қилинган. У узок умр кўрадиган қушлар сирасига киритилган. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий Қакнус (Самандар) образига “Лисон ут-тайр” ҳамда “Фарҳод ва Ширин” дostonларида кўп мушоаа қилган. Бу образ зардуштийлик дини даврида улуғланган афсонавий ва муқаддас жонивордир. Шоир Носир Муҳаммаднинг “Анқони маҳрам қилдингиз” рисоласида “Самандар гоҳ қуш, гоҳ қалтақесак сингари ҳайвон” деб таърифланган ва унинг ўтда ёнмаслик хусусиятига кўпроқ эътибор берилган.

Ўзбек мумтоз адабиётида Самандар рамзий маънода умрбоқийлик ва ишқ тимсолида қўлланилган. Масалан, “Фарҳод ва Ширин” дostonида Фарҳодга унинг устози Сухайло ҳаким нафс рамзи бўлмиш аждаҳони енгилмақсадида унинг ўтини қайтариш учун самандар ёғини беради ва бу ўринда самандар ёғи нафсга қарши турувчи ишқ тимсолида ифода этилганлиги кузатилади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, қушлар образи инглиз ва ўзбек адабиёти намуналарида ўз ўрнига эга бўлиб, улар аҳамиятли тимсоллардан саналади. Ўзбек фольклори ва адабиётида улар инсон руҳи, унинг илоҳиёт билан яқинлашуви ва унга интилишини ўзида мужассам этган бўлса, инглиз оғзаки ва ёзма адабиётида инсоннинг ўлимдан кейинги руҳи сифатида ифода этилган.

## Адабиётлар


1. A dictionary of English and Folk names of British birds. [www.fogottenbooks.com](http://www.fogottenbooks.com). 2016.
2. Birds and Bird-lore in the Literature of Anglo-Saxon England. Mohamed Eric Rahman Lacey. Submitted for the degree of Ph.D., University College. – London, 2013
3. Owls in Mythology and Culture. Deane Lewis. The Owl pages. [html](http://www.owls.com)
4. The Morrigan: Phatom Queen and Shape-Lifter. Irish myth and legends. [html](http://www.irishtales.com)

5. Zuhra Mamadaliyeva. Qaqnus timsoli talqinlari. Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi. Xurshid Davron kutubxonasi. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. Б ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси ” Давлат илмий нашриёти, 2015.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Джурахолова Бахора Курбонбоевна,  
Ўзбекистон давлат жахон тиллари университети  
тадқиқотчиси

## ГЕНДЕР ТУШУНЧАСИНИНГ СОЦИОЛОГИК ВА ЛИНГВИСТИК ЖИХАТДАН ТАЛҚИНИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-4>

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада гендер тушунчаси социологик ва лингвистик жиҳатдан таҳлил қилинди. “Гендер” тушунчаси турли соҳаларда турли маъно ва вазифаларда қўлланилганлиги сабабли, илмий нуқтаи назардан кўплаб баҳс-мунозараларга сабаб бўлди. Жумладан, тилшунослик ва жамиятшунослик соҳаларида бир қатор олимлар томонидан ушбу йўналиш бўйича турли даврларда кўплаб тадқиқот ишлари олиб борилган. Мазкур тадқиқ мақолада гендер тушунчасининг фанларга кириб келиши, жамиятдаги ўрни, тилшуносликда қўлланилиши ва вазифалари тўғрисидаги олимларнинг қарашлари қиёсланди ва таҳлил қилинди. “Гендер” тушунчаси жамиятнинг асосий тоифаларидан бири бўлган аёллар ва эркекларнинг ғоялари яратиладиган, қайта ишланадиган ва тартибга солинадиган маданий меъёр саналса, тилшуносликда эса жинслар тилининг намоён бўлиши, тилнинг қайси соҳаларида қўлланилиши ёритиб берилди.

**Таянч сўзлар:** гендер, жинс, грамматик жинс, биологик жинс, референциал жинс, ижтимоий жинс

Джурахолова Бахора Курбанбаевна  
Научный исследователь Узбекского государственного  
университета мировых языков

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ С СОЦИОЛОГИЧЕСКОЙ И ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье понятие гендер анализируется с социологической и лингвистической точек зрения. Понятие «гендер» используется в разных сферах в разных смыслах и обсуждается. Например, в этом направлении было проведено много исследований несколькими учеными-лингвистами и исследователями общества. Статья посвящена изучению и анализу проникновения понятия гендер в общество, его значимости, использования в лингвистике и его задач. Понятие «гендер» рассматривается как культурная норма, реформировавшая и переосмысливающая представления о женщинах и мужчинах в обществе, рассматривается как представление языка, использование в каких областях лингвистики.

**Ключевые слова:** гендер, пол, грамматический род, биологический пол, референтный пол, социальный пол.

**Juraholova Bahora Kurbanbayevna,**  
Researcher of the Uzbek State University of World Languages

## INTERPRETATION OF GENDER NOTION FROM SOCIOLOGICAL AND LINGUISTIC POINT OF VIEW

### ANNOTATION

The notion gender is analysed from sociological and linguistic point of view in this article. The notion Gender is used in different spheres in various meanings and is discussed. For instance, there were lots of research in this direction by several scientists in linguistics and society study. This article is devoted to study and to analyse the penetrance of notion gender to the society, its importance, usage in linguistics and its tasks. The notion "Gender" is considered as cultural norm reformed and recontroled the ideas of women and men in society, is considered as presenting the language, usage in which spheres of linguistics.

**key words:** gender, sex, grammatic gender, biological sex, refernsial gender, social sex

Бугунги кунда "гендер" тушунчаси энг долзарб ва кўп ўрганилаётган мавзулар қаторига киради. Жамиятшунослик ва тилшунослик соҳаларида ушбу йўналиш бўйича бир қатор тадқиқотлар олиб борилган бўлиб, кейинчалик тилшуносликда янги бир йўналиш гендер лингвистиканинг пайдо бўлишига оид келди. Аммо "гендер" тушунчаси турли соҳаларда турли маъно ва вазифаларда қўлланилганлиги сабабли, илмий нуқтаи назардан кўплаб баҳс-мунозараларга сабаб бўлди. Бугунги тадқиқ мақолада "гендер" тушунчаси социологик ва лингвистик жиҳатдан ўрганилади ва таҳлил қилинади.

"Гендер" тушунчаси турли соҳаларда кенг қўлланилган бўлиб, бугунги тадқиқот ишимизда гендер тушунчасининг социологик ва лингвистик жиҳатдан талқин қилинишини кўриб чиқамиз.

Гендер сўзи латинча "генер" (genus stem) "тур, нав" деган сўзларидан олинган бўлиб, "жинс" тушунчасини англатиб, кенг маънода, аёл ёки эркак турининг ижтимоий - маданий роллар ва хулқ-атвор бўйича фарқланишини англатади.[ 1.2.]

"Гендер" тушунчасини ёритатуриб шунга амин бўлдики, олимлар турли даврларда турлича таърифлар беришган. Жумладан, рус жамиятшунос олими А.А.Клециннинг фикрига кўра- бу "асосий ижтимоий тоифалар сифатида эркак ва аёл ғоялари яратиладиган, тасдиқланган ва кўпайтириладиган" шахслараро муносабатлар тизими ва табиий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда маданий тартибдир.[2.11.] **Зеро**, ҳамжамият томонидан энг мақбул таъриф деб ҳисобланиши тушунчаларнинг бутун доирасини англатганлигида намоён бўлади.

Хусусан, А.Клецин "гендер" атамасини "жинс" тушунчасига тенглаштириб бўлмайди деган фикрни олға суради. Бундан аён бўладики, "жинс" одамлар (эркаклар ва аёллар) тоифаларига бўлинади, "гендер" эса одамларни бир хил тоифалар "эркаклар" ва "аёллар" га ажратадиган ижтимоий ва ижтимоий-психологик хусусиятларга мос келади. "Гендер" атамаси асосан илмий нуқтаи назардан жинслараро тафовутларнинг табиий эмас, балки ижтимоий-маданий сабабларини таъкидлайдиган, аёллар ва эркаклар ҳақидаги ғоялар билан боғлиқ бўлган хулқ-атворнинг ижтимоий ўзлаштирилган шаклларига асос бўлади.

А.Клецин "гендер" тушунчаси эркак ва аёл ўртасидаги жисмоний тафовут эмас, балки аёллар ва эркакларнинг ижтимоий жиҳатдан уюшган, ижтимоий шаклланган, қайта ишлаб чиқилган ва ўзгарувчан хусусиятлари эканлигини белгилаб беради.[ 3.9.]

Шунингдек, ўзбек тилшунос олими М. Абдувахובה гендернинг тил воситаларида қўлланилиш масалалари билан махсус шуғулланган бўлиб, "гендер" эркак ёки аёл жинсидаги шахсларнинг хулқ-атвор меъёрлари мажмуаси эканлигини, таъкидлайди.[4.1.] Бундан англашиладики, "гендер" икки турдаги жинс вакилларининг хулқ-атворидаги ўзгаришлар,



ўхшалик ва фарқларнинг йиғиндисидир. Ушбу фарқлар фақатгина хулқ-атворга боғлиқ бўлмайди. Зеро, гендер ёндашуви учун эркаклар ва аёллар ўртасидаги биологик ёки физиологик тафовут бирламчи эмас, балки маданий ва ижтимоий тафовутлар катта аҳамиятга эгадир.

Бундан ташқари жамиятшунос олим И.Серова “гендер” тушунчасини жамият томонидан “аёллар ва эркакларнинг жамиятдаги ва унинг институтларидаги ўрни ва мавқеъини белгилайдиган ижтимоий модел деб баён этади.[5.15.] Социологик қарашлар шуни кўрсатадики, жамиятда ва меҳнат фаолиятида аёл ва эркакни бир-биридан айро тасаввур қилиб бўлмайди. Зеро, бу икки хил жинс вакиллари жамият ижтимоий ҳаётида катта аҳамият касб этади.

Социолог олим О. Воронинанинг таъкидлашича, гендер тушунчаси жамиятда эркаклар ва аёлларнинг роли, хулқ-атвори, ақлий ва ҳиссий хусусиятлари бўйича тафовутларни келтириб чиқарадиган жамиятнинг мураккаб ижтимоий –маданий жараёнини акс эттиради ва бунинг натижасида жинснинг ижтимоий тузилиши юзага келади.[6.5.] Англашиладики, гендер жамиятда жинслараро тафовутларни келтириб чиқарадиган ижтимоий –маданий ҳодиса саналади.

Рус олими И.С.Клецинин фикрича, гендер ҳам, жинс ҳам одамлар ўртасидаги муносабатларнинг маълум бир тартибини шакллантирадиган, шунингдек, ижтимоий муносабатларнинг турли хил амалиётларда ўзларини бошқа одамлар билан намойиш этиш шакллари белгиловчи шартли тизимдир.[7.10.] Бундан кўринадики, “гендер” ва “жинс” тушунчалари ижтимоий ҳаётда, иш фаолиятида ва одамлар билан ўзаро мулоқот жараёнида намоён бўладиган тизим ҳисобланади.

Н. Пушкирева эса ўзининг “Гендер тадқиқотлари ” мақоласида (М., 1999) ушбу тадқиқотнинг тарихига эътибор қаратади. Мақола муаллифи “гендер” атамаси жинс категориясини англаувчи, тилшуносликдан социологик, тарихий ва фалсафий тадқиқотлар томонидан олинганлигини таъкидлайди. “Гендер” атамаси жинслараро тафовутларнинг табиий эмас, балки ижтимоий-маданий сабабларини таъкидлайди. Шундай қилиб, гендер биологик жинс эмас, балки ижтимоий-маданий меъёрлар хулқ-атвор шакллари, фаолият турларини, психологик фазилатларни, эркаклар ва аёлларнинг касбларини белгилайди.[8.13.] **Зеро**, гендер жамиятда биологик жинс ва ижтимоий-маданий меъёрларнинг бир-бири билан ўзаро уйғунлигини англатади.

Энди гендер тушунчасининг лингвистик жиҳатдан талқин қилинишини кўриб чиқамиз. Инглиз тилшунос олими Гревил Корбетнинг фикрига кўра “гендер” лингвистик атамаси дастлаб биологик жинс тоифаси билан тўғридан-тўғри боғлиқ бўлмаган. “Гендер” қадимги француз тилида “меҳрибон”, латин тилида эса “хил, тур” деган маъноларни англатишини айтади. Эҳтимол, лингвистик гендернинг энг универсал таърифи америкалик тилшунос Чарлс Хокет (1958: 231) томонидан ишлаб чиқилан: “Гендер – бу ўзаро боғлиқ сўзларнинг хатти-ҳаракатларида акс эттирилган отлар синфидир”. [9.3.] Зеро, гендер тушунчаси биологик жинс тушунчасидан фарқ қиладиган, маъно жиҳатидан бир-бири билан боғлиқ сўзларнинг ҳаракатларида намоён бўладиган отларнинг синфидир.

Тилшунос Корбет ўзининг “Гендер ва гендер системалари” монографиясида (1999) 200дан ортиқ тилларга умумий шарҳ беради ва гендер белгилаш тизимларини икки асосий гуруҳлар: семантик ва расмий гуруҳларга ажратади. Биринчи гуруҳга қатъий семантик тизимлар (тамил ва бошқа дравид тиллари) ва асосан семантик тизимлар киради.[10.4.] Бундан маълум бўладики, тилшуносликда гендер белгилаш тизимлари мавжуд бўлиб, улар грамматик жинс ва расмий тилда ишлатиладиган сўзларда кенг учрайди.

Тил ва гендер бўйича мунозаралар деярли грамматик жинс ва табиий жинс тушунчалари ўртасидаги тафовутни ҳал қилиши керак бўлди; (Паувелс 1998, Корбет 1991, Хеллинггер ва Бауманн 2001, 2002, 2003). Анъанавий тилшунослик фикрига кўра, бир томондан грамматик жинс ва табиий жинс (шунингдек семантик, биологик ёки референциал жинс сифатида ҳам танилган) ўртасида фарқ мавжуд. [11.14.] Англашиладики, тилшуносликда гендер тушунчаси грамматик жинс ва табиий (биологик) жинс каби

тушунчалар билан фарқланган ва улар ўртасидаги ўзаро тафовутлар кўплаб тилшунос олимларнинг баҳс-мунозараларига олиб келган.

Гендер тилшунослигидан олдин феминистик тилшунослик танқид қилинган. Аниқланган феминистик тилшунослик қарашлари тил тизимида “аёлларга қарши” асимметрия мавжудлигини исботлайди. Ушбу хулоса лингвистик нисбийлик гипотезаси нуқтаи назаридан изоҳланади: тил нафақат жамият тараққиётининг маҳсули, балки унинг тафаккури ва менталитетини шакллантириш воситасидир. Шунга асосланиб, тилнинг феминистик танқиди тил ва тил сиёсатини онгли равишда стандартлаштиришни, масалан, сиёсий мунозарада жуда самаралироқ омиллар сифатида кўриб, тил нормаларини қайта кўриб чиқиш ва ўзгартиришни талаб қилади. [12.8.] Бундан аён бўладики, феминистик тилшунослик тил ва тил сиёсатини бир меъёрга келтириш учун тилшуносликда алоҳида аҳамият касб этади.

Гендер тилшунослиги – тилшуносликнинг янги йўналиши бўлиб, у гендер (ижтимоий жинс) нинг анъанавий равишда ажралиб турадиган тил бирликлари билан ўзаро муносабатини қуйидаги оппозициялар доирасида ўрганишга йўналтирилган: “гендер - тил тизими”, “гендер” – “лингвистик онг”, “гендер - коммуникатив хулқ”. [13.7.] Англашиладики, тилшуносликнинг янги йўналишида “гендер” тушунчаси асосан тил тизимида, лингвистик тафаккур, мулоқот ва мулоқот нормалари доирасида қўлланилади.

Тилшуносликда гендерни ўрганиш методологиясини таҳлил қилган тилшунос А.В. Кириллина гендер тилшуносликнинг умумий илмий принциплари қуйидаги қоидаларни ўз ичига олишини таъкидлайди:

- **Биринчидан**, гендер-бу умумий илмий тоифадир ва гендер ёндошув тамойиллари ҳар қандай махсус фанларга тегишли, аммо улар ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ва ушбу илмий йўналиш усуллари ёрдамида амалга оширилиши лозим.

- **Иккинчидан**, гендер-маданият ва жамият ривожланишининг маҳсулидир, У институционал ва маросимли бўлиб, шунинг сабабли жамият учун алоқадор ва анъанавий ҳисобланади.

- **Учинчидан**, гендер-бу вақт ўтиши билан ўзгарувчан жинс ва динамик тил соҳасидаги қурилишдир. [14.8.] Зеро, гендер ёндошув ҳар бир фаннинг ўз йўналишидан келиб чиқиб илмий асосланиши керак бўлади. Жамиятда маданият ривожланиб боргани сари гендер тушунчаси ҳам ривожланиб, ўсиб боради.

Тилшуносликда “гендер” тушунчасини ўрганиш “Тил ва ундаги гендер алоқанинг акс этиши” каби муаммо билан шуғулланади. Ушбу ёндашувнинг мақсади тилда турли жинсдаги одамларнинг мавжудлигини қандай намоён этишини (биринчи навбатда номинацион тизим, луғат, синтаксис, жинслар тоифаси ва бошқалар таҳлил қилинади), аёл ва эркак учун қандай рейтинглар белгиланиши ва қайси семантик соҳаларда энг сезиларли ёки ажралиб туради, шулар тушунтирилади. [15.6.] Бундан кўринадики, тилшуносликда гендер тушунчасини ўрганиш натижасида тил ва гендер ёндошувнинг ўзаро алоқаларини, тилда жинснинг қандай намоён бўлиши, тилнинг қайси соҳаларида қўлланилиши ёритиб берилди.

Гендер бу инсоннинг жинсига қараб жамиятда инсонлар ижтимоийлашувининг ўзига хос натижасидир. Эркаклар ва аёллар ўз жамиятларининг маданий маҳсули ҳисобланади. Гендер ва жинс ўртасидаги фарқларни шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили маданиятдир. [16.14.] Зеро, гендер ҳар икки жинс вакиллариининг жамиятда маданий жиҳатдан шаклланганлик даражасига ҳам боғлиқдир.

Гендер тушунчаси термин сифатида йигирманчи асрнинг 60-йилларида пайдо бўлган, аммо фақатгина 80-йилларнинг бошларида фанда кенг қўлланила бошланган. Гендер тушунчасидан фойдаланиш биологик ва ижтимоий жинсларнинг фарқига асосланган тушунча билан боғлиқ бўлиб, ушбу концепция америкалик психоаналист Роберт Столлер томонидан ишлаб чиқилган.

Кўпинча гендер ва жинс сўзлари бир-бирининг ўрнида ишлатилиши рўй беради, аммо уларни фарқлаш жуда муҳимдир. Гендер –бу одамнинг жамиятдаги хатти-ҳаракатларини ва бу хатти-ҳаракатлар қандай қабул қилинишини белгилайдиган ижтимоий жинсдир. Кўпинча

бу тушунча аёл кишини эркак кишидан фарқлаш учун ишлатилади. Жинс тушунчаси эса одамларнинг биологик жинсига қараб риоя қилиши керак бўлган маданий ва ижтимоий меъёрлар ва хулқ-атвор қоидалари тўплами сифатида белгиланади.[17.16.] Бундан маълум бўладики, гендер бу инсоннинг жамиятда хатти-ҳаракатларини ва хулқ-атворини намоён қиладиган ва ушбу ҳаракатларнинг бошқалар томонидан қандай баҳоланадиган ижтимоий жинс ҳисобланади. Жинс тушунчаси эса, аёл ва эркакнинг биологик жинсидан келиб чиқиб амал қилиши керак бўлган хулқ-атвор меъёрлари ҳисобланади.

Гендер бу аёллар ва эркакларнинг ўзаро хулқ-атвори билан боғлиқ бўлган, жамиятда ўзлаштирилган, жинслараро тафовутларга табиий ҳолда боғлиқ бўлмаган, аксинча жамиятдаги ижтимоий-маданий ҳодисаларни кўрсатиш учун киритилган тушунчадир.

Шуни таъкидлаш жоизки, “гендер” тушунчаси жинслар ўртасидаги жисмоний фарқларни ифодаламайди, балки аёллар ва эркакларнинг жамиятда ижтимоий жиҳатдан уюшган, шаклланган ва ўзгарувчан хусусиятларини англатади.

Шунингдек, “гендер” деганда биз нафақат аёллар ва эркакларнинг хулқ –атворлари, характерининг ўхшаш ва фарқларини тушунамиз. Гендер бу икки жинс вакилларининг жамиятда ва улар фаолият юритадиган институтлардаги ўрни ва мавқеъини англатадиган тушунча ҳамдир.

Илмий таҳлилимиз шуни кўрсатадики, тилшуносликда гендер тушунчаси инсонларнинг жамиятдаги хатти –ҳаракатлари, одоб-ахлоқи ва хулқ-атворининг бошқалар томонидан қандай қабул қилинишини белгилайдиган ижтимоий жинс саналади. Гендер тушунчаси тилда асосан аёл кишини эркак кишидан фарқлаш учун қўлланилади.

Гендер тушунчасининг социологик ва лингвистик жиҳатдан талқини шуни кўрсатадики, “гендер” тушунчасида икки хил жинс вакиллари хулқ-атворларининг меъёрлари, ўхшаш ва фарқли жиҳатлари жуда муҳим саналади. Жинслараро жисмоний ва биологик фарқли жиҳатлар асосий ўрин эгалламайди. Гендер ва жинс ўртасидаги тафовутларни ҳал қилувчи омилардан бири бу маданият ҳисобланади. Бундан кўришиб турибдики, гендер аёллар ва эркакларнинг ижтимоий-маданий хулқ атворларлари меъёрлари мажмуасидир.

“Гендер” тушунчаси турли соҳаларда турли маъно ва вазифаларда қўлланилганлиги сабабли, илмий нуқтаи назардан кўплаб баҳс-мунозараларга сабаб бўлди. Жумладан, тилшунослик ва жамиятшунослик соҳаларида бир қатор олимлар томонидан ушбу йўналиш бўйича турли даврларда кўплаб тадқиқот ишлари олиб борилган. Мазкур тадқиқ мақолада гендер тушунчасининг фанларга кириб келиши, жамиятдаги ўрни, тилшуносликда қўлланилиши ва вазифалари тўғрисидаги олимларнинг қарашлари қиёсланди ва таҳлил қилинди.

Юқоридаги таҳлилий фикрларга таянган ҳолда шуни хулоса қилиш мумкинки, “гендер” тушунчаси жамиятнинг асосий тоифаларидан бири бўлган аёллар ва эркакларнинг ғоялари яратиладиган, қайта ишланадиган ва тартибга солинадиган маданий меъёр саналса, тилшуносликда эса жинслар тилининг намоён бўлиши, тилнинг қайси соҳаларида қўлланилиши ёритиб берилади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдувахобова М.А. Гендернинг тил воситаларида ифодаланиши инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида докторлик диссертацияси автореферати. –Тошкент.: 2016.-Б.2.
2. Dictionary.com. Unabridged based on the Random house Unabridged Dictionary, Random house. - 2020.
3. Corbett Greville. Gender. Cambridge University Press. - Cambridge .:1991.
4. Corbett.Gender.Monography. Cambridge University Press.- Cambridge.:1999.
5. Воронина Ольга Александровна. Феминизм и гендерное равенство. – Москва.: 2004.


6. Е.И.Горошко.Гендерные исследования в языкознании (к проблеме становления метода)Статья.
7. А.А.Григорян. Состояние и перспективы гендерной лингвистики на западе в конце XX - начале XXI веков. Введение диссертации(часть автореферата). - 2005.
8. А.В. Кирилина. Гендерные исследования в зарубежной и российской лингвистике (Философский и методологический аспекты) Статья. Журнал Общественные науки и современность. – 2000, № 4.
9. Клецина И.С. Психология гендерных отношений. Введение диссертации часть автореферата. -Санкт-Петербург.:2004.
10. И. С. Клецина. Практикум по гендерной психологии / Под ред. И. С. Клециной. Питер, 2003. —479 с: ил. — (Серия «Практикум по психологии»).
11. Mgr. Marcela Micháľková., M.Phil. Gender Asymmetries in Slovak Personal Nouns. Dissertation. The Ohio State University. - 2009.
12. Н.Пушкарева.Гендерные исследования.Статья.Москва.:1999.
13. Е.И. Семиколенова., А.Г.Шилина. Гендерные исследования как новый вектор современной лингвистики.
14. Серова И.Г. Социокультурный Конструкт «Гендер» в интерпретативном пространстве языка и дискурса.Автореферат.- Санкт-Петербург.: 2017.
15. М.С.Шевелева. О Гендерных исследованиях в лингвистике. Международный научный журнал «Инновационная наука».- 2018, №03.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Jalilova Dilorom**

Toshkent davlat pedagogika instituti  
Shahrisabz filiali o'qituvchisi

## INGLIZ ZABON GAZETA SARLAVHALARI KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING TARJIMADAGI XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-5>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosan gazeta sarlavhalari haqida so'z boradi. Ular klassifikatsiyasi misollar orqali ochib berilgan. Ularning qo'llanish sferasi aytib o'tiladi. Gazetadagi sarlavha turli xil ifoda usullariga ega, shuning uchun ham tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. Sintaktik, leksikografik va stilistik tuzilmalar sarlavha qiymatini tarjima qilishda imkon qadar maksimal darajada uzatilishini ta'minlash uchun foydalaniladi. Ba'zan tarjima qilayotganda, bu bitta sarlavhani boshqasiga deyarli to'liq almashtirishga olib keladi, bu boshqa tilni qurish normalariga mos kelishi va ushbu normalar talab qiladigan minimal ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni bartaraf etishning aniq qoidalari ishlab chiqilmagan. Biroq, tarjimon yuqoridagi kabi muammolarga tayyor turishi kerak. Agarda tarjimon tarjima qilinayotgan matnning mohiyatini, mazmunini, kommunikativ funksiyasini va stilistik ta'sirini tushunib, metafora va alluziyalarni farqlab kinoya va so'z o'yinlarini, ma'lum sohaga doir fon bilimlariga ega bo'lib, tarjima qoidalariga amal qilsa, tarjima matni adekvat bo'lishi mumkin. Albatta, tarjimon yetarli darajada professional ko'nikmaga va tillarni yaxshi bilgan taqdiridagina u malakali tarjimon hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** tillararo aloqa, leksik birlik, semantik – sintaktik tuzulish, gazeta, sarlavha, tag sarlavha, rubrika, informativ sarlavha, emotsional baholovchi sarlavha, shov – shuvli sarlavha, sarlavha klassifikatsiyasi, ekpressivlik, qofiyalangan sarlavhalar, tarjimon mahorati, “telegraf tili”, sintaksis transformatsiyalar.

**Djalilova Dilorom**

A teacher, Shakhrisabz branch of the  
Tashkent State Pedagogical Institute

## CLASSIFICATION OF ENGLISH NEWSPAPER HEADLINES AND THEIR FEATURES IN TRANSLATION

### ANNOTATION

This article focuses on newspaper headlines. Their classification is explained by examples. The scope of their application is mentioned. Newspaper headlines have a variety of expressions, making them difficult to translate. Syntactic, lexicographic, and stylistic structures are used to translate the title value as much as possible. Sometimes when translating, this leads to an almost

complete replacement of one title to another, which must conform to the norms of building another language and contain the minimum amount of information required by these norms.

There are no clear rules for overcoming the complications that arise in the translation process. However, the interpreter must be prepared for problems like the one above. The translation text can be adequate if the translator understands the essence, content, communicative function and stylistic effect of the translated text, distinguishes between metaphors and allusions, has irony and word games, background knowledge of a particular field and follows the rules of translation. Of course, a translator is a qualified translator only if he / she has sufficient professional skills and good knowledge of languages.

**Keywords:** interlingual communication, lexical unit, semantic-syntactic structure, newspaper, headline, tag heading, rubric, informative headline, emotional assessment headline, sensational headline, headline classification, expressiveness, rhyming headings, interpreter skills, telegraph language, syntactic transformation.

---

Джалилова Дилором

Преподаватель Шахрисабзского филиала  
Ташкентского государственного педагогического института  
yulduzismatova096@gmail.com

## КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ГАЗЕТЫ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА

### АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена заголовкам газет. Их классификация объясняется примерами. Сфера их применения упоминается. Заголовки газет имеют различные выражения, что затрудняет их перевод. Синтаксические, лексикографические и стилистические структуры используются для максимально возможного перевода значения заголовка. Иногда при переводе это приводит к почти полной замене одного названия на другое, которое должно соответствовать нормам построения другого языка и содержать минимальный объем информации, требуемый этими нормами.

Нет четких правил преодоления сложностей, возникающих в процессе перевода. Однако переводчик должен быть готов к таким проблемам, как приведенная выше. Текст перевода может быть адекватным, если переводчик понимает суть, содержание, коммуникативную функцию и стилистический эффект переведенного текста, различает метафоры и аллюзии, обладает иронией и играми в слова, имеет базовые знания в определенной области и следует правилам перевода. Конечно, переводчик является квалифицированным переводчиком, только если он / она имеет достаточные профессиональные навыки и хорошее знание языков.

**Ключевые слова:** межъязыковое общение, лексическая единица, семантико-синтаксическая структура, газета, заголовок, заголовок тега, рубрика, информационный заголовок, заголовок эмоциональной оценки, сенсационный заголовок, классификация заголовка, выразительность, рифмующиеся заголовки, навыки переводчика, телеграфный язык, синтаксическая трансформация.

---

Sarlavha – bu gazeta matnini o‘qishni taklif qiladigan birinchi signal, sarlavha jurnalistik ishning mazmuni haqida ma’lum ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, gazetaning sarlavhasi o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan va e’tiborini jalb qiladigan o‘ziga xos hissiy dunyoqarashga ega. Gazeta sarlavhasining to‘liq tarjimasini, mazmunini deyarli aniq etkazish bilan bir qatorda, asl nusxadagi barcha hissiy elementlarni o‘quvchiga yetkazishi kerak.

Amerikaning ko‘plab gazetolari sarlavhalari qisqartirilgan shaklda bo‘lib, ular voqealarning mohiyatini aks ettiradi. Buning uchun sarlavhada barcha taniqli leksik va sintaktik so‘z vositalaridan foydalanish mumkin. So‘zlarning majoziy ma’nosi, rangli lug‘atlar, sinonimlar va antonimlarga qarab ifodali sarlavhalar paydo bo‘lishi mumkin. Sarlavhada maqollar, so‘zlar,

iboralar, mashhur qo‘shiqning nomlari, filmlar, spektakllar, ushbu asarlardagi iqtiboslar, so‘z elementlari, fonetik va morfologik ifoda vositalaridan foydalanish mumkin. Va bu yerda tarjimaning ichki mexanizmini ochib berish, ekvivalent birliklarni aniqlash, shuningdek asl birlikni tarjima matnining ekvivalent birligi bilan almashtirishda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni aniqlash va u yaratgan sarlavha to‘la huquqli vazifani bajarishi mumkin bo‘lgan tillararo aloqa turini ta‘minlash kerak. Sarlavha bu “sarlavha – matn” [1, 125] bo‘lgan yagona tizim.

Shunga qaramay, ingliz matbuotidagi gazeta sarlavhasi har doim gazeta m‘lumotlarining muhim qismidir. Uning asosiy maqsadi – o‘quvchining e‘tiborini xabarning eng muhim va qiziqarli qismiga jalb qilish: sarlavha, qoida tariqasida, maqolaning mazmunini to‘liq ochib bermaydi va shu bilan o‘quvchini taklif qilingan material bilan tanishishga undaydi. Shunday qilib, o‘zining asosiy maqsadini bajarish, ya‘ni o‘quvchini qiziqtirish uchun sarlavha iloji boricha diqqatga sazovor va esda qolarli bo‘lishi kerak, chunki ushbu gazetaning sarlavhalari bir nechta funktsiyalarni bajaradi:

Birinchi funktsiya reklama-ekspressiv deb belgilanadi, ya‘ni gazetani o‘quvchini qiziqtirishga yo‘naltirish qobiliyati nazarda tutiladi.

Ikkinchisi, matnni atrof-muhitdan ajratib turadigan, tilga oid bo‘lmagan vositalar yordamida amalga oshiriladigan grafikani ajratish funktsiyasi deb hisoblanadi: shriftlarni ajratib ko‘rsatish, rang, grafik vositalardan foydalanish (o‘lchagichlar, chizmalar), tuzilish texnikasi (materiallarni gazeta sahifasiga joylashtirish).

Uchinchi funktsiya nominativ ravishda ma‘lumot beradi, chunki sarlavha - bu o‘quvchilarni gazeta materiallari qisqacha xabardor qiladigan kommunikativ birlikdir [2, 58].

Amerika matbuoti o‘z gazeta sarlavhalarining maxsus uslubini ishlab chiqqan, uning o‘ziga xos xususiyati leksik va grammatik vositalarning haddan tashqari ekspressivligi.

Sarlavhalar odatda “telegraf tilida” yoziladi, ya‘ni barcha semantik ikkilamchi elementlar tushib qoldirilgan eng ixcham, o‘ta ixcham iboralar yordamida yoziladi.

Shu bilan birga, maksimal ravshanlikni ta‘minlash uchun sarlavhalar umumiy lug‘at va oddiy grammatik vositalar asosida quriladi.

Matnning sarlavhasi ikki xil xususiyatga ega. Bir tomondan, bu matndan oldingi til tuzilishi. Shuning uchun sarlavha matndan tashqarida va ma‘lum bir mustaqillikka ega bo‘lgan nutq elementi sifatida qabul qilinadi. Boshqa tomondan, sarlavha - bu matnga kiritilgan va butun ishning boshqa tarkibiy qismi bilan bog‘langan to‘liq tarkibiy qism. Gazeta sarlavhalari ikki asosiy prinsip bo‘yicha klassifikatsiyalandi. Birinchi klassifikatsiya gazeta matni tarkibi asosidagi sarlavha turiga bo‘linadi. Har qanday gazeta sarlavhalarining bir necha ko‘rinishida foydalanib, ushbu sarlavhalar o‘zining roli belgilanishi va tutgan ahamiyatiga ko‘ra bir biridan farqlanadi.

Oddiy sarlavha undan quyida turgan material haqida tushuncha beradi. Gazetada chop qilinadigan har qanday ma‘lumot sarlavhaga egadir. Sarlavhadan tashqari ba‘zi maqolalar ikkinchi sarlavha deb nomlanuvchi kichik hajmdagi sarlavha tagida joylashgan matnga ega bo‘ladilar. Bu sarlavha turlarini biz quyidagilarga bo‘lamiz:

a) Tag sarlavha – aksar hollarda tematik xususiyat kasb etib ustida turuvchi asosiy sarlavhadagi ma‘lumotni tushuntirib, aniqlashtirib davom ettiradi.

Win or bust

Hillary Clinton risks all on one last throw of the dice

Pul topish yoki xonavayron bo‘lish

Hillari Klinton bor yo‘g‘ini qaltis ishga tikdi

Ushbu maqola Hillari Klinton va Baraka Obama o‘rtasidagi nizo to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Tag sarlavha rasmiy (ya‘ni, ma‘lumot olingan manbani ko‘rsatuvchi) yoki ichki bo‘lib, berilayotgan materialning turli bo‘limlari haqida ma‘lumotni mujassam etadi. Ba‘zan ichki sarlavhalar maqola mazmunini ochib beradi, ya‘ni u haqida qisqacha ma‘lumot beradi.

b) rubrika, ya‘ni sarlavhaning ikkinchi turi bo‘lib berilayotgan materialning yo‘nalishi va janriga asosan xarakterlanadi. Rubrika asosiy sarlavhaning ustida joylashtirilib ushbu material joylashtirilgan gazeta bo‘limini aniqlashtiradi (masalan, Bussine Business, Sport).

Sport

Sharapova Leads Russia in Fed Cup

Sharapova Rossiyaning federatsiya kubogiga olib chiqmoqda. (ya'ni, mashhur tennischi Mariya Sharapovaning yirik xalqaro turnirdagi muvaffaqiyatlari haqida gap ketmoqda).

b) «Shapka» — bir nechta gazeta maqolalarini birlashtiruvchi sarlavha bo'lib, har bir maqola o'zining kichik sarlavhasiga ega bo'ladi. Odatda shapka maqolaning eng yorqin fikrini ajratib ko'rsatib, aksar hollarda esda qolarli yoki ifodali iboradan sitata keltiradi. «Shapka» doimiy ravishda o'quvchini maksimal darajada qiziqtirishga yo'naltiriladi. Shu bois aksar hollarda «shapka» maqolaning mazmunini yetarli darajada, ba'zan esa umuman ochib bermaydi va u bilan bog'liq bo'lmaydi.

Bluff, bluster and bullshit at Counterpunch

Mubolag'a, g'azab va bema'nigarchilikka to'la javob zarba (ayollarga nisbatan bepisand munosabatni qo'llab quvvatlovchi web saytdagi maqola shapkasi)

Yuqorida keltirilgan sarlavhalarning barcha turlari ham alohida ha jamuljam qo'llanilishi mumkin. O'zaro ta'sirga kirishib ular o'quvchiga maksimal darajada birlamchi ma'lumotni yetkazib beradi. Shunday qilib «rubrika» gazetada keltirilgan materialning janrini aniqlab bersa, sarlavha maqolada keltirilgan asosiy mavzu va mazmun haqida xabar beradi, tag sarlavha esa ulardan farqli ravishda konkret ma'lumot beradi. Gazetada aksar hollarda sarlavhalarning ikkala turi ham ishlatiladi.

Sarlavhalarning ikkinchi klassifikatsiyasi ularning informativligiga asoslanadi. I.V. Arnold barcha sarlavhalarni besh guruhga bo'ladi:

1. Informativ sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar maqola mazmunini qisqacha aks ettirib, ularga xos bo'lgan xususiyat qisqalikdir (masalan, ularda harfli abreviaturalar va fe'lning tushirib qoldirish holatlari kuzatiladi). O'quvchidan oldindan biron bir voqea hodisa haqidagi bilim talab qilinmaydi.

Italy's radio, TV workers on strike.

Italiyaning radio va televideniya ishchilari ish tashlamoqda.

2. O'quvchiga ma'lum bo'lgan voqea hodisaga asoslangan sarlavhalar.

How GB beat Russia at gymnastics

Britaniya gimnastlarining rossiyaliklar ustidan g'alabasi haqida

Bu kabi sarlavhalarga duch kelgan o'quvchi, avvalambor ma'lum bir voqea hodisa haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

3. Qofiyalangan sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar odatda tashviqotchilikka oid maqolalarga berilib, ular o'zining aniq qofiyasiga asosan oson va tez esda qoladi.

Back to work – to kill the bill.

Ishga qaytmoq – qonunni ag'darmoq.

4. Emotsional baholovchi sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar maqola mavzusini yoritmasdan, ularni maqsadi o'quvchini ma'lum bir yo'nalishga boshlash, tasvirlanayotgan voqeaga nisbatan aniq munosabatini shakllantirishga qaratilgan.

Ugly noises from Los Angeles mayor's nest.

Los-Angeles meri uyasida g'alati shovqinlar

Bu holatda muallif ingliz tilida so'z o'yiniga asoslangan stilistik vositani qo'llamoqda mayor's nest – mare's nest, bema'ni ixtiro – saylov oldidan olib boriladigan ko'zbo'yamachiliklar. O'quvchining e'tiborini saterik yo'nalishdagi sarlavha o'ziga jalb etadi va unga fikrini muallifga kerak bo'lgan ma'lum yo'nalishga yo'naltiradi.

5. Shov – shuvli sarlavha. Bu kabi sarlavhalarning asosiy vazifasi maksimal darajada qisqa, aniq va asosiy mazmunni o'zida aks ettirishdir. Biroq u sirliligi bilan o'quvchini o'ziga jalb qilishi kerak.

Convict sentenced to life for coffin girl kidnap.

Umrbod qamoq jazosiga mahkum qilingan jinoyatchi, o'g'irlangan qizchani tobutda yashirmoqda.

O'quvchi maqolaning sirliligiga qiziqib maqolani o'qiydi va voqealarning keyingi rivojini bilishga harakat qiladi (qamoqdan qochgan jinoyatchi millionerning qizini o'g'irlab, tovon puli talab qilish jarayonida uni taxta qutida saqlaydi, oxir oqibat qizcha qutqarilib jinoyatchi jazoga tortiladi) [6, 55].



Ingliz va o'zbek ijtimoiy-publitsistik matnlar tahlilini olib borar ekanmiz ularda o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, bu hodisa tarjimada ba'zi murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bu tipdagi matnlarning asosiy funksiyasi ma'lumotni yetkazish va shu orqali retseptorga ta'sir o'tkazishdan iborat.

O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy matnlarga turli xarakterga ega bo'lgan leksika, klishe va neologizmlarning ko'pligi, qisqartmalarning qo'llanilishi, hozirgi zamonning ishlatilishi, ko'zga tashlanuvchi sarlavhalar va b. lar xosdir. Shu bilan bir vaqtda o'zbek tilidagi ijtimoiy-publitsistik matnlarga xos bo'lgan xususiyatlarning ba'zilar ingliz matnlariga xos emasdir. Bu borada ingliz matnlarida dabdabali ohangga ega bo'lgan so'zlar, salbiy baholovchi so'zlar, keng miqyosdagi harbiy atamalar qo'llaniladi.

Grammatik jihatdan bu kabi matnlarning sintaktik tizimida ergashgan qo'shma gap, sifatdosh va ravishdosh oborotlarning qo'llanilishi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda passiv konstruksiyalar, fe'llarning umumlashgan shaxsiy shakli ham qo'llaniladi. Publitsistik uslubning yana bir xarakterli jihati bu – nutq oborotlarida ot yoki sifatdan yasalgan predloglarning ishlatilishidir.

Tarjima jarayonida sintaktik transformatsiyalari qo'llanilishi ham ko'zga tashlanadi, ya'ni bir qo'shma gapning ikki va undan ortiq sodda gap bilan berilishi. Ingliz sarlavhalariga xos bo'lgan jihat bu – fe'l shakllarining ishlatilishi, tarjima jarayonida esa bu kabi konstruksiyalarni almashtirishga to'g'ri keladi, va bu o'rinda turli ko'rinishdagi grammatik transformatsiyalar qo'llaniladi:

Floods Hit Scotland – Shotlandiyada suv toshqini;

Exports to Russia Are Rising – Rossiyaga eksportning kuchayishi;

A Train Driver Dies after Locomotives Collide – poyezdlar to'qnashuvi natijasida mashinistning halokati.

Bundan tashqari grammatik va leksik transformatsiyalar sarlavhalar tarjimasida ham qo'llaniladi, ya'ni gapda eganing yo'qligi va fe'lning kesim shaklida kelishi:

Hires Teen-Agers as Scabs – shtreykbrexer sifatida o'smirlardan foydalanish (shtreykbrexerish tashlash vaqtida ish tashlovchilarga xiyonat qiluvchi shaxs);

Want No War Hysteria in Toronto Schools – Toronto maktablarida harbiy jazavaga qarshi norozilik;

20 Killed in Air Crash – Avia halokat vaqtida 20 kishining fojiali halokati;

Compressors Delivery Ordered by Gov't – Kompresorlar yetkazib berilishi haqida hukumatning farmoishi,

British Railways Hit by National Strike – ingliz temiryo'lchilarining umummilliy ish tashlashi;

Maxsus tarjima nazariyasi tarjima jarayonidagi ma'lum funksional uslubga oid matnlarning turli shakldagi stilistik adabtatsiya shakllarini tasvirlaydi. Adabtatsiya yuqorida aytib o'tilganidek nafaqat tillar orasidagi farqlarga bog'liq. Tarjima jarayonidagi stilistik adabtatsiya original va tarjima matnida ham analog hisoblangan uslublarda kuzatiladi. Bir turdagi stilistik xususiyat tillarda turli darajada namoyon bo'lib, uning originalda mavjudligi, tarjima matnida ham bo'lishi shart degani emas.

Sarlavhaning tarjimasi, agar u nashrning mohiyatini ochib bersa, asl nusxaga yaqin bo'lishi kerak, agar u qisqa yoki reklama bo'lsa, uni keyinchalik axborot maqsadlarida foydalanish uchun qisqacha izoh berishingiz kerak.

Asl matndagi barcha qisqartmalar umumiy qabul qilingan va maxsus qisqartmalarga muvofiq hal qilinishi kerak. Shifrini ochib bo'lmaydigan qisqartmalar asl tilda qoladi.

Tarjima matni asl matnda qoladi: so'zlar va jumlarlar asl tilda emas; mahsulotlar va qurilmalar brendlarning qisqartirilgan nomlari; xorijiy bosma nashrlarning nomlari.

Tarjima matni tarjima qilinadi: muassasalar va tashkilotlarning bo'limlari va bo'limlarining nomlari; lavozimlar, darajalar, ilmiy darajalar, unvonlarning nomi; belgilangan tartibda tegishli nomlar va nomlar. Tarjima matni transkripsiya qiladi: mashhur familiyalarning an'anaviy imlosini hisobga olgan holda chet el familiyalari, tegishli ismlar va nomlar; xorijiy familiyalardagi maqolalar va predloglar; xorijiy firmalar, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar, kontsernlar,

monopoliyalar, sanoat birlashmalarining nomlari; kompaniya nomlaridagi konyunktura va old qo‘shimchalar mashinalar, asboblar, kimyoviy mahsulotlar, material markalari. Tarjima matni o‘zbek ekvivalentlari bilan almashtiriladi: ilmiy va texnik atamalar; geografik nomlar. Tarjima matni siyosiy va ijtimoiy hayot, tarix, jug‘rofiy va iqlim sharoiti bilan bog‘liq aniq so‘zlar va iboralarning milliy o‘ziga xosligini saqlaydi [7, 28-32.].

Shunday qilib, gazeta sarlavhalarini tarjima qilish sarlavhalarning tipik tuzilishidagi farqlar, ularning semantik talqinining noaniqligi va sarlavhalarda ishlatilgan leksik birliklar, to‘plamidagi farqlar, ekspressiv-stilistik omillar, shuningdek, matn o‘rtasidagi semantik korrelyatsiya bilan belgilanadigan turli xil tarjimali o‘zgarishlarni talab qiladi. Ushbu jarayonlar tarkibiga grammatik va semantik o‘zgarishlar, leksik-grammatik o‘zgartirishlar kiradi, Asl sarlavhani tarjima tilidagi ushbu janr normalariga mos keladigan yangisi bilan almashtirish. Yetarlicha tarjima qilish uchun tarjimani o‘zgartirishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kerak, chunki ingliz zabon va o‘zbek tilidagi sarlavhalarining tuzilishi o‘rtasida farq mavjud bo‘lib, ularni bilish sarlavhaning ma‘nosi va o‘ziga xosligini aniq yetkazish imkonini beradi.

Gazeta janrining so‘z birikmalarida ravon bo‘lish, sarlavhalarning barcha grammatik xususiyatlarini topish va ajrata olish, sarlavha va sarlavha elementlarining matn bilan stilistik aloqasini tushunish va aniqlash kerak.

## Adabiyotlar


---

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. / В. Н. Комиссаров. – М.: Высшая школа, 1990. -125 с
2. Лазарева Э.А. Заголовок в газете / Э.А. Лазарева.- Свердловск: Уральский университет, 1989. – 58 с
3. Прозоров В. Г. Основы теории и практики перевода с английского языка на русский. – М., 1998. – 234с.
4. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода. – М., 2006. – 240с.
5. Робинсон Д. Как стать переводчиком: Введение в теорию и практику перевода. – М., 2005. – 304с.
6. Романова С.П. Пособие по переводу с английского на русский. – М., 2006. – 172с
7. Суворов С.П. Особенности стиля английских газетных заголовков / С.П. Суворов. - М.: Язык и стиль, 1965. - С.28-32.
8. Тюленев С. В. Теория перевода: учебное пособие. М.: Гардарики, 2004. -336 с.
9. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика, – М., 1973, -310 с.
10. Шмаков С.Я. Перевод газеты: адекватность на уровне структуры текста //Коммуникативно-стилистические аспекты переводческой деятельности. М., 1994. – 200с.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Алланазарова Мамура Ахмедовна  
Тошкент давлат юридик университети  
Ихтисослаштирилган филиали  
Умумтаълим фанлари кафедраси ўқитувчиси,  
Тошкент, Ўзбекистон

## ЛИНГВОМАДАНИЯТШУНОСЛИК ФАНИНИНГ АСОСИЙ ХОЛАТЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-6>

### АННОТАЦИЯ

Лингвомаданиятшуносликнинг муҳим тушунчаларидан бири бу – лингвокультурема – ўз семантикасида (маъносида) маданиятнинг бирор бўлагини акс эттирувчи тил ёки нутқ бирлиги. (Юсупов). Лингвокультуремаларга маданиятнинг бирор бўлагини акс эттирувчи сўзлар (туб, ясама, кўшма ва мураккаб сўзлар), фразеологик бирликлар, сўз бирикмалари, гаплар, паремиялар, нутқ клишчелари, мураккаб синтактик бутунликлар, матнлар, шу жумладан фольклор матнлари ва ҳоказолар киради. Лингвокультурема мазмун ва ифода планига эга. Ифода планини юқорида кўрсатилган бирликлар, мазмун планини эса ўша бирликларнинг семантикаси ташкил қилади. Демак. лингвокультурема концептдан ўзининг тил ёқн нутқ бирлиги эканлиги билан, ифода ва мазмун планига эга эканлиги билан фарқ қилади.

В.А.Маслова лингвокультуреманинг 9 хили мавжудлигини таъкидлайди:

1. Эквивалентсиз лексика; 2. Мифологик тил бирликлари; 3. Тилнинг паремиологик фонди; 4. Тилнинг фразеологик фонди; 5. Рамзлар, стереотиплар; 6. Метафора ва тил образлари; 7. Тилнинг стилистик мазмуни; 8. Нутқий хулқ-атвор; 9. Нутқий этикет.

Лингвомаданиятшуносликнинг базавий тушунчаларидан бири бу “дунё тасвири” тушунчасидир. “Дунё тасвири” тушунчаси инсон концептуал аппарати объектив дунёдаги ҳақиқий борлиқни ўзида акс эттиради. Тил тафаккур фаолиятида акс этган барча ходисаларни ифодалайди ва у инсон амалий фаолияти билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Тилнинг мавжуд бўлиши “дунёнинг концептуал тасвири” ифодаланишини таҳлил қилишнинг асосий муаммоларидан бирига айланишига сабаб бўлади. Шу муносабат билан “дунёнинг концептуал тасвири” инсоннинг борлиқ тўғрисидаги билимлар йиғиндиси бўлиб, тилдаги “дунё тасвири” эса “дунёни лисоний англашдир”.

Ҳозирги замон тилшунослигида, дунёнинг концептуал ва лисоний тасвири тушунчалари билан биргаликда “миллий дунё тасвири” тушунчаси ҳам кенг қўлланмоқда. Миллий дунё тасвирини вербаллашувида тил катта роль уйнайди. Зеро, тил - бу маданият воситачиси, унинг тарқатувчисидир. Тил ўзида сақлаб келадиган миллий маданий бойликларни авлоддан авлодга етказди. Тил - амалий, ҳақиқий онгдир, тил онг сингари бошқа кишилар билан муомала қилиш эҳтиёжи муомала қилиш зарурлиги туфайли пайдо бўлади.

**Калит сўзлар:** Концепт, инглиз лингвомаданияти, Олов, Сув, асосий, бош белги, севги, дўстлик, ёктириш, физиологик хусусиятлар, Лингвокультурология, маданий концепт

**Алланазарова Мамура Ахмедовна**  
кафедра общеобразовательных дисциплин,  
специализированный филиал Ташкентского государственного  
юридического университета, Ташкент, Узбекистан

## ОСНОВНЫЕ СЛУЧАИ ЛИНГВИСТИКИ

### АННОТАЦИЯ

Одним из важнейших понятий лингвокультурологии является лингвокультура - единица языка или речи, которая в своей семантике (значении) отражает часть культуры. (Юсупов). Лингвокультуры включают слова, отражающие часть культуры (примитивные, искусственные, составные и составные слова), фразеологические единицы, фразы, предложения, паремы, речевые клише, сложные синтаксические единицы, тексты, включая фольклорные тексты, и т. Д. Лингвокультура имеет план содержания и выражения. План выражения формируется семантикой указанных выше единиц, в то время как план содержания этих единиц. Скажи. лингвокультура отличается от консерепта тем, что ее язык-это единое целое речи, оно имеет план выражения и содержание.

В. А. Маслова отмечает, что существует 9 типов лингвокультуры:

1. Лексикон без эквивалента; 2. Мифологические языковые единицы; 3. Паремииологическая основа языка; 4. Фразеологический фонд языка; 5. Символы, стереотипы; 6. Метафоры и языковые образы; 7. Стилистическое содержание языка; 8. Речевое поведение; 9. Речевой ярлык.

Одним из основных понятий лингвистики является понятие "образ мира". Понятие "образ мира" является объектом человеческого сознания, отражающим реальное бытие мира. Язык представляет собой всех работников, которые отражаются в деятельности мысли, и он будет тесно связан с практической деятельностью человека. Наличие языка обуславливает одну из основных проблем анализа выражения "согласованный образ мира". В связи с этим "гипотетический образ мира" - это сумма знаний о существовании человека, а "образ мира" в языке-это "языковое понимание мира".

В современном языкознании понятие "национальный образ мира" также широко используется в сочетании с понятиями концертной и языковой репрезентации мира. Язык играет важнейшую роль в Национальном мире. Ведь язык-это посредник культуры, ее распространитель. Язык передает национальное культурное богатство, которое он сохраняет из поколения в поколение. Язык-это практическое, реальное сознание, язык возникает из-за необходимости обращаться экстиоджи, чтобы иметь дело с другими людьми, такими как сознание.

**Ключевые слова:** концепт, английская Лингвистика, огонь, вода, базовый, главный герой, любовь, дружба, коксование, физиологические характеристики, лингвокультурология, культурный концепт

**Allanazarova Mamura Akhmedovna**  
Department of general education disciplines,  
specialized branch of Tashkent State  
University of Law, Tashkent, Uzbekistan  
m.akhmedovna@mail.ru

## THE MAIN CASES OF LINGUISTICS

### ANNOTATION

One of the most important concepts of linguocultural studies is lingvokulturema - a unit of language or speech that in its semantics (meaning) reflects a part of culture. (Yusupov).

Linguocultures include words that reflect a part of a culture (primitive, artificial, compound, and compound words), phraseological units, phrases, sentences, parems, speech clichés, complex syntactic units, texts, including folklore texts, and so on. Linguoculture has a plan of content and expression. The plan of expression consists of the units mentioned above, and the plan of content consists of the semantics of those units. So, lingvokulturema differs from the concept in that it is a unit of language or speech, with a plan of expression and content.

V.A. Maslova notes that there are 9 types of lingvokulturema:

1. Non-equivalent vocabulary; 2. Mythological language units; 3. The paremiological fund of language; 4. Phraseological fund of language; 5. Symbols, stereotypes; 6. Metaphors and images of language; 7. Stylistic content of language; 8. Verbal Behavior; 9. Speech etiquette.

One of the basic concepts of linguocultural studies is the concept of "worldview". The concept of "image of the world" reflects the real being in the objective world of the human conceptual apparatus. Language represents all the phenomena reflected in the activity of thinking, and it is closely connected with the practical activity of man. The existence of language makes the expression of the "conceptual image of the world" one of the main problems of analysis. In this sense, the "conceptual image of the world" is the sum of knowledge about human existence, and the "world image" in language is the "linguistic understanding of the world."

In modern linguistics, along with the concepts of conceptual and linguistic depiction of the world, the concept of "national world image" is also widely used. Language plays a major role in the verbalization of the national worldview. After all, language is the mediator of culture, its distributor. Language transmits the national cultural riches that it retains from generation to generation. Language is a practical, real consciousness, and the need to interact with other people, like language consciousness, arises because of the need to interact.

**Keywords:** concept, English linguistics, fire, water, basic, main character, love, friendship, coking, physiological characteristics, linguoculturology, cultural concept

Ҳозирги кунда чет тилини билиш, уни мукамал ўрганиш замон талабига айланиб бормоқда. Маълумки, ҳар бир киши миллий урф-одат, тил, тарих, адабиётни ўз ичига олган аниқ бир маданиятга тегишлидир. Мамлакатлараро иқтисодий, маданий, илмий алоқалар тилни маданиятни акс этувчи восита деб талқин этилишига олиб келди. Э.Сепир таъкидлаганидек, тил - бу маданиятни ўрганишда йўл кўрсатувчи воситадир. Тилни ўрганаётганда фақат сўзларни, гапиришни эмас, балки тили ўрганилаётган мамлакатнинг маданияти, аҳолисининг дунёқараши, ҳаёт тарзи, урф-одатлари ҳақида билиш мақсадга мувофиқдир. Бу эса ўз навбатида тилшуносликда янги бир соҳа пайдо бўлишига, яъни лингвомаданиятшуносликнинг вужудга келишига сабаб бўлди.

Лингвомаданиятшунослик бу тилшунослик ва маданиятнинг ўзаро тўқнашуви асосида пайдо бўлган мураккаб илмий фан йўналишидир. У маданият билан тилнинг ўзаро боғлиқлиги ва таъсирини, тилни маданиятнинг феномени сифатида ўрганади. Бу миллий тил призмаси орқали дунёни маълум даражада кўриш, тилнинг маълум миллат ақл ва маданияти орқали намоён бўлишидир. Ушбу йўналишнинг янги бўлганлиги сабаб, унинг ҳар томонлама тўлалигича ўрганилмаганлиги ва ҳар хил фикр ва қарашларнинг мавжудлиги ҳали кўплаб илмий изланишлар олиб боришни тақозо этади.

Тил ва маданият ўртасидаги детерминизм, яъни ўзаро бир-бирини тақозо этиш ҳақиқий "ўзарочилик"дир. Шу сабабли турли мамлакатлар олимлари томонидан тил ва маданият муносабати масаласи турли йўналишларда ўрганилаётганлиги табиийдир. Бу муаммо тилшунослар (Ю.Сорокин, В.Телия, Е.Верещагин, А.Вежбицкая, В.Костомаров, Д.Олфорд, Д.Хаймс кабилар) билан файласуфларнинг (Г.Брутян, Э.Маркарян, ва бошқалар), психологларнинг (Л.Выготский, А.Леонтьев, В.Петренко, П.Гульвисте) эътиборини тортиб келмоқда. Бу масала нутқ маданиятига оид тадқиқотларда муҳим ўрин эгаллайди. (Ю.Скворцов, Э.Бегматов, А.Маматов, Б.Ўринбоев ва бошқалар). Кейинги йилларда тилшуносликда лингвокультурологиянинг алоҳида тадқиқот йўналиши сифатида шакл топиши (А.Красных, В.Маслова, Д.Гудков, Д.Ашурова) бу масаланинг долзарблашишига

сабаб бўлмоқда.

Э. Сепир ва Б.Уорфлар ўз фаразларида тил ва маданият уйғунлашувини илгари сурган ҳолда, тил — маданият маҳсули ва шу билан бирга маданиятни шакллантирувчи омил деб талкин этадилар. Зеро, ҳар қандай маданият тилда намоён бўлади, тилда ўзининг моддий қобиғини топиши билан бирга, атроф-муҳит таъсирида тараққиёт қилиб, ўзгариб боради. Турли миллатлар маданияти бир-биридан дастлабки ўринда воқеликни моддий ва маънавий ўзлаштиришдаги фарқи жиҳатидан ажралиб туради.

Россиялик филолог Тер-Минасова тилни маданият сақланадиган хазинага киёслайди. Унинг таъбирича тил маданий қадриятларни ўз таркибидаги лексика, грамматика, идиоматикада, мақолаларда, халқ оқзаки ижодида, бадиий ва илмий адабиётларда, қолаверса оғзаки ва ёзма нутқда сақлаб келади. Агар тилнинг тузилиши, ифодаланиши ва уни эгаллаш услублари нуктаи-назаридан кузатилса, унда ижтимоий-маданий (социокультур) қатлам ёки маданиятнинг компоненти тилнинг бир қисми ёки унинг борлигининг асоси сифатида намоён бўлади

Тил – бу йирик ижтимоий курулдор, у бир элат миқёсида ижтимоий оқимларни шакллантиради, бир тилда сўзлашадиган жамоанинг маданияти, анъаналари, ижтимоий онгини ўзида сақлайди ва етказиб беради, бу оқали миллатларни пайдо бўлишига замин яратади. Тилга бир миллатнинг асосий белгиси сифатида мурожат қилганда, уни икки томондан кузатиш мумкин «ичкаридан» ва «ташқаридан». Уни «ичкаридан» бўладиган жараён сифатида кузатганда, тил элатларнинг ўзаро интеграциялашувидаги муҳим факторларидан бири бўлиб чиқади. «ташқаридан» қараганда эса бир элатни бошқа элатлардан фарқловчи белги сифатида кўриш мумкин.

Лингвомаданиятшуносликнинг муҳим тушунчаларидан бири бу – лингвокультуремадир.

Лингвокультурема – бу ўз семантикасида (маъносида) маданиятнинг бирор бўлагини акс эттирувчи тил ёки нутқ бирлиги. (Юсупов). Лингвокультуремаларга маданиятнинг бирор бўлагини акс эттирувчи сўзлар (туб, ясама, кўшма ва мураккаб сўзлар), фразеологик бирликлар, сўз бирикмалари, гаплар, паремиялар, нутқ клишчелари, мураккаб синтактик бутунликлар, матнлар, шу жумладан фольклор матнлари ва хоказолар киради. Лингвокультурема мазмун ва ифода планига эга. Ифода планини юқорида кўрсатилган бирликлар, мазмун планини эса ўша бирликларнинг семантикаси ташкил килади. Демак, лингвокультурема концептдан ўзининг тил ёки нутқ бирлиги эканлиги билан, ифода ва мазмун планига эга эканлиги билан фарқ қилади.

В.А.Маслова лингвокультуреманинг 9 хили мавжудлигини таъкидлайди:

1. Эквивалентсиз лексика; 2. Мифологик тил бирликлари; 3. Тилнинг паремиологик фонди; 4. Тилнинг фразеологик фонди; 5. Рамзлар, стереотиплар; 6. Метафора ва тил образлари; 7. Тилнинг стилистик мазмуни; 8. Нутқий хулқ-атвор; 9. Нутқий этикет.

Лингвомаданиятшуносликнинг яна бир асосий тушунчаларидан бири бу “дунё тасвири тушунчасидир. Оқимлар дунё тасвирининг иккита турини ажратади – концептуал ва лисоний дунё тасвирлари.

“Дунёнинг концептуал тасвири” дейилганда инсон онгида ҳаётни тажрибаси асосида маълум ҳаётий воқелик юзасидан пайдо бўлган тасаввур тушунилади. Тил тафаккур фаолиятида акс этган барча ходисаларни ифодалайди ва у инсон амалий фаолияти билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Тилнинг мавжуд бўлиши “дунёнинг концептуал тасвири” ифодаланишини таҳлил қилишнинг асосий муаммоларидан бирига айланишига сабаб бўлади. Шу муносабат билан “дунёнинг концептуал тасвири” инсоннинг борлиқ тўғрисидаги билимлар йиғиндиси бўлиб, тилдаги “дунё тасвири” эса “дунёни лисоний англашдир”.

Дунёнинг лисоний тасвири тушунчаси нафақат дунё тасвири, балки дунёнинг концептуал тасвири тушунчаси билан ҳам мос келади. Тил борлиқ концептуализацияси жараёнида муҳим рол ўйнайди. Дунёнинг лисоний тасвири дунёнинг концептуал тасвирини юзага чиқаради. Е. Кубрякова таъкидлаганидек “дунёнинг концептуал тасвири лисон

ёрдамида руёбга чиқади, унинг маълум қисми инсон психикасига бошқа типдаги ментал репрезентациялар - образлар, схемалар, тасвирлар (картинки) орқали муҳрланади.”

Дунёнинг концептуал тасвири дунёнинг лисоний тасвирдан кенгроқ ва бойроқ бўлади; дунёнинг лисоний тасвири қобиғи дунёнинг концептуал тасвирига бўйсунувчи қатлам сифатида тасвирланиб, концептуал тасвир тил таъсирининг турли зоналарини ўз ичига камраб олади. Энг аввало, бевосита тилнинг шаклланаётган концепт ва тушунчаларга бўлган таъсир зонаси ажратилади. Бир томондан, билим ва маълумотлар гапирувчиларнинг вербал қайта ишлашидан ўтади ва лисоний шаклга айланади. Бошқа томондан, янги тушунчаларнинг пайдо бўлиши ўша пайтгача мавжуд бўлган схемалар ёрдамида содир бўлади, яъни тилда мавжуд бўлган концептларнинг бевосита таъсирига асосланади. Шунинг учун ҳам концептлар, ҳам тушунчалар ифодаланишнинг конвенционал лисоний шаклига эга. Мазкур зонада дунёнинг концептуал тасвири дунёнинг концептуал-лисоний тасвири билан тўлалигича туташади. Лисоний белгиларнинг маълум хусусиятлари умумлашмаси асосида шаклланган абстракциялар восита бўлиб хизмат қилувчи бошқа бир лисоний таъсир зонаси ҳам мавжуд.

Шу тариқа, дунёнинг лисоний тасвири икки- тилнинг дунё концептуал тасвирига бевосита ва билвосита таъсир қилиш зоналари ҳисобига шаклланади. Дунёнинг лисоний ва концептуал тасвирлари вербал этапда чамбарчас боғланади.

Ҳозирги замон тилшунослигида, дунёнинг концептуал ва лисоний тасвири тушунчалари билан биргаликда “миллий дунё тасвири” тушунчаси ҳам кенг қўлланмоқда. Маълумки, дунёдаги барча мамлакатлар ўзининг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти, ўтмиш тарихи, маданий ривожланиши ва турмуш тарзи жиҳатдан бир-биридан фарк қилади ва ўз миллий дунё тасвирига эга бўлади. Миллий дунё тасвир – инсон яшайдиган ва фаолият олиб борадиган ва ёт маданият билан дуч келганда ажратиб турувчи, бир вақтнинг ўзида виртуал ва реал бўлган информацион–эмоционал майдонлир. Бунга маълум маданий–миллий жамият аъзоларининг маданият феноменининг (ҳам умуммиллий, ҳам индивидуал – шахсий) барча яққол ва потенциал тасаввурлари киради.

Миллий дунё тасвирини вербаллашувида тил катта роль уйнайди. Зеро, тил – бу маданият воситачиси, унинг тарқатувчисидир. Тил ўзида сақлаб келадиган миллий маданий бойликларни авлоддан авлодга етказади. Она тилларида гапиришни бошлаётган гўдакларда она тили билан биргаликда аجدодларидан қолган умумий маданий тажриба ҳам сингиб боради. Тил – амалий, ҳақиқий онгдир, тил онг сингари бошқа кишилар билан муомала қилиш эҳтиёжи муомала қилиш зарурлиги туфайли пайдо бўлади. Тил кишиларнинг бир-бири билан алоқа қилиш воситаси ва фикрнинг бевосита ифодасидир. Фикр айрбошлаш эса фақат тил ёрдамида амалга оширилиши мумкин. Тил тафаккурнинг борлиқ шакли, тафаккур эса тилнинг мазмундир. Инсонда онгнинг шаклланиб, тилнинг пайдо бўлиши маданиятни илк қадамидир. Тилнинг шаклланиб ўсиб бориши бевосита инсонларнинг маънавий қиёфасининг ривожланишига ўз тасирини кўрсатади. Тил бевосита халқлар ўртасида маданий, маънавий алоқаларнинг ўсиб боришига ёрдам беради. Тил йиллар, асрлар давомида жамиятда рўй бергаи воқеа ходисаларни ўзида акс эттиради. Аждодлардан авлодларга маълумот тўплаб, йиғиб, сақлаб етказади.

Дунёнинг маданий тасвирини ўрганишда лингвوماданиятшуносликнинг мутахассислари (Теребихин Н.М., Топорова В.Н., Гачев Г.Д.) қатор ҳолатларни келтирадилар:

- 1) тилда дунёнинг маданий тасвири ўз ичига умуминсоний ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини қабул қилади;
- 2) дунёнинг маданий тасвирида тилда сақланувчи ва қўлланилувчи маданиятга хос бўлган маънолар, маданий-қадриятли доминантлар, маданиятнинг маълум турларини ҳосил қилувчи тушунчалар мавжуд бўлади;
- 3) дунёнинг маданий тасвири бир тил маданияти қолипида ягона тасаввурни ифодаламайди, чунки турли миллат вакиллари турли қадриятларга эга бўлиши мумкин;

4) дунёнинг маданий тасвири нафақат индивидуал балки жамоавий онгда мавжуд бўлади [Карасик, 1996.].

Шу уринда, лингвомаданиятшуносликда, машхур тилшунос олим А.А. Рлтебня томонидан киритилган, сўзнинг ички ёки ботиний шакли ҳақидаги фарази жула муҳим аҳамият касб этади, чунки этимологик таҳлил сўзнинг бирламчи мотивлашганлигини очиб беради. Бу эса тилдаги этник дунёқарашнинг муҳим жиҳатларини аниқлашга кўмаклашади. Ботиний шакл ҳосил қиладиган ассоциациялар ва маъно аломатлари лексик моҳиятларнинг денотатив таркибий қисмига нисбатан кўпроқ этномаданий ўзига ҳосликка эга бўлади; “ботиний шакл лексик моҳият билан боғлангач дунёни сўз орқали тасаввур этишнинг ўзига хос буртма ифодасини яратади” (Мечковская, 2000:57).

В.В.Виноградов сўзнинг ички шаклини қуйидаги тарзда белгилайди: “Сўзнинг “ботиний шакли”, сўзнинг моҳияти ёки уни ишлатиш негизида ётган образ фақат ушбу сўз ёки сўзлар бирикмаси вужудга келган ёхуд шаклга кирган моддий ва манавий маданият, тил тизими фонидагина аниқланиши мумкин” (Виноградов, 1972:20), Сўз ички шаклининг танланиши ижтимоий ва маданий-тарихий жиҳатларга эгадир. Тилшунослик фанида сўзнинг ички шаклини таҳлил қилишда икки тенденция: ушбу тушунчанинг диахроник жиҳатдан этимологик талқини ва тил бирликлари ички шаклининг уларнинг мазмуни билан синхронлашуви ҳолати кўзга ташланади.

Ички шакл иккиламчи номинация ёки алоқалар тизимини (яхлит вазиятни) етказиш мақсадлари учун муҳим бўлган муайян боғланишнинг тилда муқим ўрин олишига қаратилган бўлиб, у яна тил эгалари онгида бир қатор ассоциатив алоқаларнинг ҳосил булишига ёрдам беради. Бундан ташқари, “ботиний шакл ифодаляйдиган типиклаштирилган вазият ушбу шаклда бундан олдинги аждодларнинг индивидуал онгида қарор топган, мазкур жамиятнинг тарихий тараққиёти жараёнида ижтимоий амалиёт томонидан ишлаб чиқилган муайян қадриятли йўналишни ўз ичига олган бўлади” (Инсон омили...,1991: 137-138).

Шундай қилиб, тил кишилар ўртасидаги алоқанинг энг муҳим воситаси, фикрни бошқаларга етказувчи қуролдир. Тил миллий маданиятнинг ойнаси, уни сақловчи хазина ҳам. Ҳар бир халқ яшаётган жойининг табиати, у халқнинг иқтисодий тузуми, оғзаки ижодиёти, бадий адабиёти, санъати, фани, урф-одатини ўзида акс эттириб, тўплаб, авлоддан-авлодга етказиб бериш тилнинг миллий-маданий белгисидир. Тил маданият кўзгусидир. Унда нафақат инсониятни атрофидаги борлик мавжуд дунё, яшаш шарт-шароити ўз аксини топади, балки халқларнинг ўз ўзини англаши, менталитети, миллий характери, яшаш тарзи. анъаналари, урф-одатлари, маънавияти, қадриятлари, дунёпи англаши, дунёқараши намоён бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Агзамова Д.Б. концептининг инглиз миллатининг лисоний тасаввурида акс этиши. Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида илмий-амалий конференция материаллари. –Т., 2011. 135-136 б.
2. Алефиренко Н.Ф. Поэтическая энергия слова. Синергетика языка, сознания и культуры. – М.: 2002
3. Арутюнов С.А., Багдасаров А.Р., Белоусов В.Н. и др. Язык – культура – этнос / – М.: Наука, 1994. – 233 с.
4. Аникин В. П. Долгий век пословицы// Русские пословицы и поговорки. – М.: Художественная литература, 1988.
5. Аскольдов С. А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. Под. ред. В. Н. Нерознака. М.: Academia, 1997. – С. 267-279
6. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2001. – 123 с.



7. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистики и семантики термина «когнитивный», авторский материал, 2007 -2009, [contexus@mail.ru](mailto:contexus@mail.ru)
8. Лихачёв Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН. Серия языка и литературы. 1993. Т. 52. –№1. – С. 3-9
9. Ляпин С. Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты, Научные труды Центроконцепта.– Архангельск: Изд-во Помор. ун-та, 1997. – № 1. – С. 11-37
10. Маслова В.А. Современные направления в лингвистике М.: Академия, 2008. – С.128-188
11. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – 256 с.
12. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – 208 с.
13. Минский М. Фреймы для представления знаний. - М., Энергия, 1978.
14. Нерознак В.П. От концепта к слову: к проблеме филологического концептуализма // Вопросы филологии и методики преподавания иностранных языков Омск, 1998. С.80-85


# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Акрам Тошпўлатов

Самарқанд давлат университети

Филология фанлари бўйича фалсафа Доктори (PhD)

## “ДАШТУ ДАЛАЛАРДА” НОВЕЛЛАСИДА ХАРАКТЕР ЯРАТИШ МАҲОРАТИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-7>

### АННОТАЦИЯ

Ўзбек ҳикоячилигида реал воқеа ва ҳодисаларга асосланган, анъанавий усулда ёзилган, юксак бадиий-эстетик қувватга эга бўлган ҳикоялар бармоқ билан санарлидир. Шундай ҳикоялардан бири шубҳасиз, Мурод Муҳаммад Дўстнинг “Дашту даладарда” асари ҳисобланади. Ҳикояда эл назаридан четда қолган, аммо ички маънавий олами билан барчани лол қолдира оладиган, ўзбек халқининг, миллатининг менталитетини асрлар оша сақлаб қолишга хизмат қиладиган характерлар тадқиқ этилган. Шунингдек, мақолада ўзбекона орномус, ҳаё, ғурур, эрлик шуқуҳи, шаъни, аёл характеридаги нозик инжа кечинмалар руҳий-психологик жиҳатдан максимум даражага кўтарилганлигини исботлашга ҳаракат қилинган. Мурод Муҳаммад Дўстнинг фольклор анъаналари асосида яратган “достони” (ҳикояси) завқшавқ билан ёзилган, нафақат ёзилган, балки тирик табиат тасвири, беғубор осмон остидаги ғам ва ташвишларга, шодлик ва қувончларга тўла ижтимоий ҳаёт Полвон тимсолида саҳналаштирилгани, шундай характергина миллат тимсолига айлана олишлиги тадқиқотда ўз аксини топган.

**Калит сўзлар:** характер, тимсол, руҳий кечинмалар, миллий ғурур, эрлик шаъни, новелла, маҳорат, фольклор анъаналари, урф-одатлар, воқеа-ходиса.

Akram Toshpo'latov

Samarkand State University

Philosophy doctor for philology sciences(PhD)

## SKILL FOR CREATING CHARACTER IN SHORT STORY, NAMELY "DESERT AND FIELDS"

### ANNOTATION

In Uzbek storytelling, stories based on real events and happenings, written in a traditional way, with a high artistic and aesthetic power, are digital. Undoubtedly, one of such stories is Murad Muhammad Dost's work "In the valleys" (Dashtu dalalarda). The story explores characters who have been left out of the public eye, but who can amaze everyone with their inner spiritual world, who have served to preserve the mentality of the Uzbek people and nation for centuries. The article also tries to prove that the Uzbek honor, modesty, pride, masculinity, honor, delicate feelings of a woman's character have reached the maximum psychological level. Murad Muhammad Dost's epic is based on folklore traditions was written not only with pleasure, but also with a picture of living

nature, a social life full of sorrows and worries, joys and sorrows under the spotless sky in the person of Polvon reflected in the study.

**Key words:** character, emblem, spiritual experiences, national pride, heroic honor, novel, skill, folklore traditions, customs, event.

**Акрам Тошпулатов**

Самаркандский Государственный Университет  
Философ в филологических науках доктор(PhD)

## "В СТЕПНЫХ ПОЛЯХ" НАВЫК СОЗДАНИЯ ПЕРСОНАЖА

### АННОТАЦИЯ

В узбекском повествовании истории, основанные на реальных событиях и происшествиях, написанные традиционным способом, с высокой художественно-эстетической силой, являются цифровыми. Несомненно, одной из таких историй является работа Мурада Мухаммада Доста "В долинах" (Дашту далаларда). В рассказе исследуются персонажи, которые остались вне поля зрения общественности, но которые могут поразить каждого своим внутренним духовным миром, которые на протяжении веков служили сохранению менталитета узбекского народа и нации. В статье также делается попытка доказать, что узбекская честь, скромность, гордость, мужественность, честь, тонкие чувства женского характера достигли максимального психологического уровня. «Эпос» (рассказ) Мурада Мухаммада Доста, основанный на фольклорных традициях, был написан не только с удовольствием, но и с изображением живой природы, общественной жизни, полной печалей и забот, радостей и печалей под незапятнанным небом в лице Полвона, отраженного в исследовании.

**Ключевые слова:** персонаж, образ, духовные переживания, национальная гордость, героическая честь, новелла, мастерство, фольклорные традиции, обычаи, событие.

XX асрнинг сўнги чорагида "Галатепага қайтиш", "Лолазор" каби бадий, пишиқ, полифоник асарлар яратган Мурод Мухаммад Дўст ижодида "чигалёзди машғулотлар" - ҳикоялар ҳам муҳим босқични эгаллайди. Эпоснинг катта жанрларда ижод қилишдан аввал шеърлар, ҳикоялар ёзилиб услуб шакллантирилади, муаллиф ўз қаламини синаб кўради. Ёзувчининг дастлабки ҳикояларида "китобийлик ва ижод палласида табиий бўлган тақлидийлик бўлса" (И. Ғафуров), "Дашту далаларда" ҳикоясида эса "ташвиқотчининг, воизнинг ўрнини санъаткор олади" (Ойбек). "Агар адабиётда энг машаққатли вазифа характер яратиш бўлса, Мурод Мухаммад Дўст бу юмушни ўз асарида муваффақиятли урдалай олган" (Р. Қўчқор). Мазкур фикр "Лолазор" романи бадийига тегишли бўлса-да, "Дашту далаларда" ҳикояси ҳақида айтилганда ҳам моҳият ўзгармасди. Қай бир маънода ёзувчи ижодий фаолиятида ҳажман кичик, аммо бадий жиҳатдан пишиқ асарлар катта ҳажмдаги буюк асарларга ҳамиртуруш вазифасини ҳам ўтайди. А.Қодирий "Улоқда" ҳикоясидан кейин йирик асарлар (романлар) ёзишга ўзида ишонч туйган бўлса, Мурод Мухаммад Дўстда ҳам айнан шунга ўхшаш ҳолатни кўриш мумкин. У "Дашту далаларда" асаридан сўнг машҳур "Лолазор" романини яратади.

Ёзувчи Назар Эшонкул мазкур ҳикояни ёзувчининг шох асари сифатида баҳолайди: "Мендан битта асар билан ёзувчи адабиётда қолиши мумкинми деб сўрашса, "Ҳа! Бу Мурод Мухаммад Дўст ва унинг "Дашту далаларда" ҳикояси", - деб жавоб қайтарардим. ...Бу ҳикоя даштнинг кўҳна кўшиғига, даштнинг бепаён далаларидаги туганмас дард, кўмсаш, соғинч тўла хиргойисига ўхшайди, ошиқлар ҳақидаги қадим мифлар, дostonлар оҳанги бор бу ҳикояда. Ҳикоя халқ оғзаки ижоди ва XX асрдаги насрнинг энг сўнги ютуқларини елкасида кўтариб турибди"[1.450].

Ҳикоя тугундан бошланади. Унда сюжетнинг ретроспектив, концентрик ва ассоциатив каби барча турларини учратиш мумкин. Сюжетда кутилмаган

бурилишлар, таъсирчан лавҳалар, кизиқарли тўқнашувлар яшаш учун асар фабула талабларига мослаштирилган.

Ҳикояда қаҳрамон исми айтилмаган. Шунчаки полвон деб аталади. Қир- адирларда пода — қорамол боқиш, шу касбни умр мазмунига айлантириб олишнинг ўзи бир жасорат. “Тақрон ерда тоқ яшаш”, осмон ва заранг ер билан тиллашиб умргузаронлик қилиш қанчалар машаққатни, матонатни талаб қилади. Кимсасиз, дашту далаларда, қишлоқ ҳаётидан айро, ит ва уй ҳайвонлари тўдасида кун кечирган одамга исмининг нима кераги бор. Ким ҳам унинг исмини тутиб чақирарди. Ундан кўра полвон деган сўзда бир оз эркалаш маънолари ҳам йўқ эмас. Бежизга катталар ёш болаларга “полвон” деб мурожаат қилишмайди. Мазкур сўз катта қийматга эга. Сендан бошқа кимимиз бор пода боқадиган, ўзингдан қоладиган гап йўқ, деб халқ уни пода боқишга рағбатлантиргандай бўлади.

Полвон аслида шундайми? Ҳикояда воқеалар мантигидан характерлар мантиғи устинлик қилади. Кўшни қишлоқдан уйланиб яхшигина яшаб юрган Полвон кунлардан бир кун поччасининг биргина “хотининг уйига ўтлагани кетади” гапи билан мастликда хотини - Хадичани ҳайдаб юборади. Халқ дostonларидаги сингари роппа роса қирқ кундан сўнг хотинини олиб келишга боради. Қайноғасидан аёвсиз калтакланади. Эртақлардагидек табиат кўйнида яна топишади. Асардаги бор-йўқ воқеа шу. Халқ оғзаки ижоди намуналари бўлмиш эртақ ва дostonларда бош қаҳрамонлар аксарият ҳолларда шахзода ва малика бўлиб чиқишади. Агар мабода камбағал оила фарзандлари бўлишса, ички дунёси ниҳоятда бой қилиб тасвирланади. Полвон ва Хадича ҳам шу хислатлардан холи эмас. Кўринадики, асар воқеалар ривожи - қаҳрамонлар кечинмаларида кучли психологизм ва драматизм асосида композицион яхлитлик вужудга келади.

Адабиётшунос Б. Карим мазкур авлод танлаган йўл ва мавзуларни тўғри англайди: “70-80 - йиллар ҳикояларини ёзган авлод вакиллари ижодида ҳаётда учрайдиган ғаройиб одамлар, жамиятдаги эътиборсиз, телбасифат, жўмард, бегибир одамлар оламининг тасвири етакчи ўринга чиқди”[2.6].

Албатта, жамиятдаги бу тоифа одамлар ҳаётини тасвирлашда ҳикоялар шаклда соддаликни талаб этади, ортиқча таърифу тавсифлар, узундан-узоқ фалсафий мулоҳазалар муаллиф ғоясига тускинлик қилади холос. М. М. Дўст танлаган қаҳрамон исмсиз, эл назаридан четда, бироқ жўмард одам. Юриш- туриши, касби-кори фақат яхшиликдан иборат. Чумолига озори тегмаган, қўй оғзидан чўп олмаган беозор характер соҳиби бўлишига қарамасдан, негадир у Салим сақични ёмон кўради. Уни эркақларга хос ғурури йўқлигидан, маҳалла аҳли ҳазар қиладиган, тақиқланган юмушларни касб қилиб олганидан аламзада. Полвонга шундай хотинчалиш одам билан борди- келдини узиш эса оғир кечади. Бутун бир қишлоқни иснодга қўйган Салим сақич унга бегона эмас, Полвон шундан куяди. Бирор баҳона сабаб юз кўришмас бўлиб кетишни ҳам кўп уйлайди. Бироқ бу дабдуристан амалга ошавермайди. Бутун бир маҳалла аҳли билан муроса қилмаган, ўз манфаатидан бошқа нарсани билмайдиган Салим сақич Полвонни ҳам рўзғорини бузиб юборади. Полвон соддалик қилиб, ёмонга яқинлашиб тузоққа илинади, ўзига “қора” юқтириб олади.

“Уйга қайтиб хотинини буровга олди. Хадича қасам ичди, қизини, энасини, худонинг ўзини гувоҳ қилди. Лекин Полвон ишонмади. Ишонай деди-ю, кўнглида тутун қоларини сезди, кайфи бор эди, чекаётган азоби бол кўринди - хотинига ишонмади” [3.286]. Хадича бир сидра кийимини тугиб, ташқарилади, қайтариб олар деб ўйлади, Полвон ер бўлиб бир нарса демади, аммо Хадича дарвозага етганда чидаб туролмади. Чаманни(қизчасини) судраб чиқиб “муниям обкет, пишириб ейсанми, исқотингга қўясанми...” Мушт еганда йиғламаган Хадича, буни эшитиб борлиғи ларзага тушади, кўзига ёш қуйилиб келади.

“Жаҳл келганда ақл кетади” дейишади. Исён яна исённи талаб қилаверади. Мастликда инсон онги нозиклашиб, итоатдан узоқлашади. Кўпроқ фожиали ҳолатларга мойил бўлади. Бир бегуноҳ инсонга – умр йўлдошига телбаларча муносабатда бўлиб, тинка-мадорни куриладиган, юракни жунбушга келтирадиган, ҳузур-ҳаловатдан айирадиган психологик жараённи бошидан ўтказиб ўзида катарсис ҳолатни туюди. Қилган ишидан пушаймон бўлади.

Хадича билан ўтказган ширин азобларини бирма-бир эслайди. Хотиралар уни абадий саодатга етаклай бошлайди.

“Хадича ёнингда ётганида ўлим ёдингга тушса ҳам қўрқмайсан: хотининг бор, боланг бор, тепангда - Худо, э, бир гап бўлар-да, деб ўйлайсан. Хадича бўлмаса қийин экан. Энди унинг сиёғи ҳам эсдан чиққандай; бечора салга шамолларди, шамоллаб думоғи чиппа битганида пишқириб безор қиларди, худа-беҳуда чироқ ёқарди, ивирсиб ғашингга тегарди, лекин бари- бир, борлиги дуруст эди - овунардинг, исталган пайтда қўл узатсанг етади, ғингшиса, ғингшир, иложи йўқ, ўртада нон синган, никоҳ ўқилган; бағрингга босиб юз-кўздан муччи олган чоғларингда бечора кичрайиб қоларди, у-ку кичкина, лекин сен ҳам ўзингни пардек енгил сезасан”.

Тасвир муаллиф нутки ҳам, персонаж нутки ҳам эмас. Ҳар қандай эркак жуфти халолидан ажралгач, унинг рухий дунёсида кечаётган туйғулар ифодасини суратлантираётган ровий нуткидир. Ровий холис, у муаллиф тилидан сўзлаб, персонажни салбий ёки ижобийга ажратмайди. Персонаж ўй-хаёлларида донишманд ёки тўпорига ажралмайди. У умум тилидан гапиради, тасвирлайди. Шунинг учун ҳам ровийдан қусур изланмайди, балки фазилатли жиҳатлари таъкидланади.

Полвон шундай ширин, аммо азобли хотиралар билан қирқ кун яшайди. Уни хотираларидан чалғитадиган бирор жонзот йўқ. Биргина шериги бор, унинг ҳам хотини кетиб қолган, сўққабош. Табиийки, у ҳам тақдирдошини ҳаётини шундай давом этишини истайди. Ёлғиз ҳаётига мазмун бағишлаган, яшашга иштиёқ ўйготган Хадича ва жигарпораси соғинчи уни итоатга бошлайди. Қилган ишидан, юриш-туришидан, “ўзини олиб бориб кўмганда ҳам ҳаловат тополмайдиган” қалб безовталигидан қутилмоқ чорасини топишга қийналади. Дабдурустдан Хадичани излаб боришга эса ғурури йўл қўймайди. Унга қутилмаган бир зарба, ориятини кўзгайдиган сабаб керак эди. Бу Назар Махсум тутган йўл бўлди. Қассобга мой қайғуси, эчкига жон

қайғуси деганларидай, Назар Махсумга Полвоннинг дарди ҳоли, чеккан азоблари керакмас. У кимнидир уйлаб қўйишу, натижада тўнлик, саллалик бўлиб олиш орзусида. Манфаатлар тўқнаш келади. Полвон гапнинг галига қараб, уч марта талоқ ҳам айтиб юборади. Унда “қирғийдай қаққайиб ўтирган”, “ўздан тинчиган одам”нинг азонда пайдо бўлиши унинг қадами қутлуғ эканлигига шубҳа уйғотади. У тезда ваколатини қайтариб олади.

“Инсон икки марта - биринчисида физиологик, иккинчисида психологик жиҳатдан туғилади, - дейди адабиётшунос Раҳимжон Раҳмат жисмоний туғилиш одам она қорнини тарк этиб, алоҳида мавжудликка айланади, психологик жиҳатдан қайта туғилиш эса, ўзгаларга фикрий-ҳиссий қарамликдан бутунлай халос бўлишдир”. Энди у эрлик виждонига, ғурурига ҳам қарам эмас. Атрофидаги одамларнинг гап-сўзларига ҳам қараб иш тутмайди. Ўз оиласини қайта тиклаш учун таваккал қилишга мажбур. Хадичасиз, Чамансиз бир лаҳза яшолмаслигини тушуниб етади. Сўнгги нуқтани унга Назар Махсум каби ёвуз ниятли инсонлардан қизғаниш туйғуси қўйиб берди.

Полвон Шўркудукқа - таниш ҳовлига кириб келганида хотинининг тунд нигоҳидан хафа бўлмайди, балки хотини ўраган бир сўмлик гарди рўмоли, унинг кир уннаган қўйлаги, қўлидаги чўлтоқ супургисини кўриб хўрлиги келади. Хадичада ҳеч қандай гуноҳ йўқлиги туриш-турмушидан сезиларди. Унинг қиёфасида фақат номард эр томонидан хўрланган, ҳақоратланган аёл нуқси уриб турарди. Буни ич-ичидан ҳис этган Полвон ўзини номард, ноинсоф эканлигидан оғринади.

Хадича ҳам Шарқ аёли. Ўзбек фарзанди. Эрдан чиққан аёл, элдан ҳам чиқишини яхши тушунади. У ҳам мард, танги, тўпори, содда Полвонни соғинади. Дабдурустдан айниб қолган эрини кимнингдир фикри билан шундай йўл тутганлигини ҳам билади. Қачондир ўз оёғи билан кириб келишини, мурасага келишини кутиб яшайди. Бироқ Хадичада ҳам барча аёлларда бўлгани каби - аёллик нафси, тортинчоқлиги, қолаверса қўрқув соғинчдан устунлик килади. “Муҳаббат ё кучайиб боради, ё паёнига етади.

Нақадар бахтсиз бўлса, шу қадар кучли жароҳат етказди”(А. Камю). Оилавий бахтсизлик ҳар иккаласининг қалбини қаттиқ жароҳатлаган. Жароҳатдан фориғ бўлиш мумкин. Аммо қийин томони бу ҳолат бир кишига боғлиқ эмас.

– Обкетай деб келувдим, Хатча, - деди секин, овозини ўзи ҳам танитай.

– Ўлдириб қўясан, - деди Хадича. Мен-ку борарман, лекин сен тентак ўлдириб қўясан.

Мазкур суҳбат драматик тарангликни келтириб чиқаради. Драматизм кесатиклар, ёзгиришлар, ўпкалалар орқали соғинч туйғуларини ҳам ифодалайди. Ҳар иккаласи сўнги нафратини сочиб қолиш илинжида. Ҳеч бир томон ён босгиси келмайди. Хадича баттар терс келади. Бу билан у Полвоннинг сўзида қатъийлигини синовдан ўтказди. Полвон қирқ кун олдин қизини ҳам ҳайдаб солиб, Хадичани қанчалар хўрлаган бўлса, бугун Хадича қизини етаклаб чиқиб Полвонни шунчалар хўрлади. Бу билан аёл макри соғинч, меҳр риштасини бутунлай узилиб кетишидан ҳам ўзини ихоталади...

Сатторқул ва унинг шериклари Полвонни ўласи қилиб калтаклаб, Хадичани талоғини айтишни талаб қилишди. Саттор қўйган талаб энди шунчаки талаб эмас, балки йигитнинг умр йўлдошидан, жигарпорасидан ажратадиган талаб. Аслида, қайноғаси қўйган талабни адо этиш қийин эмасди. Бироқ қир-адирларнинг савлати, сокин табиат унинг ғурурига ғурур қўшган бўлса қўшганки, матонатини йўқотган эмас. У тирикчилик қўйида ор- номусини пулга, мансабга, қорин ташвишига берганича йўқ, қолаверса тоғлик-даштлиқ одамларда йигитлик шаъни чуқур илдиз отган бўлади. Бундай инсонлар яхши гапга, алдовга осонгина кўникиши мумкин, аммо уларни мажбурлаб, зўрлаб мурасага келтириш асло мумкин эмас.

Хадичанинг юраги безовталаниб, тезак териш баҳонасида Полвонни қидириб қирга чиқади. Унинг қалбида кўркув бир ҳадик ҳам йўқ эмасди. Полвон кўрқоқлик қилиб унинг талоғини айтиб юборса-я. Аёлни чўктирадиган, ер билан битта қиладиган, хўрлайдиган ҳолат - бу! Хадичани подаётарга етаклаган, нафси-нозидан, аёллик ҳаё-ибосидан устун куч мана шу эди. Бекорга улуғ драматург В. Шекспир: “Муҳаббат ҳамма нарсадан кучли: дунёда унинг қарғишидан аччиқроқ жазо, бўйсунидан ортиқроқ бахт йўқ!”, - деб айтмаган.

Полвонни аввалига танитайди. Йўқ, таниди-ю, кўзларига ишонмади, кўрқди, қўли билан юзини пана қилди - қамчидан тўсгандай.

– Талоғимни айтдингизми? - дея секин, хўрланиб келар балони даф этолмаслигидан кўрққандек сўради, кўзлари мўлтиради, этагидаги тезак ерга тўкилди.

– Айтардим Хатча, - деди полвон - айтардим, лекин энди бўлмайди, иложим йўқ, айтсам кўрқоққа чиқаман. Чидайсан энди Хатча...

Хадича йиғлади. Кўзларини артаркан, рўмоли бошидан сирғалиб тушди, сочлари елкасига ёйилди.

– Борайми? - деб сўради. Урмайсизми?..

Полвоннинг хўрлиги келди, - сени урган қўл синмайдими Хатча!..

Итоатга келган қаҳрамонлар ҳолатини сўз билан ифодалаш қийин. Жумлалар эртақлардаги афсонавий қаҳрамонлар аҳвол-руҳиятидан ҳикоя қилинаётгандек таассурот қолдиради. Уларни фақат уқиш, кўриш, ҳис қилиш, завқланиш мумкин.

“Аёлни суймагунча ва аёлдан куймагунча эркак бахтиёрлик сафосини ҳам, бадбахтлик жафосини ҳам билмас” (В. Алимасов) экан. Полвон психологик қайта туғилиш учун ҳам худди шундай руҳий, жисмоний азобларни бошидан ўтказди. Улардан тўғри хулоса чиқара олди ва саодатга эришди.

Адабиётимизда новелла ва ҳикоя жанр сифатида ажратилади. Унинг назариясига оид бир қатор қарашлар ҳам йўқ эмас. Новеллада кескин бурилиш, ўткир сюжет, конфликтлилик, новеллистик ечим (кутилмаган ечим), “кўз кўриб кулоқ эшитмаган воқеалар тафсилоти” (Гёте) етакчилик қилади. Шу билан биргаликда баъзи адабиётшунос олимларимиз юксак савиядаги, бадиий баркамол ҳикояларга нисбатан ҳам новелла атамасини куллашади.

Академик М. Қўшжонов: “Новеллани ҳикоянинг сюжет жиҳатидан тугал ишланган олий формаси деб аташ мумкин”[4.162], - дейди. Ойбек “Улоқда” ҳикояси ҳақида фикр юритаркан: “Ёзувчи ҳикоя техникаси приёмларини эгаллаган. Воқеаларни очиш, буларнинг

инкишофи ва ечилиши янги замон новелла формаси равишидадир”[5.250], - деб ёзади. Ҳикоялар тадқиқотчиси У. Норматов А. Йўлдошевнинг “Пуанкаре” ҳикояси ҳақида ёзаркан, уни новелла деб атайти. Қатор хусусиятларини санаб, жумладан: “Бундан ҳам муҳими, асар бағрини ичдан нурлантириб турган, қалбингизни ларзага соладиган туғён қўлга қалам олишга ундаган ички бир дард ёниқ илҳом маҳорат асарга ажиб бир жозиба бахш этган”[6.54-с], - деб айнан новелла бадийлигига урғу беради. Адабиётшунос Н. Комилов эса: “Дарҳақиқат, “Декамерон”да изчил психологик тасвир, мантикий тафсилотлар орқали шакллантирилган образлар анчагина. Аммо ундаги ҳамма ҳикоялар ҳам иовелла жанри талабларига тўла жавоб бера оладиган даражада “бадий баркамол” асарлар эмас”[7.154]лигини таъкидлаш орқали новелланинг ўзига хос жиҳатларига тўхталади.

Мурод Муҳаммад Дўст кишлок ҳаётидан, оддий инсонлар турмиш тарзидан олиб ёзган ҳикояси соф миллий талабларга жавоб бера олади. Унинг юксак маҳорати фолкльор анъаналари асосида барча халқлар адабиётига таниш бўлган новелла ярата олганлиги билан ҳам ўлчанади. Назарий маълумотлардан келиб чиқиб, шунини айтиш мумкинки, “Дашту далаларда” асари ҳар томонлама новелла талабларига жавоб бера олади. Ундаги кескин бурилишлар, ўткир сюжет, конфликтлилик, новеллистик ечим ва энг муҳими юксак бадийлик мазкур асарни новелла деб аташимизга тўлиқ асос бўла олади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

---

1. Эшонқул Н. Мендан менгача. Тошкент. Akademnashr. 2014. – Б.508
2. Карим. Б. Наср руҳи – аср шукуҳи (Сўз боши). XX аср ўзбек ҳикоялари антологияси. Т. ЎзМЭ. 2009. – Б. 623
3. XX аср ўзбек ҳикоялари антологияси. Т. ЎзМЭ. 2009. – Б. 623
4. Қўшжонов М. Маъно ва мезон. Т. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б. 183
5. Ойбек. Асарлар. 9-том. Т. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б. 347
6. Норматов У. Новелла бағридаги туғён. ЎзАС. 2012. 14-декабрь.
7. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т. Шарқ. 2011. – Б. 319

**СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART**


**Nilufar Khodjaeva,**

PhD, Head of the department of  
Translation Studies and International Journalism  
Faculty of Oriental Philology and Translation Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies

**Gubayeva Khurshida,**

graduate student of the Department of  
Translation Studies and International Journalism  
Faculty of Oriental Philology and Translation Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies

**ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF  
KOREAN-UZBEK LITERATURE)**

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-8>

**ABSTRACT**

As it's known that, a literature can be written in different styles, in different rhythms. Much depends on the chosen theme of the period described in the book, the nature of the events. If such features of the work chosen for translation are not identified, the key to its spirit cannot be found, and as a result, even if the book is translated into another language, it will not reveal its "magic" to the new reader. In this way, the purpose of the translation is not achieved. The main criterion is the level of expression of national words in the translation, taking into account the main objectives, such as the scientific substantiation of the quality and quality of the translation, the view of the translation in terms of artistic and methodological harmony with the original. The article discusses the features of translating of character speech on the example of Korean-Uzbek works of art.

**Key words:** character speech, translation, languages, speech, author, hero.

**Ходжаева Нилуфар,**

PhD, заведующий кафедрой  
Переводоведения и международная журналистика  
Факультет восточной филологии и переводоведения  
Ташкентский Государственный Университет Востоковедения

**Губаева Хуршида,**

выпускница кафедры  
Переводческое дело и международная журналистика  
Факультет восточной филологии и переводоведения  
Ташкентский Государственный Университет Востоковедения

**ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА РЕЧИ ПЕРСОНАЖИ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКО-  
УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ЛИТЕРАТУРЫ)**



**АННОТАЦИЯ**

Художественная произведения может быть написано в разных стилях, в разных ритмах, многое зависит от выбранной темы периода, описанного в книге, характера событий. Если такие особенности произведения, выбранного для перевода, не выявить, невозможно будет найти ключ к его духу, и в результате, даже если книга переведена на другой язык, она не раскроет свою «магию» новому читателю. Таким образом, цель перевода не будет достигнута. Основным критерием является уровень выраженности национальных слов в переводе с учетом основных задач, таких как научное обоснование качества и качества перевода, взгляд на перевод с точки зрения художественной и методологической гармонии с оригиналом. В статье рассматриваются особенности перевода иероглифической речи на примере корейско-узбекских произведений искусства.

**Ключевые слова:** характерная речь, перевод, языки, речь, автор, герой.

**Xodjayeva Nilufar,**

PhD, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasini mudiri

**Gubayeva Xurshida,**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasini bitiruvchisi

**PERSONAJ NUTQINING TARJIMA XUSUSIYATLARI (KOREYSCHA-O'ZBEKCHA BADIY ASARLAR MISOLIDA)**

**ANNOTATSIYA**

Badiiy asar har xil uslubda, turlicha maromda yozilgan bo'lishi mumkin. Bunda ko'p narsa kitobda tasvirlanayotgan davr tanlangan mavzu, voqealarning xarakteriga bog'liq. Agar tarjima qilish uchun tanlangan asarning bunday belgilari aniqlangan bo'lmasa, uning ruhiga mos kalit topib bo'lmaydi natijada garchand kitob boshqa tilga ko'chirilsa-da, u yangi kitobxonga o'z "tilsimot"ini ochmaydi. Shu tariqa tarjima qilishidan kuzatilgan maqsad ro'yobga chiqmaydi. Tarjima sifati va tarjimon mahoratini belgilovchi jihatlarni ilmiy asoslash, tarjimaning asliyatga badiiy-uslubiy hamohanglik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kabi asosiy maqsadlarni ko'zda tutgan holda milliy o'ziga xos so'zlarni tarjima madagi ifodasi darajasini asosiy mezonidir. Maqolada Koreys-O'zbek badiiy asarlari misolida personaj nutqi tarjimasining o'ziga hos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** personaj nutqi, tarjima, tillar, nutq, muallif, qahramon.

At present, the interest of linguists in research in the field of comparative linguistics continues to grow, and the comparative study of the lexical phenomena of different languages is of great importance for the theory and practice of translation. At the same time, recently there has been an active penetration of colloquial and reduced vocabulary into all spheres of society, including fiction, which makes it necessary to study the features of the transmission of this vocabulary in literary translation. The use of colloquial speech and reduced vocabulary in works of fiction serves as a means of expressiveness and helps the author create the image of the hero, reveal the features of his character and bring the described situation closer to the real life of the hero. Accordingly, the analysis of the hero's speech allows us to judge his origin, social belonging, level of education, and also helps to get an idea of his worldview and value system. At the same time, the transmission of the character's speech features is the most difficult, since, among other things, they reflect the author's life experience, his picture of the world, attitude to the events described and the emotional state at the time of writing the work.

Just as some individuals are distinguished by their way of speaking in life, most of the characters in a work of art pronounce words slowly, tapping, and weighing, while others stutter and

stutter, while others violate the norms of literary language. express their thoughts in their own dialects.

A foreigner, on the other hand, suffers from a number of shortcomings, not only in terms of grammatical structure and phonetic pronunciation, but also in terms of selective use of lexical and phraseological units.

As strange as it may seem to speak of an ordinary Uzbek country boy 60-70 years ago, who had his own image of speech in a work of art, speaking in a smooth literary language or in the dialect of an urban working man full of vocabulary of his profession, in fact, the image of the speech, created by the author on purpose, sounds so ridiculous that a foreigner expresses his opinion in translation in a fluent, fluent, literary language [2].

Unless the translation reflects the image of the characters' speech, the artist's services in this regard will not be visible. The author of a literary work is required to create an image of the speech of the characters. Even the great Shakespeare is accused of paying less attention to the image of his characters' speech.

Therefore, this issue should be an integral part of any work of art. Therefore, the translator should not deprive the book of the opportunity to fully feel the original subtlety of the original by all the characters of the work, whose speech is highlighted, speak in the same "pattern".

Uzbek translators often deal positively with the issue of re-creating such a religious speech of the characters in a work of art.

For the creation of translation associations requires a comparative study of the means of different bilingual languages, the definition of the aesthetic originality of the literary text, the semantic-methodological and pragmatic features of its material-logical and emotional-affective and figurative elements. reaches A.V. Fyodorov argues that each means of language, especially the means of language of a work of art, can serve for the expression of direct or indirect methodological tasks: each linguistic phenomenon, regardless of the scope of the thought expressed, is to some extent methodological. may acquire paint. This feature of language units brings translation theory closer to comparative stylistics, which serves as a basis for linguistic-translational research, taking into account all aspects of linguistic data, while the semantic-methodological and pragmatic incompatibility of different pairs of language units. creates an opportunity to judge about. Such analysis and generalizations of translation practice, while enriching the imagination and views in the field, provide the necessary materials to determine the prospects for solving some practical problems.

They include pragmatic, non-linguistic factors, including not only linguistic, but also individual-psychological, sociological, ethnographic, national-historical, territorial and a number of other aspects, as well as a high level of communication. According to V. Kasagrants, "the necessary influence is achieved not through the translation of languages, but through the interpretation of cultures." [5]

Deep understanding of the specific features of the author's language, adjectives, metaphors, finding alternative alternatives to the original lexical elements with a deep understanding of the stylistic features of verbs is one of the important aspects of reflecting the writer's style and skill in translation.

Concerned about the misinterpretation of the national spirit and national character, translator G. Lomidze says: "The category of national character is sometimes approached insanely. National character, in its purest form, is seen as a set of distinctive features that are unique to one nation and not found in other nations at all. There is no such thing as an abstract, separate national character in nature." [2]

Thus, as the Bulgarian scholar Anna Lilova points out, "The difficulties in translation are to a certain extent connected with the clear re-creation of the national character in this or that work. The more vividly the work reflects the national character, the more difficult it is for the translator to find alternative means of representation. "

Ho Gyun's story "Hon Kil Don" is also a work that brings out the spirit of ancient Korea, its social environment, ideas and views, and current issues of the time. The protagonist, Hon Kil Don,

has become a favorite of Koreans as a figure of divine power. This will greatly contribute to the national character of the character. At this point, the hero's unique national character is reflected in the character's portrait and speech.

In a work of art, the spiritual world of the characters, their way of thinking, their character play an important role in ensuring their individuality.

If a work of art is considered in connection with the period in which it was created, the socio-philosophical, moral and educational aspects of that period are the main factors that determine the spiritual characteristics of a person. The author's work reflects the literary and aesthetic views of the time. As he delves deeper into life, this quality is evident in the images he creates, in the way his characters think.

The only appearance of the characters, their clothing, their nationality, class, gender, as well as the attitude of the protagonists to the events depicted in the play, the calm and confrontation in the inner world, the emotional experiences, emotions, pain - their pains are manifested in their appearance.

One of the main means of characterizing an image in a work of art is the portrait image. Portraiture is one of the most important factors in the direct representation of the realities of life in fine arts and fiction. It is not an easy task to translate a portrait, which is one of the main elements that characterize the character of the protagonist. "Apart from the appearance and dress of the characters, they express their ethnicity, class, gender, as well as the attitude of the protagonists to the events depicted in the play, the calm and contradictions in the inner world, emotional experiences, emotions, pain. their pain is manifested in their appearance."

Chunxyang gripped the rope tightly with his hands, and slowly flew out with his white socks. [2,82]

In this sentence, we can tell from Chunxyang's delicate hands and white socks that he is not of ordinary class. Her graceful looks are typical of noble ladies. It is said that delicate hands are like jade, which is a national color of the people, and we have an alternative to a hand as soft as cotton.

In *The Story of Hon Kil Don*, the writer interprets all the protagonists as symbols representing a certain objective reality, environment, specific social relations. In describing their feelings, it convincingly reveals the connection between external events, the environment, and the changes in their psyche. The existing reality, social and national characteristics shape the true image of the heroes.

In this example, we can see the translator's own style. It is obvious that the Uzbek language used a wide range of figurative symbols, which did not exist in the original.

In the process of recreating the portrait of the characters, the translator not only uses the existing lexical layers of the language, but also the perception of the emotional experiences of the protagonist, the attitude to reality. , can draw an alternative image that fits the original only if he is able to see his various desires.

## 2. Verbal description of the characters in the work of art

Just as there are no people who speak the same language in real life, the speech of the characters in fiction is very different. Each character speaks in a different tone depending on their character, who they are talking to, and the circumstances at the time. Some of them like to use words that are specific to their speech or words from other languages. Some are very eloquent, others are accustomed to loud and lively speech with loud words and gestures, and still others speak calmly without deviating from the rules of literature. The identities, professions, culture, etc. of the characters are reflected in his speech. In the language of each character, the writer expresses their inner world, each of them in a unique tone. Many characters can be deeply ingrained in the reader's heart through their manner of speaking, and their speech can be vividly imagined by the reader. Such authenticity, vitality is a testament to the writer's skill. If the translator can convey these aspects to the reader, it will be a great success.

From beginning to end, a character does not speak in the same tone, in the same style. Depending on the scene, the circumstances, with whom, what he is talking about, and in what mood

he is speaking, his tone of voice may also change. Then the interpreter will be able to give a good speech only if the interpreter can recognize such a unique character of each character.

A work of art can be written in different styles, in different rhythms. Much depends on the chosen theme of the period described in the book, the nature of the events. If such features of the work chosen for translation are not identified, the key to its spirit cannot be found, and as a result, even if the book is translated into another language, it will not reveal its "magic" to the new reader. In this way, the purpose of the translation is not achieved. Unless the key to style is found, even if the same work is translated by the most talented artist, a true work of art will not be created. When a writer and a translator understand each other, it is as if a miracle happens and becomes a work of art.

We defined the level of expression of national words in the translation as the main criteria, taking into account the main objectives, such as the scientific substantiation of the aspects that determine the quality of translation and the skill of the translator, the view of translation from the point of view of artistic and methodological harmony.

The translator tried to reflect the reality of that period in his own language by translating the main components of national words, lexical units, phrases, realities typical of the life of the Uzbek people of the twentieth century into Korean with alternatives.

We have considered the reflection of national identity in literary translation on the basis of some historical-national words, units of measurement, notions of national life, and expressions of a set of clothes.

Certain theoretical conclusions can be drawn from the scientific-analytical, comparative study of the issues.

1. The results of the research showed that the linguistic and stylistic features of the translations of Korean stories were considered. In the linguistic analysis of the translation, we analyzed the lexical units of words, the ways in which they are translated, the translations of Korean stories.

2. The translation of emotionally-expressive words used in Korean stories has been illustrated. There was an expressive coloring of the 3 words in the translation.

3. The structure of sentences in the translated play is studied grammatically. It uses examples and rhymes. In Korean stories, personal pronouns are rare. This is because of the fact that they often use names instead of pronouns. The analysis showed that pronouns also serve to enhance the meaning and expressiveness of the word in Korean.

## References:


---

1. Hamroyev M.A. Collection of lectures on the Uzbek language.- Tashkent, 2007.
2. Ochilov E. Theoretical problems of translation studies. Textbook. Tashkent: ToshTDSHI, 2014.
3. Kochkartoev I. Q. Artistic speech stylistics. - Tashkent. 1975.
4. Salomov G'. Fundamentals of translation theory. - Tashkent: Teacher, 1983.
5. Sharipov J. From the history of translation in Uzbekistan. - Tashkent: Uzbekistan, 1965.
6. Abdullaev A. Syntactic method of expressiveness in Uzbek language. –Tashkent.: Fan, 1987.
7. Salomov G'. The problem of re-creation of methodological and national identity in literary translation // The art of translation. Collection of articles. - Tashkent: G. Gulom Publishing House of Literature and Art, 1980.
8. Salomov G'. Language and translation. –Tashkent: Fan, 1966.
9. Kim Hyeon Yeong. Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar.-Seoul, 2015.

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Rajabova Sadoqat Rasul qizi,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

## QARORLAR TILIDA ISHLATILGAN NEOLOGIZMLAR IZOHI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-9>

### ANNOTATSIYA

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv va chet davlatlar bilan aloqalar barcha soha singari til va tilshunoslikka o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Tilga ta'sir etadigan bunday jarayonlar bevosita dastlab uning leksikasida namoyon bo'ladi. Terminlar o'zini o'rganuvchi sohadan doimo bir qadam oldinda yuradi. Hayot qanchalik tezlik bilan o'tsa, terminlar ham shuncha tezlik bilan kirib keladi. Bunday terminlar qarorlar tilida ham o'z xos o'rniga ega. Maqolada mana shu terminlar va ularning izohlari keltirib o'tilgan. Ushbu terminlar qonunlarda aks etar ekan ular xalqimizning barcha qatlami uchun tegishli bo'ladi. Bu esa ba'zi bir yurtdoshlarimizda ayrim neologizmlarni tushunishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, nou-xau so'ziga ta'rif bersak, ushbu so'zga O'zME va Vikipediya lug'atdagi ta'rifiga asoslanib biz :- **“Nou-xau – ma'lum bir soha va mana shu soha vakili yoki vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy tomondan himoyalangan sir.”** deb izohladik. Maqolamiz mana shu muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** qo'llanilish darajasi chegaralangan va chegaralanmagan so'zlar, nou-xau, nomenklatura, biznes inkubator, , elektronik pul, elektronik raqamli imzo, elektronik hamyon, intellektual mulk, innovatsion...

Раджабова Садокат Расул кизи,  
Магистр Ташкентского Государственного университета  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

## ОБЪЯСНЕНИЕ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ НЕОЛОГИЗМОВ НА ЯЗЫКЕ ЗАКОНАХ

### АННОТАЦИЯ

Сегодняшняя стремительно развивающаяся глобализация и отношения с зарубежными странами, как и любая другая область, оказывают влияние на язык и лингвистику. Такие процессы, влияющие на язык, напрямую отражаются на его лексике. Термины всегда на шаг впереди своего области исследования. Чем быстрее проходит жизнь, тем быстрее входят термины. Такие термины также занимают особое место в языке законов. В статье перечислены эти термины и их определения. Эти термины отражены в законе, в том числе они применяются во всех слоях населения. Это затрудняет понимание некоторых неологизмов некоторыми нашими соотечественниками. Например, если мы определяем слово «ноу-хау», основываясь на определении этого слова в словаре ЎЗНЭ и Википедии, мы

можем сказать: - «Ноу-хау - это сведения любого характера, которая охраняются режимом коммерческой тайны и могут быть предметом купли-продажи или использоваться для достижения конкурентного преимущества над другими субъектами предпринимательской деятельности». Наша статья призвана решить эти проблемы.

**Ключевые слова:** ограниченное и неограниченное использование слова, ноу-хау, номенклатура, бизнес-инкубатор, стартапов, электронные деньги, электронная цифровая подпись, электронный кошелек, интеллектуальная собственность, инновации...

**Rajabova Sadoqat Rasul qizi,**  
Master of Tashkent State University of Uzbek Language  
and Literature named after Alisher Navoi

## EXPLANATION OF NEOLOGISMS USED IN THE LANGUAGE OF DECISIONS

### ANNOTATION

Today's rapidly evolving globalization and relations with foreign countries, like any other field, have an impact on language and linguistics. Such processes that affect language are directly reflected in its lexicon. The terms are always one step ahead of the field of study. The faster life passes, the faster the terms enter. Such terms also have a special place in the language of decisions. The article lists these terms and their definitions. As long as these terms are reflected in the law, they will apply to all segments of our people. This makes it difficult for some of our compatriots to understand certain neologisms. For example, if we define the word know-how, based on the definition of this word in the dictionary of UzME and Wikipedia, we can say: - "Know-how is a specific field and is represented by a representative or representatives of this field. developed and legally protected secret." we explained. Our article serves to solve these problems.

**Keywords:** limited and unlimited use of words, know-how, nomenclature, business incubator, electronic money, electronic digital signature, electronic wallet, intellectual property, innovation...

**Kirish.** Maqolada bugungi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan davrda qarorlar tili ummuman olganda tilimizga kirib kelgan neologizmlar tadqiqot obyekti sifatida olib o'rganilgan. Ushbu maqolada tahlil qilingan neologizmlar hayotimizning turli jabhalari, shuningdek, qarorlar tilida yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari turli ilmiy izlanishlar uchun yordamchi manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Lug'atchilik ushbu soha tarixan shakllanib, rivojlanib kelinayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Terminologiya bir joyda to'xtab qoladigan soha hisoblanmaydi. U doimo harakatda, rivojlanishda davom etadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv va chet davlatlar bilan aloqalar barcha soha singari til va tilshunoslikka o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Tilga ta'sir etadigan bunday jarayonlar bevosita dastlab uning leksikasida namoyon bo'ladi. Terminlar o'zini o'rganuvchi sohadan doimo bir qadam oldinda yuradi. Hayot qanchalik tezlik bilan o'tsa, terminlar ham shuncha tezlik bilan kirib keladi.

Tilda so'zlarning qo'llanilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan turi mavjud. Qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar shu tilda so'zlashuvchi xalq uchun tushunish qiyin bo'lmagan, muloqot darajasi chegaralanmagan so'zlar hisoblanadi.

Qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar esa ayrim bir soha, doirasigagina tegishli bo'lgan so'zlar hisoblanib, faqatgina so'z tegishli bo'lgan aholi qatlami tushunadigan so'zlar hisoblanadi. Bularga arxaizm (ulus-xalq, afandi-o'qituvchi, lang-quloq, tilmoq-tarjimon...), istorizm (vasiqa, vaqfnoma, sanad, taraka xati...), shevaga xos so'zlar (satil-chelak, inak-sigir, gashir-sabzi...), jargon (yopmoq-sessiyani tugatmoq, o'tmoq- imtixonni topshirmoq, g'isht-xunuk, uxlatib ketmoq-aldamoq...), argolar (yakan-pul, hasut-non...) va neologizmlar (lizing, audit, litsenziya, internet...) hisoblanadi.[1, 82]

Hukumat qarorlari tili terminlarga ham davriy o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi va ular tarkibida ham eskirgan yoki yangi so'zlar mavjud. Neologizm so'zlar bu neoyangi, logika- so'z bo'lib o'zida yangilik bo'yog'ini saqlab qolgan so'zlarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, litsenziya, kredit, lizing va boshqalar. Neologizmlar haqida Sh. Rahmatullayev "Neologizm tilga ummuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi ummum til neologizmi, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi. Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shunda-gina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi." [1, 87]

Biz neologizmlarni o'z ichida shartli ravishda **ikki guruhga** bo'lib tahlil qilib oldik.

1. **Yangilik bo'yog'ini o'zida saqlagan neologizmlar qatorini tashkil etuvchi terminlar.**
2. **Eng yangi neologizmlar qatori;**

Qarorlar tilida ham neologizmlarning har ikkala turi ham uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori va "O'zbekiston Markaziy banki boshqaruvining qarori" tarkibidagi neologizmlarni tahlil qilish orqali buning guvohi bo'lamiz. Biz terminlarni qarorlar tilidagi matnda kelgan misollar va ularni lug'atdagi izohini berib qisqa izohli lug'at ko'rinishida shakllantiramiz.

Dastlab **eng yangi neologizmlar qatoriga** kiruvchi terminlarni izohlaymiz.

1. "... mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda **nou-xaularni** ishlab chiqish, innovatsion faoliyat va raqobatbardosh ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini kengaytirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish..." Ushbu so'zga internet manbalarida quyidagicha izoh berib o'tilgan: [1]

**Nou-xau** - Nou-xau (ing. know how — qandayligini bilaman), ishlab chiqarish siri — hali hammaga ma'lum bo'lmagan va keng tarqalmagan yangi ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish-texnologik, boshqarish, moliyaviy-iqtisodiy, tijoratga oid bilimlar majmui va ularni amaliyotda qo'llash tajribalari; ularga tanho ega bo'lish. U korxonaga uchun ham, shaxs uchun ham muayyan ustunlikni ta'minlaydi. Nou-xau turli shakllarda: chizmalar, sxemalar, yo'riqnomalar, mahsulotlar namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, xodimlarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa bo'lishi mumkin. Odatda, nou-xauda patentlangan mahsulotga taalluqli ma'lumotlar emas, balki undan foydalanishni tashkil etish yoki uni ishlab chiqarish va o'zlashtirish xususiyatlariga doir maxsus axborot bo'ladi. Nou-xau maxfiylik bilan ajralib turadi va tijorat siri oshkor etilmasligini talab etadi. Nou-xau patentlanmaydi, shuning uchun ham nou-xau bo'yicha shartnomada berilayotgan ma'lumotlar sir saqlanishi va bu shart buzilgan taqdirda ko'riladigan zararni qoplash haqida alohida band bo'ladi. Muayyan ishlab chiqarish jarayonidagi nou-xau u yoki bu firmaning mulki hisoblanadi va shu sababli oldi-sotdi qilinadi. Odatda, nou-xau tovar sifatida patentlar va litsenziyalar bilan birgalikda sotiladi, lekin nou-xau mustaqil sotilishi ham mumkin. Nou-xauni litsenziya bilan birga sotib olish (narxi arzon bo'ladi) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni, ishlab chiqarish sirlarini to'laroq qo'lga kiritishni, ishlab chiqarishni ishga tushirishda sotuvchi firma mutaxassislari ishtirokini osonlashtiradi.[2]

Bu termin tilimizga yaqin yillar ichida kirib kelgan bo'lib, keng jamoatchilikka hali unchalik ommalashgan deya olmaymiz. Jamoatchilikning ma'lum bir qatlamiga tushunarli bo'lsa, ma'lum biriga unchalik tushunarli emas. Bu termini yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagicha ta'rif beramiz.

**"Nou-xau – ma'lum bir soha va mana shu soha vakili yoki vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy tomondan himoyalangan sir."**

Keyingi terminimiz **nomenklatura** bo'lib, quyida matn va izoh keltirib o'tilgan.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi **nomenklaturasiga** kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlar, shuningdek, Vazirlikka ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajriba, yuqori darajadagi ishchanlik va ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta‘minlash;” [1]

**Nomenklatura. 1) Ishlab chiqarish, fan, texnika, san‘at va sh.k. ning biror sohasida qo‘llanadigan nomlar, atamalar, terminlar va shu nomlar bilan ataluvchi narsalar ro‘yxati yoki majmui. Geografik nomenklatura. Kimyo nomenklaturasi. Botanik nomenklatura;**

2) Sanoat va biror xo‘jalik tarmog‘i ishlab chiqaradigan mahsulotlarning tasniflangan ro‘yxati. Zavodda ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi. Mana shu mollarni ishlab chiqarish nomenklaturasini va hajmini yaqin muddat ichida tiklash kerak. «Gazetadan»;

3) Biron-bir yuqori (rahbariy) organ tomonidan tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar va ularning ro‘yxati. Abdullayev o‘z og‘aynisini nomenklaturada saqlab qolish uchun kurashmoqda. «Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli». [5. 58]

3. “... innovatsion texnologiyalar, **biznes-inkubatorlar, startup-akseleratorlarni** ishlab chiqish va tijoratlashtirish bo‘yicha zamonaviy ilmiy-texnologik komplekslarni yetakchi jahon ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish quvvatlarini jalb qilish orqali yaratadi, shuningdek, IT-infratuzilmasini rivojlantirishga ko‘maklashadi;” [1]

**3.1. Biznes inkubator** — kichik va o‘rta biznesni yuritish malakalari berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashgan muassasa. Biznes inkubator, asosan, xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga dastlabki faoliyatida bozor iqtisodiyoti bo‘yicha zarur bilimlarni o‘rgatish, biznes reja tuzish, mablag‘lar topish, xalqaro grantlar olishda ko‘maklashish, tadbirkorlik g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish va joriy etish, shuningdek kichik va o‘rta korxonalariga menejment va marketing xizmatlari, tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy yo‘sindagi xizmatlar ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Biznes inkubator tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish va mahalliy ishbiarmonlarni, shu jumladan yoshlar, ayollar va aholining boshqa guruhlarini xalq xo‘jaligiga jalb etishni kuchaytirish muammolarini yechishga xizmat ko‘rsatadi. Biznes inkubator faoliyat turiga ko‘ra korxonalar inkubatorlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari, innovatsiya va menejment markazlariga bo‘linadi. Dastlabki Biznes-inkubatorlar XX asrning 70 - 80 yillarida AQSH da paydo bo‘ldi. Keyinchalik jahondagi boshqa mamlakatlarda ham keng tarqala boshladi. Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha 2000 dan ortiq yirik Biznes-inkubatorlar ish olib boradi. O‘zbekistonda birinchi Biznes-inkubator 1995 yilda BMTning YUNIDO tashkiloti va O‘zR Davlat mulk qo‘mitasining hamkorliqdagi “O‘zbekistonda biznes inkubatorlar tarmog‘ini shakllantirish va rivojlantirish” loyihasi asosida tashkil etildi. Respublikada jami 25 Biznes inkubator mavjud bo‘lib, ular yirik shaharlar va viloyat markazlarida faoliyat ko‘rsatmoqda, bir yilda 5 mingdan ziyod kishi o‘qitilgan (2001). [3]

**3.2. Akselerator** — biznesi boshqa kompaniyalarga (akselerator rezidentlariga) yordam berishdan iborat bo‘lgan kompaniya. Akseleratorlar rezidentlarga jamoaga biznes-modelni “charxlash”da, zarur kontaktlarga ega bo‘lishda va savdoni oshirishda yordam beradigan dasturni taklif qiladi. Dastur uch oydan yarim yilgacha davom etadi. Odatda, akseleratorning kovorkingi bo‘lib, rezident kompaniyalar akseleratsiya chog‘ida o‘sha yerda bo‘ladi.[4]

**3.3. Startup-akselerator** esa, bizningcha, yangi biznes g‘oyalarini mavjud bo‘lgan kompaniyalarni qo‘llab quvvatlovchi, ularni amalga oshirishga yordam beruvchi kompaniyalar olib boradigan harakat. [4]

4. “...aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishda, shu jumladan “**yagona darcha**” prinsipini joriy etish orqali davlat xizmatlari ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish hamda ulardan erkin foydalanishni ta‘minlash va O‘zbekiston Respublikasining “**Elektron hukumat** to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; [2. 2]

**4.1. Elektron hukumat** — Barcha ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo‘lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta‘minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov



berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo'g'inlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. „Elektron hukumat“ tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSh va Angliya, hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug'ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi:- hukumat- aholi (G2C);- hukumat — biznes (G2B);- hukumat — hukumat (G2G). O'zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahon tajribasiga mavjud amaliyotga ko'ra, u ikki o'zaro bog'langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidan va tashqi infratuzilmadan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlarda foydalaniladi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o'zaro ishlashini ta'minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi. [5]

Shu o'rinda biz **elektron raqamli imzoga** ham izoh berib o'tildi.

**4.2. Elektron raqamli imzo** — Elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo. (qonun) Qonunda talab etilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda elektron raqamli imzo qog'oz hujjatga shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga egadir. Elektron ma'lumotlarni kriptografik o'zgartirish natijasida hosil qilingan belgilar ketma-ketligi. Elektron raqamli imzo ma'lumotlar blokiga qo'shib qo'yiladi va blokni qabul qiluvchiga, manbani va ma'lumotlarning butunligini tekshirish hamda soxtalashtirishdan muhofazalanish imkonini beradi. Hozirgi kunga kelib, ayrim mamlakatlar qonunchilik yo'li bilan raqamli imzodan foydalanishni layoqatligini qonunlashtirib qo'yanlar. Elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlari ro'yxatga olish markazlari tomonidan beriladi. [6]

5. „...O'zbekiston Respublikasi hududida **elektron pullarning** chiqarilishi va muamalada bo'lishi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida...“ [2. 2]

**5.1. Elektron pul** - internetdan foydalanuvchilarning ko'pchiligi allaqachon virtual pul bilan faol ishlamoqda va elektron tizimlar mutaxassislari xizmat ko'rsatishda raqobatchilarga erishish uchun qo'lidan kelgancha harakat qilishmoqda. Elektron pul - bu bir necha ma'noda ishlatiladigan atama:

1. Milliy va xususiy valyutalarni saqlash va uzatish tizimlari.
2. Elektron medialarda saqlanadigan javobgar shaxsning pul majburiyatlari.
3. To'lov vositasi.

Elektron pullar banklarga o'rnatiladi, ular pul mablag'larini haqiqiy valyutada naqd pulga chiqarishga yordam beradi. Buning ikki yo'li bor: 1. Uyali telefon orqali; 2. Internet-banking orqali.

Eliktron pullar naqd pulsiz hisob kitobni amalga oshiruvchi vosita bo'lib, ulardagi o'tkazmalar uyali telefon yoki interknit-banking orqali amalga oshiriladi. [7]

Eliktron pullar eliktron hamyonlarda saqlanadi. Eliktron hamyon nima? Bunga izoh berib o'tamiz.

**5.2. Elektron hamyon** — bu elektron pul saqlanadigan joy. Elektron pul birligining biz biladigan puldan farqi shundaki, u qog'oz pul emas va u elektron hamyonda saqlanadi.

Elektron hamyonlar internetda joylashgan ma'lum bir moliya instituti tomonidan boshqariladi. Albatta, barcha bunday tashkilotlar litsenziyalangan va korxonalar sifatida ro'yxatga olingan bo'ladi, shuning uchun ular ishonchlilik nuqtai nazaridan an'anaviy banklarga tenglashtiriladi, ba'zilar esa ulardan ancha ustun turadi. [8]

6. „... Ayriboshlash operatsiyasi – bir eliktron pullar **emitent** (bundan buyon matnda emitent deb yuritiladi) tomonidan chiqarilgan elektron pullarni boshqa emitent tomonidan chiqarilgan elektron pullarga almashtirish operatsiyasi...“ [2, 3]

**Emitent-** qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqarish huquqiga ega bo'lgan davlat bank yoki idora. [9]

Neologizmlarning ikkinchi **Yangilik bo'yog'ini o'zida saqlagan neologizmlar qatorini tashkil etuvchi terminlarni** ketma ketlikda izohlab o'tamiz.

Dastlabki terminimiz vazirlik nomi tarkibidagi **innovatsion** so'zi hisoblanadi.

1. "... O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi **Innovatsion** rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son Farmonini ijro etish yuzasidan..." [1]

Innovatsion so'zining izohli lug'atlarda ta'rifi keltirilmaganligi uchun innovatsiya so'zi bilan bog'lagan holda innovatsiya so'zining ta'rifini keltirib o'tdik.

**Innovatsiya** (ing . innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

Shunday qilib innovatsion so'zi ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar ma'nosini anglatadi degan xulosaga kelish mumkin. [4. 219]

2. Vazirlik O'zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning **intellektual** va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi; [1]

**2.1. Intellektual** [lot. intellectus - aql-idrok, bilish; tushunish] 1) ot Ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi (shaxs). [4. 216]

Shu o'rinda intellektual mulk tushunchasiga ham ta'rif berib o'tamiz.

**2.2. Intellektual mulk** - ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik obykti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va i.ch. sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamallari va b. aqliy mulk obyektlariga kiradi. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi, 1993 yildan sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo'shildi. [10]

3. "...makroiqtisodiy, soliq-budjet, pul-kredit parametrlari, shuningdek, **integratsiya** jarayonlarining ta'sirini baholash bilan o'zaro bog'liqlikda iqtisodiyot tarmoqlarini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish ssenariylarini shakllantirishga ko'maklashadi;" [1]

**Integratsiya** (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

4. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun chet el **investitsiyalari** va grantlarini jalb qilish maqsadida xorijiy davlatlar, xalqaro va chet el tashkilotlari, ilmiy jamg'armalar vakillari bilan muzokaralar olib boradi; [1]

**Investitsiya** — (nemischa „Investition“, lotincha „Investio“) so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan. Investitsiya — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boylklardir. Ko'pchilik iqtisodiyotni tushunmaydiganlar

investitsiyani qarz deb tushunadi. Davlat qarzi hisoblab chiqilganda investitsiyalar hisobga olinmaydi.[4. 218]

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo‘lsak, neologizmlar nisbiy tushuncha hisoblanadi. Til taraqqiyotining har bir bosqichi o‘z neologizimiga ega. Bir davrda neologizm hisoblangan so‘zlar ma‘lum bir vaqt o‘tib neologizmlik xususiyatini yo‘qotadi. Biz ushbu maqolada hozirgi kunda nafaqat qarorlar tili, balki bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda uchrovchi terminlarni tahlil qilib o‘tdik. Ushbu tahlil qilingan nou-xau, nomenklatura, elikron hukumat, eliktron raqamli imzo, eliktron hamyon va boshqa bir qancha terminlar hayotimizga kirib kelganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, ayrimlari hali ham o‘zida yangilik bo‘yog‘ini saqlab turibdi. Ayrimlari esa jamiyatda ommalashib neologizmlik xususiyatini yo‘qotmoqda. Masalan, “**Elektron hamyon**” termini dastlab ko‘pchilik tushinishi qiyin bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib “elektron hamyon”dan ko‘pchilik foydalanadi va bu so‘z endilikda yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmoqda. Maqolada so‘zlarning mana shunday xususiyatlarini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adaabiy tili. 2006.
2. Халқ сўзи № 4 . 2020-йил 7 январь.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 1 жилд - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 жилд - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 3 жилд - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 4 жилд - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилд - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
8. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: педагогика инситутлари филология факултети студентлари учун дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
9. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили: ўзбек филологияси бакалаври ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро, 1999.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000.


### Internit manbalari

1. [https://lex.uz/docs/3431440\[PQ-3416-son 30.11.2017.‘O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida\]](https://lex.uz/docs/3431440[PQ-3416-son 30.11.2017.‘O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida])
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nou-xau#cite\\_note-1](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nou-xau#cite_note-1)
3. [https://yandex.ru/turbo/s/uz.wikipedia.org/wiki/Biznes\\_inkubator](https://yandex.ru/turbo/s/uz.wikipedia.org/wiki/Biznes_inkubator)
4. <https://www.texnoman.uz/post/startapakselrator-nima.html>
5. [https://www.texnoman.uz/post/Elektron\\_hukumat](https://www.texnoman.uz/post/Elektron_hukumat)
6. [https://www.texnoman.uz/post/Elektron\\_raqamli\\_imzo](https://www.texnoman.uz/post/Elektron_raqamli_imzo)
7. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/elektron\\_pullar\\_chiqarish\\_foydalanish\\_qoplash](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/elektron_pullar_chiqarish_foydalanish_qoplash)
8. <https://uzinterbiz.com/yangi-boshlayotganlar-uchun/nimadan-boshlash-kerak/elektron-hamyon-webmoney-qanday-ochiladi/.html>
9. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/elektron\\_pullar\\_chiqarish\\_foydalanish\\_qoplash](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/elektron_pullar_chiqarish_foydalanish_qoplash)
10. [https://yandex.ru/turbo/s/uz.wikipedia.org/wiki/Intellektual\\_mulk](https://yandex.ru/turbo/s/uz.wikipedia.org/wiki/Intellektual_mulk)

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Sharipova Sunbula Ahad qizi

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDA ABDURAHMON JOMIY SIYMOSI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-10>

## ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy shaxsiyati, insoniy fazilatlari, pirlilik maqomi va ijodiy faoliyatiga doir munosabati “Xamsa” dostonlarining kirish qismlaridagi bag‘ishlov boblar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, bag‘ishlov boblardagi ruhiy tasvirlar, keltirilgan tashbehlar, Abdurahmon Jomiy fazilatlari ta’rifi har bir dostonning g‘oyaviy mazmuniga mos ravishda o‘rin olganligiga urgu berilgan. Bag‘ishlov boblardagi mulohazalar o‘z tabiatiga ko‘ra juda umumiy va falsafiy xususiyat kasb etganligi uchun undagi ayrim tasvirlar va ta’riflar Alisher Navoiyning “Xamsat ut-mutahayyirin” asaridagi fikrlar bilan asoslangan va xulosalangan.

**Kalit so‘zlar.** Xamsachilik, muqaddima bob, ta’tabbu, pir, “as’habi kahf”, fano, baqo, tariqat, xirqa, rohrav.

## ANNOTATION

The article analyzes the personality, human qualities, status and creative activity of Alisher Navoi's teacher Abdurahmon Jami on the basis of the introductory chapters of the epics of "Khamsa". It is also emphasized that the spiritual images in the dedication chapters, the metaphors quoted, and the description of the qualities of Abdurahman Jami are in accordance with the ideological content of each epic. Since the comments in the chapters are very general and philosophical in nature, some of the images and descriptions in them are based on and summarized in Alisher Navoi's “Khamsat ut-mutahayyirin”.

**Key words.** The tradition of khamsa, introduction chapter, ta’tabbu, pir, “as’habi kahf”, fano, baqo, sict, xirqa, ringleader.

## АННОТАЦИЯ

В статье анализируются личность, человеческие качества, статус и творческая деятельность учителя Алишера Навои Абдурахмона Джамии на основе вступительных глав эпоса «Хамса». Также подчеркивается, что духовные образы в главах посвящения, цитируемые метафоры и описание качеств Абдурахмана Джамии соответствуют идеологическому содержанию каждого эпоса. Поскольку комментарии в главах носят очень общий и философский характер, некоторые изображения и описания в них основаны на «Хамсат ут-мутахаййирин» Алишера Навои и обобщены.

**Ключевые слова.** Традиция хамса, вводная глава, та'таббу, пир, «асъхаби кахф», фано, бако, сикта, хирка, главарь.

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining har birida xamsanavis salaflari Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy hamda ustoz Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab maxsus boblar ajratadi, ularga munosib izdosh bo‘lishga intiladi. Agarda “ul ikisi” (Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy) botinan rad etmasa, “bu biri (Abdurahmon Jomiy) zohir ila madad” qilib, fотиha bersa, ular “gom solg‘on” yo‘lda o‘zi ham bir necha qadam qo‘ymoq istagida ekanligini aytadi. “Hayrat ul-abror” dostoni muqaddimasida Navoiy sharqona kamtarlik va tavoze bilan bu uch buyuk xamsanavislarni sarv, gul va lolaga, o‘zini esa oddiy o‘tinga tashbeh etagan.

Ma‘lumki, adabiyot tarixida Nizomiy Ganjaviyga ergashib qanchadan-qancha xamsalar yaratildi, lekin badiiy asar uchun oliy hakam - vaqt va kitobxon ularni asta-sekin unutdi. Sanoqli asarlarga asrlar osha insoniyatning ma‘naviy qadriyati darajasiga ko‘tarila oldilar. Faqat sanoqli ijodkorlarga bu zalvorli maqomni saqlab qoldilar. Alisher Navoiy ularning davomchisi, o‘zining ta‘biri bilan aytganda to‘rtinchisi (“robiuhum kalbihum”) bo‘lishga intiladi. Bu xususda Hazrat “Xamsat ut-mutahayyirin”da shunday deydi: “Ul vaqtkim, faqir “Xamsa”g‘a tatabbu’ qildim, bir dostonda Hazrati Shayx Nizomiy va Amir Xusrav Dehlaviy va ul Hazrat (Abdurahmon Jomiy) maddohliqlaridakim, o‘zumni ixlos va niyozmandliq yuzidin alarg‘a tobe’ va payrav tutub, suhanguzorliq voqe’ bo‘lub erdikim:

Kahfi fano ichra alar bo‘lsa gum,

Men ham o‘lay “Robiuhum kalbihum”.

Mazkur baytlar “Hayrat ul-abror” muqaddimasi(XIII bob)dan olingan bo‘lib, unda “Qur‘oni Karim”ning “Kahf” surasida keluvchi qissalardan biriga ishora etiladi. Bunda foniylik g‘orida ular (Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy) yo‘qolgudek (fano jomini sipqorib, Haq vujudidan baqo topgudek) bo‘lsalar, Navoiy ularning to‘rtinchilari - itlari bo‘lish istagini bildiradi. Bu o‘rinda ijodkor o‘zini “kahf kishilari” (xamsanavislar)dan biri atashga haddi sig‘masdan kamtarlik bilan ularning ortidan ergashgan itga tashbeh etadi. Yana bir jihati it “kahf”ga kirganlarning so‘ngisi. Bu qiyos bir bashoratdek yangraydi. Zero, Alisher Navoiy bizgacha dunyo tan olgan xamsanavislarning oxirgisidir.

Bu uch buyuk najib shaxslar ichida Hazrat Jomiy Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bevosita ta‘sir o‘tkazgan va Navoiy xassos muhabbat bilan sevgan kishi edi. Adaboyotshunos E. Ochilov bu xususda shunday fikrlarni bildiradi: “Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun tariqatda – pir, adabiyotda – ustoz, hayotda – ustoz maqomidagi ulug‘ inson edi. “Xamsa”ning barcha dostonlarida u o‘z ustoziga maxsus bob bag‘ishlaydi. “Nasoyim ul muhabbat” va “Majolis un-nafois” asarlarida alohida o‘rin ajratadi. Bundan tashqari o‘zining turkiy va forsiy g‘azallarida, “Tuhfat ul-afkor” qasidasi, “Arba’in”da ham Jomiy haqida fikr mulohazalar bildiradi, uni ta‘rif va tavsif etadi.

“Xamsa” dostonlarining har biri muqaddimasida Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy shaxsiyatining turli qirralarini dostonlarning g‘oyaviy mazmuniga muvofiq ravishda ochib beradi. Besh dostonda hammasi bo‘lib 228 bayt (456 misra) Abdurahmon Jomiy sifatleri va asarlari madhiga bag‘ishlangan.

Abdurahmon Jomiy ta‘rifi “Hayrat ul-abror” muqaddimasida 65 baytni tashkil etadi. Navoiy ustozini “qutbi tariqat”, “koshifi asrori haqiqat” deya yuksak sharafda ulug‘laydi. Go‘yo jahon osmon gumbazi ostida yashiringandek, u(Jomiy) o‘z hujrasida o‘ltiradi. U jahon emas, balki Olami kubro, Olloh taolo qudratidan nishonadir. Uning xirqa o‘rniga to‘n kiyishining sababi tanni riyo to‘nidan xalos etganligidandir:

Xirqa aning jismida qapton bo‘lub,

Qaptoni tan jismi aning jon bo‘lub.

Xirqa bila topmag‘ani ixtisos,

Tanni riyo to‘nidin etmak xalos.

Tasavvufda Navoiy fikrlarida davom etar ekan, ustozining nazmi butun jahonni, nasri esa jon o‘lkasini egallab olganligini, u shoh-u gadoga birdik ma‘qul bo‘lsada, o‘zi hammadan ko‘proq unga ehtiyojmand ekanligini aytadi va ustoz nimaiki asar yozmasin, birinchi o‘zi ko‘rishidan, mutolaa etish baxtiga musharraf bo‘lishidan cheksiz faxr tuyadi:

Nomag‘akim roqim etib xomasin,

Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.

Xuddi shuningdek “Tuhfat ul-ahror”ni ham birinchi bo‘lib Navoiy mutolaa qilish baxtiga musharraf bo‘lgan edi. Uning nazdida Jomiyning “Tuhfa”si “Mahzan ul-asror” va “Matla’ ul-anvor”ga qaraganda hajman kichikroq bo‘lsada, naf’i-yu foydasining cheki yo‘q. Avvalgi ikki dostonida bor gapni “Tuhfa”dan topsa bo‘ladi, ammo bundagi tuhfar u ikkisida topilmaydi :

Boshdin ayoq gavhari shahvor edi,  
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror” edi.  
Naf’ topib kimki bo‘lub mustafid,  
Muxtsar ul ikkidin, ammo mufid.  
Ul ikkini topsa bo‘lur munda-o‘q,  
Munda tuhaf ko‘pki, ul ikkida yo‘q.

Abdurahmon Jomiy Navoiy nazdidagi komil insonlardan biridir. Shubha yo‘qki, Sharq shoirlari kabi Navoiy uchun ham komillar komili bu - payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomdir. U zotning maqomi boshqa biror inson yeta olmaydigan yuksak maqomdir. Ammo kamolotning Haqdan jazba muyassar bo‘lsa, inson o‘z sa’y-harakati bilan erishadigan – valiylar va orif insonlar maqomi ham borki, Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiy ana shunday ulug‘ rutbali zotlardan deb biladi. U naqshbandiya sulukining munosib davomchisi sifatida Navoiyning shu yo‘ldagi piri hamdir. Haq yo‘liga kirgan solik pirsiz murodga erisha olmaydi. Shayx Fariddin Attorning quyidagi baytlari pir – Abdurahmon Jomiyning Navoiy hayotidagi o‘rni qay darajada yuksak ekanligiga ishoradir:

Pir kerak yo‘llarda, yolg‘iz yurmagil,  
Ko‘r bo‘lib daryog‘a o‘zni o‘rmag‘il.

“Farhod va Shirin” muqaddimasi (VII bob, jami 34 bayt)da shoir ustozining ana shunday jihatlarini ko‘proq tilga olgan. Uni Jomdan yetishib chiqqan Zinda Fili Ahmadi Jom (XI-XII asrlarda yashab o‘tgan mashhur mutasavvuf shayx va shoir. “Chohor pari” asari unga nisbat beriladi) laqabli mashhur mutasavvuf fors shoiriga qiyoslaydi:

Muhabbat jomi durdashomi uldur,  
Hamono Zindapili Jomi uldur.  
Ko‘rib sarmasti jomi vahdat oni,  
Demishlar Zindapili hazrat oni.

Bu hol “Xamsat ut-mutahayyirin”da ham uchraydi. Asar holot tarzida bitilganligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jomiy hazratlariga bag‘ishlanganligi bilan “Xamsa” dostonlari muqaddimasida Abdurahmon Jomiyga nisbatan berilgan ayrim ta’riflarni sharhlashda va mazmunini chuqurroq anglashda nihoyatda qo‘l keladi. Asarning muqaddimasida Abdurahmon Jomiyning nasabi (imom Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz Shayboniy) ko‘rsatilib, “...o‘z otalari va ulug‘ otalari zuhd-u taqvo bila mashhur va qazou fatvo bila doim mashg‘ul ermishlar va Jom viloyatida sokin va shayx ul-islom Ahmadi Jom vatanida mutavattin va alarning bu qit‘asi bu ma’nig‘a dalildir”, - deya uning quyidagi forsiy baytlari keltiriladi:

Mavlidam Jomu rashhai qalamam,  
Jur‘ai jomi shayx ul-islomist.  
Lojaram dar jaridai ash‘or,  
Ba du ma’ni taxallusam Jomiyst.

(Tug‘ilgan joyim Jom va qalamim tomchisi shayx ul-islom (Ahmadi Jomiy) jomidan bir qatradir. Binobarin, she‘rlar daftarida har ikki ma’noda taxallusim Jomiydir. Ikki ma’noda deyilganda shoir, birinchidan, Ahmadi Jomiy ta’limotidan oziqlanganligiga va ikkinchidan, o‘zi ham Ahmadi Jomiy ham Jom viloyatida tavallud topganligiga ishora etmoqda).

Buyuk shoir ustoz Abdurahmon Jomiyda siyosida fano timsolini ko‘radi. Fano tasavvuf falsafasining g‘oyaviy asoslarini tashkil etuvchi teran va murakkab tushuncha. Foni bo‘lish bandaning Yaratgan tomon sayrining nihoyasi, qisqacha qilib aytganda, fano o‘zni o‘zlikdan xalos etmoqdir. “O‘zlik esa mosivalloh, g‘ayr naqshi yoki kasrat: Haqdan o‘zga narsalarning ko‘ngilni tiyra va xira etuvchi son-sanoqsiz suratlari bo‘lib, ularni ko‘ngildan o‘chirishning eng yaxshi chorasi ishq yoki ishq timsoli bo‘lgan maydir... Fanoga yetgan rohrav fanoda baqo topadi”. Ya’ni dashti fanoga kirmoq uchun o‘zni o‘zlikdan ozod etish lozim. Chunki bu yo‘lda o‘zlik kishi uchun band (kishan) kabidir:

Ey qaydi zamona birla xursand,  
 Bo'lg'on senga o'z lukung og'ir band.  
 O'z lukdin o'zungni ayla ozod,  
 To dashti fanog'a kirgasen shod.

Navoiy ustozini ana shunday yuksak maqomda ta'riflaydi. Ya'ni, foniylilik uning vujudini shu qadar yo'qotganki, natijada yo'q narsa o'rnida bor narsa paydo bo'lgan. Aytib o'tish joizki, ba'zi tadqiqotchilar fanoni bir necha bosqichga ajratib tavsiflaydilar: xulqdagigano, qalbdagigano va sirdagigano kabi. Shulardan har birining alal-oqibati komillikdir.

Yana Jomiy cheksiz bir jahonga, uning kamoloti esa o'zidek ulug' yana bir olamga o'xshatiladi:

O'zin xud bir jahoni begaron bil,  
 Kamolotin o'zidek bir jahon bil.

“Xamsat ul-mutahayyirin” muqaddimasida shunday parcha bor: “ Alarning kamoloti ovozasin eshitib, yiroq yo'llar qat' qilib muborak suhbatlarig'a musharraf bo'lurg'a kelganlar alarni as'hob orasida g'oyati betaayunliqdin mutlaqo tanimaslar edikim, o'lturur qo'parda va aytmoq-u eshitmoq va yemoq-u kiymoqda o'zlari bila soyir mulozimlari orasida tofovut yo'q edi”. Ya'ni: Jomiy kamoloti ovozasini eshitib uzoq yo'llardan uning muborak suhbatiga musharraf bo'lish ilinjida kelgan kishilar uni ashob orasida tanimaganlar, chunki u kishining yeyish-u kiyishlari, yemoq-u aytmoqlarida mulozimlarinikidan farq qilmagan ekan. Bu kabi hodisotlar haqida xalq orasida ham turli hikoyatlar yuradi. Emishki, uzoq yurtlardan Hazrat ziyoratiga kelgan ixlosmand bir kishi Jomiy hovlisida yurgan odmi bir mulozimdan hazrat haqida so'ragan ekanlar. Ziyoratchi kishi hech xayol qilmabdiki, ana shu odami, faqir kishi Hazrat Jomiyning o'zlari ekanlar.

O'z navbatida Abdurahmon Jomiy ham Navoiyni har jihatdan qo'llab-quvatlagan, ruhiy madad berib kelgan. “Saddi Iskandariy” (LXXXIX bobi)da shoir o'zida ishonchsizlik, ruhida toliqish sezganda ich-ichidan quyidagicha nido kelganligini aytadi:

Ki: “Ey g'arqai bahri ajzu niyoz,  
 Bo'la olmag'an dardinga chorasoz!  
 Yetishg'il qo'pub bir dargohig'a,  
 Tavajjuh qilib joni ogohig'a.  
 Aning botinidin tila yorliq,  
 Biyik himmatidin madadkorliq.  
 Ki har quldur o'lgay nopadid,  
 Anga bor eranlar duosi kalid”.

Navoiy shundan so'ng yonib ustozigano qoshigano borganligi va eshigi oldigano yetgani hamono ichkaridan pirning “Niyoz ahli kersun!”, deya qilgan xitobi eshitilganini aytadi. Murshidining o'z holidan ogohligi Navoiyni hayratgano soladi. Bob davomida shogirdi botinidan ogoh pir unga qaytadan umid, ruhan madad beradi. Uni dengizda salafardek “dilovar nahang”, quruqlikda esa “mard sher” kabi bo'lishgano undaydi. Shundan so'ng Navoiy uning huzuridan mamnun qaytganligini bayon etgan.

Alisher Navoiy “Layli va Majnun”ning VI muqaddima bobi(40 bayt)ini ham ustozigano madhigano bag'ishlaydi. Bob sarlavhasining o'zidayoq Jomiyning valiylik xislatigano ishora etiladi: “Valoyat sipehrining axtari jahontobi va hidoyat ma'danining gavhari serobi va nazm avjining mehri falak ehtishomi va maoniy jomining rindi sofiy oshomi...” Mazkur bobda Jomiyning valiylik sifatlari madh etiladi, tasbehigano tizilgan yuzta donalar yuz dona fayz qushlarini ovlasa, hassasining tobi (bukulgan qismi) jahonni tortmoq uchun ilmoq, uch qismi g'azabgano minsa dev va shaytonlarni ko'r qiluvchi nayza, kovushining izi muridlar yig'iladigan joy, yuvinadigan idish(novak)igano esa falak dengizigano qiyoslanadi.

Sochib laqabi olam aro nur,  
 Zoti bila nuran a'lodir nur.

Bunda uning laqabi ham jahonga nur taratadi, nomi bilan nuran a'lo nurdir, deya shoir “Nuriddin” ismigano ishora etib, so'z o'yini yaratadi. Shundan so'ng birin-ketin ustozigano asarlari (“Xamsa”, “Silsila”, “Tuhfa”, “Subha”, “Ahsanul qisas”, “Devon”)ning ta'rifini keltira boshlaydi. Asarlar ta'rifi (“Arbain”, “Ruboiyot”, “Lavome”, “Lavoyih” “Ashi'atul-lamaot”, “Shavohid”,

“Nafohat”, “Silsila”, “Oshiqu ma’shuq”, “Qasoyid” kabilar) shu yo’sinda to’rtinchi doston “Sab’ai sayyor” muqaddimasi(VII bob, 45 bayt)da davon ettirilgan. Bu jihat besh dostonidagi Abdurahmon Jomiyga bag’ishlangan boblar alohida ajratib o’qilganda ham bir-birini mantiqan to’ldiruvchi alohida bag’ishlovga o’xshab ketishiga, shuning bilan birgalikda “Xamsa”ning mukammal tuzilishiga ishoradir. Bu dostonida Jomiy “fazl koni”, “ilm daryosi”, “bahru kon sirrining shinososi” deya ulug’lanadi. Uning kamolotiga ham, martabasiga ham nihoyat yo’q:

Ne kamolot aro nihoyat anga,

Ne marotibda haddu g’oyat anga.

“Saddi Iskandariy” dostonida muqaddimasi (VII bob, 44 bayt)da

G’azali dard-u so’zini, vah-vah ne dey,

Desa masnaviy, Alloh-Alloh, ne dey!

- deya masnaviyilarini barchanikidan afzal ekanligini, bu kun haqiqiy komil inson Jomiy bo’lib, undan oldin bu kabi inson o’tgan-o’tmaganligi noma’lumligi aytiladi.

Xullas, Alisher Navoiy hayoti va shaxsiyatining shakllanishida piri va ustoz Abdurahmon Jomiyning o’rni, tarbiyasi va madadi alohida o’rin tutadi. Abdurahmon Jomiy shaxsiyati Navoiyning komil inson g’oyalari mohiyatini ochish va tushunishda ham ahamiyatli. Navoiy nazdida bu buyuk murshid tasavvuf olamida Hazrat Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori Valiy kabi najib kishilar qatorida turuvchi shaxsdir. Navoiy “Xamsa”sini yaratishda Abdurahmon Jomiydan juda katta ruhiy madad oladi. Zero, komil pir shogirdi ruhiyati, botiniy olamidan doimo ogoh bo’lishi lozim. Besh dostonidagi Jomiy madhiga bag’ishlangan boblar va undagi ta’rif-u tahsinlar alohida ajratib o’qilganda ham bir-birining mantiqiy davomi, yaxlid asardek mutolaa etiladi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy shaxsiyatining turli qirralari bag’ishlov boblarda tegishli doston mohiyatiga mos tashbehlarida keltirilishi asar qurilishining mukammalligini namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
4. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
6. Alisher Navoiy. Xamsat ut-mutaxayyirin. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
7. Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. –Тошкент: Маънавият, 2005.
8. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. 2 китоб. -Тошкент: Фан, 2011.
9. Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009.
10. Исҳоқов Ҳ. Ўн бир Жомий.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1968-йил, 1-сон . – Б 45-49.
11. Фарруҳбек Олим. “Ҳамсат ул мутаҳаййирин”да Жомий сиймоси.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2010 йил, 2-сон, 53-бет.



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Бозорова Умида Нурхоновна,**  
Бухоро шаҳридаги 9-мактаб  
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси  
**Саидов Ёқуб Сиддиқович,**  
Филология фанлари доктори, профессор,  
Бухоро давлат университети

## ЖАДИД ШЕЪРИЯТИДАГИ ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ЛЕКСИКАНИНГ МАВЗУИЙ ТАСНИФИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-11>

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада жадид шеъриятидаги туркий лексиканинг мавзуий таснифи баён қилинган. Хусусан, Жадид адабиёти намояндалари шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг муҳим улушини ҳаракат-ҳолат, хусусият-белги, нарса-буюм ва қариндошлик тушунчаларини ифодаловчи лексемалар умумий ҳулосаларда берилган. Қадимги туркий сўзлар туркий тилларнинг ўз материали бўлиб, бу сўзлар туркий тиллар оиласига мансуб бўлган барча тилларда маълум миқдорда учрайди. Бу ҳол туркий тиллар лексикасида бу тиллар учун қадимдан муштарак бўлган умумий лексик фондни юзага келтирган. Мақолада қадимги туркий тил (VII - X) ва илк эски туркий тил (XI - XII)га оид луғавий бирликларни 14 та мавзуий гуруҳлар бўйича таснифлаб кўрсатилган.

**Таянч сўзлар:** жадид шеърияти, қадимги туркий тил, илк эски туркий тил, лексика, луғавий бирликлар, “Чиғатой гурунги”.

**Бозорова Умида Нурхоновна,**  
Школа № 9, г. Бухара, преподаватель  
**Саидов Ёқуб Сиддиқович,**  
Доктор филологических наук, профессор, БухГУ

## ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ДРЕВНЕЙ ТУРЕЦКОЙ СЛОВА В ДЖАДИДСКОЙ ПОЭЗИИ

### АННОТАЦИЯ

В статье описана тематическая классификация турецкой лексики в поэзии джадидов. В частности, в общих выводах даются лексемы, составляющие важную часть древнетюркской лексики в поэзии представителей джадидской литературы, представляющие понятия действие-состояние, признак-знак, объект-объект и родство. Древнетюркские слова являются собственным материалом тюркских языков, и эти слова в той или иной степени встречаются во всех языках, принадлежащих к тюркской языковой семье. Это создало общий лексический фонд в лексике тюркских языков, который издавна был общим для этих языков. В статье

лексические единицы древнетюркского языка (VII - X) и первого древнетюркского языка (XI - XII) классифицируются на 14 тематических групп.

**Ключевые слова:** поэзия джадидов, древнетюркский язык, первый древнетюркский язык, лексика, «Чигатай гурунги».

**Bazarova Umida Nurkhanovna,**  
School No. 9, Bukhara city, Teacher  
**Saidov Yokub Siddikovich,**  
Doctor of Philological Sciences,  
Professor, Bukhara State University

## THEMATICAL CLASSIFICATION OF ANCIENT TURKISH VOCABULARY IN JADID POETRY

### ANNOTATION

The article describes the thematic classification of Turkic vocabulary in Jadid poetry. In particular, in the general conclusions, lexemes are given that constitute an important part of the ancient Turkic vocabulary in the poetry of representatives of the Jadid literature, representing the concepts of action-state, sign, object and relationship. Ancient Turkic words are the own material of the Turkic languages, and these words to one degree or another are found in all languages belonging to the Turkic language family. This created a common lexical fund in the vocabulary of the Turkic languages, which has long been common for these languages. In the article, the lexical units of the ancient Turkic language (VII - X) and the first ancient Turkic language (XI - XII) are classified into 14 thematic groups.

**Key words:** Jadid poetry, ancient Turkic language, the first old Turkic language, lexicon, “Chigatay gurungi”.

Кўпчилик тадқиқотчиларнинг эътироф этишича, Ўрта Осиё, Қозоғистон, Олтой, Жанубий Сибир, Уралолди худудлари аҳолиси бронза даврининг 3-2 минг йиллигидан бошлаб туркий тилда сўзлашган. Бу тилга хос умумий лексик, фонетик ва грамматик белги-хусусиятлар ҳозирги туркий тилларнинг ҳар бирида у ёки бу миқдорда сақланиб қолган. Ғ.Абдурахмоновнинг таъкидлашича, туркий халқларнинг илдизлари милоддан олдин Марказий Осиёда истиқомат қилган маҳаллий туб қабила ва уруғлар — қарлуқлар, ўғузлар, кипчоқларга бориб тақалади. Ҳар бир туркий халқ ва унинг тилининг шаклланишида бу уруғларнинг бири асос бўлган [3]. Қадимги туркий сўзлар туркий тилларнинг ўз материали, ўз она мулкидир. Бу сўзлар туркий тиллар оиласига мансуб бўлган барча тилларда маълум миқдорда учрайди. Бу ҳол туркий тиллар лексикасида бу тиллар учун қадимдан муштарак бўлган умумий лексик фондни юзага келтирган.

Туркий, чунончи, ўзбек тили энг қадимги тиллардан бири бўлиб, унинг тарихи олтой давридан бошланади.[10] Олтой назариясига рус шарқшунос олими В.Радлов асос солган бўлиб, унинг назариясига кўра олтой тилларида сўз бошида ва охирида келган ундошлар фақат жарангсиз бўлади. Туркий тиллар тарихидаги кейинги давр хун даври бўлиб, у мелоддан аввалги учинчи асрдан мелоднинг тўртинчи асригача бўлган даврни ўз ичига олади. VI-X асрлардаги туркий тил эса қадимги туркий тил номи билан аталади [2;4;12]. VI асрда шаклланган қадимги туркий тил Марказий Осиё, Шимолий Мўғилистон, Олтой, Хуросон, Кавказ, Шарқий Европа, Россиянинг жанубий қисми, Сибирга тарқалган бутун туркий уруғлар учун ягона умумий эди. [3,24] Мазкур даврга оид жуда кўпшаб туркий-руний (Ўрхун-Энасой) ва туркий-уйғур (VI-X асрлардаги) битиклар мавжуд.[11] Уларнинг айрим тил хусусиятлари туркологияда муайян даражада ўрганилган ва улар бўйича луғатлар нашр этилган.[8] Қадимги туркий тил лексикаси тушунчаси остида Ўрхун-Энасой ва қисман қадимги уйғур ёзма ёдгорликлари (яъни, VII-XIII аср обидалари) лексикасида мавжуд бўлган, кейинги даврларда эса маълум сабабларга кўра ўзбек адабий тили лексикаси таркибидан истеъмолдан чиққан, эскирган сўзларни тушуниш мақсадга мувофиқдир.

Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётининг истеъдодли вакиллари Абдурауф Фитрат, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдулҳамид Чўлпон, Абдулла Авлоний, Исҳоқхон Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Муҳаммадшариф Сўфизода, Сиддиқий Хондайлиқий, Абдулҳамид Мажидий, Каримбек Камий, Элбек (Машриқ Юнус), Боту кабилар жаҳид адабиётини бунёд этдилар ва уни юксак даражага олиб чиқдилар. Улар минг йил давомида амалда бўлган анъанавий йўсиндаги адабиёт ўрнига янги, замонавий адабиётни яратдилар, янги адабий тур ва жанрлар (драма, ҳикоя, роман, адабий танқид, публицистика)ни ўзбек адабиётига олиб кирдилар, анъанавий адабий шакл ҳисобланган аруз вази билан бирга бармоқ вазида ҳам ижод этдилар. Бу билан улар ўзбек адабиётида бармоқ вазининг кенг оммалашишига ва шеърятда асосий адабий шакл бўлиб қолишига замин ҳозирладилар. Алоҳида таъкидлаш ўринлики, жаҳидлар ўзбек тилининг ижтимоий-сиёсий нуфузи ва кадр-қимматини тиклаш йўлида мислсиз хизматларни адо этдилар. Уларнинг ўзбек тилини беғубор ва соф тарзда келажак авлодга етказишдаги саъй-ҳаракатлари алоҳида эътиборга моликдир.

Жаҳид адабиёти намояндалари шеърят тилида истеъмолда бўлган сўз бойлигининг асосий қисмини ўз қатламга хос лексик бирликлар ташкил этади. Бу қатлам таркибида муайян миқдорда қадимги туркий тил (VII - X) ва илк эски туркий тил (XI - XII)га оид луғавий бирликлар ҳам мавжуд. Уларни қуйидаги мавзуй гуруҳлар бўйича таснифлаш мумкин:

**1. Озиқ-овқат, ичимлик ва шулар билан боғлиқ тушунчаларнинг номи:** озиқ (озиқ-овқат маъносида), туз (таом маъносида), сув, эт (гўшт), чоғир (май, шароб), ун, бол (асал), ошлиқ (овқат маъносида), қаймоқ, сарёғ (сариеғ), қавурмоч (овқат тури, қадимги туркий тилда қўғурмач шаклида мавжуд) [6,452], қимиз ва ҳ.к.

**2. Қон-қариндошлик атамалари:** она, қиз, ота, келин, эр, хотин (қадимги туркий тилда хатун//қатун сўзи, асосан, хоним маъносида; машҳур ва обрўли кишиларнинг хотинларига нисбатан қўлланилган) [6,436], қардош, орқадош, бобо (қадимги туркий тилда баба тарзида ифодаланган ва у ота маъносида қўлланилган)[6, 76] , ўғил, сингил, қариндош, тоға, йўлдош, опа, қайнота, ака, ука ва ҳ.к.

**3. Инсон танаси аъзоларининг номи:** кўз, оёғ (оёқ), юрак, юз, курсоқ (ошқозон, қорин), қўл, тирноғ (тирноқ), кўкрак, тиш, бош, бўйин, кўкс (кўкс, кўкрак), оғиз, бармоқ, соч, бағр//кўкс, кулоқ, илик//қўл, бел, қорин, қад//бўй, кифриг (киприк), қуйин//қучоғ (қучоқ), яноғ (ёноқ; юзнинг бўртиқ қисми), томоқ//тамоғ, манглай ва ҳ.к.

**4. Ўсимлик ва у билан боғлиқ тушунчаларнинг номи:** чечак (гул), терак, оғоч (дарахт), япроғ (япроқ), момик (пахта), ўсма, олма, буғдой, ўрик, ўт, тикан, кўкнор, сомон, янтоқ, томир (илдиз), тариг (тариқ), бутоқ (ён шох) ва ҳ.к.

**5. Нарса-буюм ва маиший турмуш жиҳозларининг номлари – маиший лексика:** қопчуғ (ҳамён, қопчик), ип, ўчоқ, чироқ, қин (қин, ғилоф), қамчин // қамчи, этак, таёқ, бешик, кетмон, пичоқ, тўр, эшик, ўроқ, элак, кўзгу, тароқ, карпич (ғишт), ўртук // ўртик (парда), игна, тоғора, эгов, қозон, тавоғ (товоқ), елпиғич, тўқум, эшкак, қошиқ, болта (қадимги туркий тилда балду шаклида учрайди) [6,80] ва бошқ.

**6. Зоологик терминлар:** қоплон, бойқуш, қуш, тулки, қуйруқ (дум; думба), балиқ, от, қўнғиз, капалак, ит, кийик, арслон, тева (туя), товуқ, бўри, қалдирғоч, зоғ, чаён, эшак // эшшак, илон // йилон, каклик, чумоли, ўргамчи (ўргимчак), сигир, қучук, чибун // чибин, қарчиғай, улов (миниб юриладиган ҳайвон), қузғун (ўлимтиқхўр қуш), қарға, сичқон ва бошқ.

**7. Табиат ва иқлим билан боғлиқ сўзлар:** ёғмур // ёмғур (ёмғир), ел (шамол), булут, муз, ой, қуёш // кун, юлдуз, кўк (осмон), яшин, чакмоқ, борлиғ (қоинот, олам), ёгин, учқун, қиров (шабнам), ёлқин (қамалак) ва ҳ.к.

**8. Мавҳум тушунчани ифодаловчи лексик бирликлар:** уғурли (бахтли), ўгут (насихат), осиг (фойда, манфаат), қут (қут, бахт, давлат), сезгу (сезги), уйқу, уят, севги, қўнғил, севинч, қувонч, қўрқинч, билик (илм, билим) ва ҳ.к.

**9. Диний тушунчаларнинг номи:** тамуғ (дўзах, жаҳаннам), учмоғ (жаннат), ёзуғ (гуноҳ, айб), тангри (мўғулий // туркий), сўрғучи (сўровчи Оллоҳ) ва ҳ.к.

**10. Осмон жисмлари ва географияга оид номлар:** ой, қуёш // кун, юлдуз, борлик (коинот), тоғ, тенгиз (денгиз), ер, юрт, очун (дунё, олам), сой, қир, қўл, булок, ўрмон, чўкки, қирғоқ, қўк (осмон) ва ҳ.к.

**11. Вақт, замон, ва фасл тушунчасини ифодаловчи сўзлар:** тун, кун, тонг, кеча, букун (бугун), эрта (эрталаб; барвақт), кеч, чоғ (чоғ, вақт), илк (илк, аввал), илгари, қиш, қўк // кўклам (баҳор), тонг ва ҳ.к.

**12. Ҳарбий соҳага оид терминлар:** қилич, қалқон, қўшун (қўшин), ўқ, ёй (ёй, камон), ўрду (қароргоҳ; қўшин, аскар) ва ҳ.к.

**13. Мансаб, унвон ва касб-кор тушунчаларини ифодаловчи номлар:** хон, хоқон, қапуғчи (эшик оғаси; эшик, дарвоза соқчиларининг бошлиғи), бек (бек, амалдор), бошлиқ (бошлиқ, раҳбар), қушчи (қуш боқувчи, қушларга қаровчи, овчи), соқчи, тевачи // тавачи (туячи) ва ҳ.к.

**14. Хусусият ва белги ифодаловчи сўзлар:** ёлғуз (ёлғиз), ариғ (соф, тоза), буюк, улуғ усрук (маст, сархуш), қилиқ (табиат, хулқ, характер), мунгли, ёвуз, ўнғай (қулай), қизил, қора, қўк, сариғ (сарик), бузук, эски, оғир, эгри, оч, оғир, совуқ, иссиғ (иссиқ) ва ҳ.к.

Жадид шеърятини тилида қадимги туркий лексик бирликлардан яна кийим-кечак ва уларнинг қисмларининг номи (тўн, этик, энг, ёқа каби); ёш хусусиятини англатувчи сўзлар (қиз, эркак, қари // қария, чол каби); уруғ, халқ номларини билдирувчи этнонимлар (турк, уйғур каби); миқдорни билдирувчи бирликлар (бир, уч, тўрт, беш, юз, минг // бинг каби); ўрин-жой тушунчаларини ифодаловчи сўзлар (қишлоқ, пучмоқ (бурчак), тегра (атроф), уй, ўрин каби); ижтимоий-сиёсий атамалар (туткун // тутку (асир), қул, ўқсуз (етим, фақир, камбағал), йўқсил // йўқсул каби); шахс тушунчасини англатувчи сўзлар (мен // ман // бан, сен // сан, ул, киши кабилар) ҳам қўлланилган. Таъкидлаш ўринлики, мазкур мавзуий гуруҳлардаги қадимги туркий тилга оид луғавий бирликлар миқдоран озчиликни ташкил этади.

Жадид лирик асарлари тилида истифода этилган қадимги туркий сўзларни ҳозирги ўзбек адабий тили лексикаси нуқтаи назаридан баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур сўзларнинг аксарияти ҳозирги ўзбек адабий тилида кенг қўлланишда бўлса, айримлари истеъмолдан чиқиб эскирган. Шу маънода уларни икки гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўлланишда давом этаётган қадимги туркий сўзлар. Қилич, қамчи, ўқ, темир, тупроқ, қизил, олма, она, ота, ака, тоға, от, бош, кема, ер, яшин, қор, кум, қоплон, қарға, қумғон, сув, қўз, қулоқ, оғиз, оёқ, қорин, томоқ, тикан, япроқ, буғдой, арпа, тарик, пичоқ, тароқ, қин, қопчиқ, болта, балиқ, қоплон, чаён, товук, чивин, илон, эшак, туя, чумчуқ, бойқуш, қуёш, ой, юлдуз, булут, денгиз, тоғ, қишлоқ, юрт, овчи ва бошқалар шундай сўзлар жумласига киради. Уларнинг маъно-мазмуни ҳозирги китобхон учун тушунарлидир.

2. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўлланмайдиган қадимги туркий сўзлар. Бундай изоҳталаб, эскирган, истеъмолдан чиққан сўзлар сирасига қопуғ (эшик, дарвоза), озиқ (озиқ-овқат маъносида), туз (таом, егулик маъносида), чоғир (май, шароб, бода), оғоч (дарахт), оғу (заҳар), уғур (бахт, кут), уғурли (бахтли, кутли, давлатли), осиг (фойда, манфаат, баҳра), тамуғ (дўзах, жаҳаннам), учмоҳ (жаннат), ёзуғ (гуноҳ, айб), қапуғчи (эшик оғаси; эшик, дарвоза соқчиларининг бошлиғи), асру (жуда қўп, бениҳоя, ғоят, талай), ариғ (соф, тоза, покиза, мусаффо), билик (илм, ақл, маърифат, билим), ўқсуз (етим), пучмоқ (бурчак, кунж, гўша) (**Фитрат**); камуқ (барча, ҳамма, жами), ёғлиғ (рўмол, рўмолча), аёқ (қадах, коса, пиёла), оғоч (дарахт), ёзуғ (гуноҳ, айб), қўноқ (меҳмон), тўнақ (қамоқхона, зиндон), ошлиқ (буғдой, егулик) (**Чўлпон**); илик (қўл), оғоч (дарахт), қарпич (ғишт), ўртук (парда, тўсиқ), ошлиқ (овқат; буғдой), учмоҳ (жаннат), очун (дунё, олам), дақи (яна, тағин) (**Элбек**); усрук (маст, сархуш), илик (қўл) (**Ибрат**); чоғир (май, шароб, бода), эв (уй), қапу (эшик, дарвоза) (**Ажзий**); эв (уй), ёзуқ (гуноҳ, айб), ўқсиз (етим; камбағал) (**Сўфизода**); илик (қўл) (**Камий**); билик (илм, билим), томуғ (дўзах) (**Хондайлиқий**); оғоч (дарахт), ўртук (парда), битик (китоб), мунг (қайғу), ёзуғ (гуноҳ, айб), тамуғ (дўзах), очун (дунё, олам), мунг (қайғу, алам), тегра (атроф), тутқин (асир, банди), йўқсил (камбағал; бечора), егу (таом, овқат), дағи (яна,

тагин) (**Боту**) кабиларни айтиб ўтиш мумкин[7]. Уларнинг миқдорий нисбати турлича. Чунончи, Фитрат, Чўлпон, Элбек, Боту шеърляти тилида жуда кўп миқдорда, Ибрат, Ажзий, Сўфизода, Камий шеърлари тилида бармоқ билан санарли миқдорда мавжуд. Абдулҳамид Мажидий, Сидқий Хондайликий асарлари тилида эса деярли қўлланилмаган.

Ўзбек адабий тили лексикани янгилаш, софлаштиришни асосий мақсад қилиб белгилаган «Чигатой гурунги» аъзолари, чунончи, Фитрат, Чўлпон, Элбек ва Ботулар унут булган қадимги туркий сўзларни қайта истеъмолга киритиш ҳаракатида бўлишган. Ўзбек адабий тили луғат таркибини, асосан, тилининг ўз ички манбалари ва имкониятлари асосида бойитишни назарда тутган «Чигатой гурунги»чилар қадимги туркий лексикага алоҳида диққат-эътибор билан ёндашган. Шу боис уларнинг шеърляти тилида бундай сўзларнинг салмоғи катта. «Чигатой гурунги» аъзолари мазкур сўзларни ўз асарлари тилида қўллаш жараёнида, асосан, икки манбага таянишган. Биринчи манба эски ўзбек адабий тили, хусусан, Алишер Навоий асарлари тилининг луғавий хазинаси бўлса, иккинчи манба ўзбек халқ шеваларининг лексик бойлигидир. Таъкидлаш ўринлики, «Чигатой гурунги» аъзолари шеърляти тилидаги қадимги туркий сўзларнинг барчаси Алишер Навоий асарлари тилида мавжуд. Шоир асарлари бўйича тузилган луғатлар ва яратилган илмий тадқиқотлар асосида олиб борган кузатишларимиз бу фикрни тасдиқлайди[5]. Куйидаги айрим мисоллар билан буни асослашга ҳаракат қиламиз:

Алишер Навоий асарлари тилида	«Чигатой гурунги» аъзолари асарлари тилида	Сўзнинг маъноси
тамуғ//тамук//томуғ	томуғ//тамук	дўзах, жаҳаннам
аёқ//аёғ	аёқ//аёғ	коса, пиёла
асиғ//осиғ	осиғ	фойда, манфаат
йиғоч//оғоч	оғоч	дарахт
битикчи	битикчи	хат ёзувчи, котиб
усрук//асрук	усрук	маст, сархуш
очун	очун	дунё, олам
билик	билик	илм, ақл, маърифат
ясол	ясол	саф, қатор
учмах//учмоқ//учмоҳ	учмоқ//учмоҳ	жаннат
ўксук//ўксуз	ўксук//ўксуз	етим, камбағал, бечора
ёзуқ//ёзуғ	ёзуқ//ёзуғ	гуноҳ, айб
пучмағ//пучмоғ	пучмоғ	бурчак, кунж

Юқорида айтиб ўтилганидек, «Чигатой гурунги»чилар учун иккинчи асосий луғавий фонд (бойлик) ўзбек халқ шевалари ҳисобланган. Улар томонидан қўлланган карпич (ғишт), қапуғ (эшик, дарвоза), ариғ (соф, тоза), асиғ (фойда, манфаат), ёзиғ (гуноҳ, айб), оғоч (дарахт), кўноқ (меҳмон) каби қадимги туркий сўзлар ҳозирда ҳам ўзбек тилининг айрим шеваларида кенг истифода этилади.[1] Буни қуйидаги қиёсий тавсифда қайд этилган айрим намуналардан ҳам англаш мумкин:

Қадимги туркий ёдномалар тилида	Ўзбек халқ шеваларида	«Чигатой гурунги» аъзолари асарлари тилида	Ҳозирги ўзбек тилидаги маъноси
қылығ//қылық	қилиғ//қилиқ	қилиғ//қилиқ	инсоннинг табиати, характери
конуқ	қўноқ	қўноқ	меҳмон
сағ	сағ	сағ	ўнг томон
қапуқ//қапуғ	қапу//қапи	қапу//қапи	эшик, дарвоза
дақы	даҳи	даҳи	яна, тагин

памук	момик	МОМИҚ	пахта
йағи	йағи//ёғи	йағи//ёғи	душман
татығ	татығ	ТАТИҒ	таъм, маза

Ўзбек адабий тилини, чунончи, унинг лексик таркибини битмас-туганмас хазина — халқ шеваларидаги сўзлар асосида бойитиш фикрини илгари сурган «Чигатой гурунги»чилар ўша давр адабий тилида учрамайдиган, лекин шеваларда мавжуд бўлган қадимги туркий сўзларни ўз асарлари тилида амалий жиҳатдан қўллашга уринишди.

Жадид адабиёти намояндалари шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг муҳим улушини ҳаракат-ҳолат, хусусият-белги, нарса-буюм ва қариндошлик тушунчаларини ифодаловчи лексемалар ташкил этади. Диний-афсонавий тасаввурлар ва мансаб-мартабаларни ифодаловчи луғавий бирликлар миқдори нисбатан оз. Шунингдек, жадид шеърияти тилидаги қадимги туркий сўзларнинг аксарияти аниқ маъно ифодаляйдиган лексемалардир.


### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан, 1964; Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан, 1991.
2. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973
3. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. -Т.: 1999.
4. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати: Тўрт томлик. -Тошкент: Фан, Т. I. 1983, -656 б.; Т. II. 1983, -643 б.; Т. III. 1984, -623 б.; Т. IV. 1985, -636 б.
6. Древнетюркский словарь. -Ленинград: Наука, 1969.
7. Кошғарий М. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). Т. I-II-III. -Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –529 б.; Т. II. 1961. -488 б.; Т. III. 1963. -468 б.
8. Насилов Д.М. Язык тюркских памятников уйгурского письма XI-XV вв. –М.: Наука, 1974.
9. Majidovna NS, Saidakhmedovna UD. Expression of war events and people through mythological images. // ACADEMICIA: International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 10, Issue 8, August 2020. Impact Factor: SJIF 2020=7.13. – P. 461 – 465.
10. Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982. –Б.3.
11. Sanaqulov U. O`zbek adabiy tilining ilk davrlari (o`quv qo`llanma). –Т.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. –Б. 107.
12. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Yusupova Dilzoda Saminjonovna  
mustaqil izlanuvchi

## O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORINING O‘RGANILISHI VA TASNIFI MASALALARI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-12>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek marosim folklorining o‘rganilishiga hamda tasnif masalalariga e‘tibor qaratdik. Shu bilan birgalikda folklorshunos olimlarning, jumladan, M.Alaviya, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev singari olimlarning ushbu mavzuga dahldor bo‘lgan qarashlarini, keltirib o‘tilgan daliliy fikrlarini o‘rganib, mavzu yuzasidan xulosaviy fikrlarimizni bayon etdik. Maqolada mavsum marosim, oilaviy marosim hamda so‘z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori haqida fikr yuritilgan. Ilviy maqolalarda keltirilgan marosim qo‘shiqalaridan ham namunalar keltirib o‘tilgan. Ushbu maqoladagi ma‘lumotlar, kelgusida, ushbu sohada izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun zarur manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** mavsum marosim, oilaviy marosim, so‘z magiyasiga asoslangan marosim

Юсупова Дилзода Саминжонова  
Самостоятельный соискатель

## ИЗУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ОБРЯДОВОГО УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье мы сосредоточимся на изучении и классификации узбекского обрядового фольклора. В то же время мы изучили взгляды фольклористов, в том числе М. Алавия, Б. Саримсаков, М. Джораев, по этому поводу, и высказали свои выводы по этому поводу. В статье рассматривается фольклор сезонных обрядов, семейных обрядов и ритуалов, основанных на словесной магии. В статьях также приводятся примеры обрядовых песен. Информация в этой статье послужит полезным ресурсом для будущих исследователей в этой области.

**Ключевые слова:** сезонная церемония, семейная церемония, церемония словесной магии

Yusupova Dilzoda Saminjonovna  
Independent researcher

## ISSUES OF STUDY AND CLASSIFICATION OF UZBEK CEREMONY FOLKLORE

### ANNOTATION

In this article, we focus on the study and classification of Uzbek ceremonial folklore. At the same time, we studied the views of folklorists, including M. Alaviya, B. Sarimsakov, M.

Jorayev, on the subject, and expressed our conclusions on the subject. The article discusses the folklore of seasonal ceremonies, family ceremonies, and rituals based on word magic. Examples of ceremonial songs are also cited in the articles. The information in this article will serve as a useful resource for future researchers in this field.

**Keywords:** season ceremony, family ceremony, word magic ceremony

Marosim folklori paydo bo'lishi jihatdan xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, yashovchanligi jihatdan eng barqaror ko'rinishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham marosim folklorida muayyan xalqning turmush tarzi, etnik tarixi, urf-odatlar, qisqasi, uning o'tmishi butun o'zligi bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek marosim folklori materiallari ham o'zining barqaror hamda an'anaviy xarakteri bilan ajralib turadi. Bu sohada mavjud materiallar mavsumiy va oilaviy- maishiy marosimlar folklori janrlarini o'z ichiga oladi. [1,3-bet]

Ushbu mavzuni o'rganishda M.Alaviyaning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" (1974) monografiyasi alohida o'rin tutadi. Muallif marosim qo'shiqlarini boy etnigrafik material-xalqimizning kechirgan turmushi, urf-odatlar, rasm-rusumlari, udum va irimlari bilan bog'liq holda tekshirdi. Olima xalq qo'shiqlarining tarixiy ildizi va asosiy xususiyatlarini o'rganish orqali uni birinchi marta tasnif qildi va to'y marosimi qo'shiqlarini alohida maxsus tadqiq etdi. Bu o'rinda shuni ham qayd qilish kerakki, yaqin yillarga qadar marosim folklori haqidagi tekshirishlar bir tomonlama bo'lib, ular asosan qo'shiq doirasida o'rganib kelinar edi. Bunday chalkashliklarga B.Sarimsoqov tadqiqodlari barham berdi. Uning "O'zbek marosim folklori" (1986) monografiyasida mavsumiy marosimlar va so'z magiyasi bilan bog'liq folklor asarlari atroflicha tahlil etildi, folklor janrlarining ijtimoiy-maishiy hayotning muayyan sohasi bilan izchil xoslanganligi va funkcionalligi borasida e'tiborli mulohazalar ilgari surildi. [2,36-37-betlar] O'zbek folklorshunosligida bu ikki turkum marosimlar folklori folklorshunos olim B.Sarimsoqovning izlanishlarigacha mutloqo tatqiq etilmagan.

B.Sarimsoqov marosim folklori xaqidagi izlanishlarini amalga oshirishga qaror qilgan bir paytda xattoki bu mavzuda sistemali materialning o'zi yo'qligini ta'kidlab o'tadi. "O'zbek marosim folklori" kitobida mavsum va marosim folklori materiallari asosan XIX asrning oxiri va XX asrning 80-yillariga qadar bo'lgan taraqqiyot davriga oidligi aytiladi. Bundan qadimgi davrlardagi marosim folkloriga xos materiallar bu darvgacha yetib kelmaganligi ham ta'kidlanadi. Shunga qaramay marosim tarkibida saqlanib qolgan arxaik detallarga asoslanib, marosimda ijro etiladigan folklor materiallarining nisbatan qadimiyroq asoslari haqida ham fikr-mulohazalar bildirilgan.

O'zbek marosim folklori namunalarining o'rganilishi va shu mavzuga dahldor bo'lgan bir qator ilmiy asarlar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqishga harakat qildik. Folklorshunos olim M.Jo'rayevning o'zbek folklorshunosligi, qolaversa o'zbek marosim folklorining o'rganilishidagi mehnatlari beqiyosdir. Olimning "Oy oldida bir yulduz" o'zbek xalq marosim qo'shiqlari xaqidagi majmuasi (ushbu majmuada o'zbek xalq marosim qo'shiqlaridan namunalar, ayrim marosimlarning tarifi haqida fikr yuritiladi), "O'zbek mavsum marosimi folklori", "Kelin tushdi" marosimi kabi ilmiy asarlari, "Choymomo" marosimi nomli ilmiy maqolalari marosim folklorining o'rganilishida katta manba bo'lib xizmat qilmoqda. Birgina "Choymomo" nomli ilmiy maqolasi misolida qaraydigan bo'lsak, unda mavsum marosim turkumiga mansub bo'lgan "Choymomo" marosimi hamda unda ijro etilgan qo'shiqlar haqida fikr yuritiladi. Maqolada ushbu marosimning yaratilish tarixiga, marosimda ijro etiladigan qo'shiqlar matniga, marosim o'tkaziladigan hududlarga hamda ijro etuvchi shaxslar faoliyatiga alohida to'xtalib o'tiladi. Shu bilan birga obrazlarning tarixiy ildizlariga ham e'tibor qaratiladi.

Filologiya fanlari doktori, professor J.Eshonqulovning ham o'zbek folklorshunosligining rivojlanishidagi mehnatlari cheksizdir. Olimning bir qator ilmiy asarlari, ilmiy maqolalari o'zbek folklorshunosligi sohasida xizmat qilayotgan yosh tadqiqotchilarga, oliygohlarning filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga beqiyos manba bo'lib xizmat qilmoqda. J.Eshonqulovning "Mif va badiiy tafakkur" ilmiy maqolalar va suhbatlar jamlanmasi kitobida keltirilgan "O'zbek xalq qo'shiqlarining tasnifi masalalari", "Epos va marosim", "Xalqning o'ziday qadim va ulug' ayyom"



kabi ilmiy maqolalari, “Folklor millatning boqiy tarixi”, “Davlatga yetib mehnat elin unutma” kabi suhbatlar matni o‘zbek marosim folklorining o‘rganilishida juda ham zarur va kerakli ma’lumotlarni olishimizda bizga tayanch vazifasini o‘tab kelmoqda.

“Epos va marosim” nomli ilmiy maqolada professor J.Eshonqulov- “Marosim epik formulalarning transtformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi”-deb ta’kidlaydi. Yana ushbu maqolada “Alpomish” dostoni “xalqimizning ko‘hna marosimlar, urf-odatlar, irim-sirimlari, tabularining qomusi”[3,53-bet] deb atash mumkinligi haqida ham fikr yuritiladi.Ushbu maqolada “Alpomish” dostonida keltirilgan marosimlar va ularning tahliliga ham to‘xtalib o‘tiladi.Jumladan, tug‘ilish bilan, ism qo‘yish bilan, bosh va bosh kiyim bilan, “beshikkerti” qilish bilan bog‘liq qarashlar keltirilib o‘tilgan. Professor J.Eshonqulov “Qiz yashirish”, “Soch siypatar” “Kampir o‘ldi” kabi marosimlar bilan bog‘liq qarashlarni ham daliliy tahlillar bilan yoritib beradi. “Kampir o‘ldi” marosimining tahlili jarayonida nikoh hamma vaqt o‘lim va tug‘ilish orasidagi muhim bir vosita, hayot-o‘lim-hayot davomiylik ssiklining boshlanishi hisoblanganligini ta’kidlaydi.

Marosim folklori namunalarining asosiy qismini oilaviy –maishiy marosimlarlar folklori tashkil etadi. O‘zbek xalqi qadimdan marosimlarga boy xalq hisoblangani, ayniqsa oilaviy marosimlarga alohida e’tibor qaratishi tarixdan ma’lum. Bunga misol qilib ko‘plab tarixiy manbalarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu mavzu yuzasidan ko‘plab ilmiy adabiyotlarga murojaat qilishimiz davomida M.Murodovaning “Ilm sarchashmalari” nomli jurnalda chop etilgan “Lug‘ati chig‘atoyi va turki Usmoniy”-to‘y marosim qo‘shiqlarini o‘rganishning muhim manbai sifatida- deb nomlangan maqolasiga e’tibor qaratdik. Ushbu maqolada ko‘pchilik kitobxonlar uchun yngilik bo‘lgan ma’lumotlar berilganligiga guvoh bo‘ldik.

Turkiy xalqlar madaniyati va badiiy tafakkurining o‘ziga xos qatlami hisoblangan marosim qo‘shiqlarining tarixiy ildizlari, shakllanish jarayoni va har bir davrdagi taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq etishga asos bo‘ladigan manbalardan biri qo‘lyozmalardir. Chunki qo‘lyozma holida bizning kunlarga yetib kelgan yozma manbalarda turkiy xalqlarning o‘ziga xos marosim va urf-odatlar, rasm-rusumlari, folklori va etnografiyasiga doir nodir materiallar saqlanib kelmoqda. Ana shunday manbalardan biri shayx Sulaymon ibn Qudratulloh Buxoriyning 1882 yilda yaratilgan “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” asaridir. O‘zbek tilshunosligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mazkur lug‘at I.Kinos, H.Hasanov, X.Rustamova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bu manbada keltirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari folklotistik nuqtai-nazardan o‘rganilgan emas[4,49-bet]. Ushbu maqola keltirilishicha, lug‘atda ayrim so‘zlarning ma’nosini izohlash maqsadida ko‘plab shoir va allomalarning ijod namunalari bilan bir qatorda , qo‘shiq, rivoyat, maqol, metal, topishmoq, doston, avrash-afsun, va boshqa janrlarga oid folklor materiallaridan ham samarali foydalangan. Lug‘atda keltirilgan ayrim qo‘shiqlarning variantlarini bugungi kunda ijro etib kelinayotgan og‘zaki ijod namunalari ham uchratishimiz mumkin.Masalan:

Qo‘y kelodur ko‘zi bilan,  
Bir birining izi bilan.  
Mening yorim o‘ynab chiqar.  
Hamsoyaning qizi bilan. (50-bet)

Qo‘y kelodur ko‘zi bilan, hay yor-yor, yor,  
Bir-birining izi bilan, hay yor-yor, yor.  
Mening yorim o‘ynab chiqar, hay yor-yor, yor.  
Hamsoyaning qizi bilan hay yor-yor, yor. [10,69-bet]

“Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” da to‘y marosim folklorining bir qator janrlari haqida ma’lumotlar mavjud. Masalan, “chanka” so‘zi” kelinni kutib olinayotganda raqsga tushib aytiladigan qo‘shiq, qo‘shiqning oxirida yor-yor aytiladi deb izoh berilgan [4,51-bet].

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o‘tadigan, o‘z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo‘shiqlariga ega hayotiy qo‘shiqdir. Marosimlar kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma’naviy hayot qadryatlari sirasiga kiradi [5,124-bet].

Milliy istiqloq xalq og'zaki ijodi namunalari barcha hududlar bo'yicha izchil to'plash va bir tizimga solish borasidagi ishlarni jadallashtirib yubordi. Istiqloq yillarida xalqimizning tabiat hodisalari, osmon yoritqichlari va an'anaviy taqvim bilan bog'liq xalq qarashlari to'plandi, bolalar folklori, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosimlari bilan bog'liq namunalari yozib olindi.

Xususan, Folklorshunos olimlar tomonidan O'zbekistonning qadimiy folklor va an'anaviy ijrochiligi saqlanib qolgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona vodiysi bo'ylab ekspeditsiyalar uyushtirildi. Nomoddiy madaniy meros yodgorliklarini keng ko'lamda to'plash va xatlovga olish maqsadida 2012 yil 9-18 aprel kunlari Farg'ona vodiysida o'tgan ekspeditsiya davomida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining "o'lan", "lapar", "yor-yor", "alla", "kelin salom", "kelin o'tirsin", "terma-qo'shiq", "ashula", "bayt-g'azal", "yig'i-yo'qlov qo'shiqlari", "rivoyat", "afsona", "topishmoq", "maqol", "duo-olqish", "yo ramazon", "aytishuv", "kinna aytimlari", "zikir aytimlari", "askiya", "qiziqchilik (kulgi-hikoya)", "latifa", tabiat hodisalari bilan bog'liq xalq qarashlari, mifologik tasavvurlar, xalq kalendariga oid materiallar, ob-havo o'zgarishlariga oid ta'birlar to'plandi. Xalqimizning qadimiy dehqonchilik madaniyati bilan aloqador marosimlar zamirida shakllanib, o'zida serhosillik g'oyasi hamda tabiatning ko'klamgi uyg'onishini tarannum etuvchi "Arg'uvon guli" nomli an'anaviy bahoriy udum va "Sumbula sayli" folklori yozib olindi [6,2-3betlar].

Istiqloq tufayli marosim folklorining ilgari bosilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalari to'la chop ettirildi. Xususan, folklorshunos olimlarning tashabbusi bilan o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta Navro'z bayrami bilan bog'liq folklor asarlaridan tuzilgan "Navro'z" kitobi (1992), yilboshi bayrami va bahoriy udumlar bilan aloqador urf-odat hamda marosimlar, unda ijro etiladigan qo'shiqlar tahliliga bag'ishlangan "Navro'z qo'shiqlari" (2007), "Navro'z nashidasi" (2010) to'plamlari, xalqimizning tabiat hodisalari bilan aloqador inonch va ta'birlari jamlangan "Ob-havo darakchilari" to'plami (1996), "Ulug' oy umidlari. "Yo ramazon" qo'shiqlari" (2001), ta'ziya marosimlari folklori namunalari tarkib topgan "Bo'zlardan uchgan g'azal-ey" (2005) singari kitoblar chop etildi. Bu esa xalqimiz marosim folklorini to'la nashr etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Ko'plab adabiyotlarda, qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar tasnif masalasi haqida so'z yuritilganda biroz bahs-munozarali fikrlarga duch kelamiz. Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" asarida ham marosim folklorining tasnifi masalalariga to'talib o'tilgan. Ushbu monografiyada muallif folklor janrlarining ilmiy tasnif qilishning ikki yo'li borligini aytib o'tadi. Birinchisi-mavjud janrlarni g'oyaviy-badiiy jihatlari asosida, ularning o'zaro munosabatini nazarda tutmagan holda tasnif qilish. Bunday tasnifda mavjud janrlarning o'ziga xos tabiati, uning janrlar tarkibidagi tutgan muayyan o'rni belgilanadi. Ikkinchisi-folklor janrlarini janrlararo munosabat nuqtai nazaridan tasnif etish. Har ikkala jihatda ham o'zbek marosim folklori tasnif etilmaganini, marosim folklori janrlari ham to'la aniqlanmaganini ham ta'kidlaydi.

Ushbu asarda rus folklorshunosligining tasnifiga alohida e'tibor qaratilgan. Rus folklori marosim folklorini ikki katta turkumga –mavsum marosim folklori hamda oilaviy marosimlar folkloriga ajratilgan. Marosim folkloriga mansub barcha janrlar mana shu ikki turkum doirasida tahlil etilgan [1,24-bet.].

Bundan tashqari yana bir qator rus folklorshunoslarining marosim folklori tasnifiga doir qarashlaridan hamda fikrlarning bir-biriga mutanosib yoki nomutanosibli haqidagi fikrlarini ilgari suradi. Jumladan, 1962 yilda S.F.Baranov tomonidan yaratilgan, 1977 yilda N.I.Kravtsov bilan S.G.Lazitinlar hamkorlikda yozgan qo'llanmalarda ikkinchi turkum "oilaviy marosim poeziyasi" tarzida emas, balki "oilaviy-maishiy marosim poeziyasi" deb nomlanganligini ko'rsatib o'tadi.

Rus folklorshunoslaridan V.Ya.Propp rus marosim folklori janrlarini mavsum-marosim lirikasi hamda oilaviy marosim lirikasiga ajratadi [1,25-bet]. B.Sarimsoqov ushbu tasnifni to'g'ri tasnif deb qarashda undagi lirika atamasini noo'rin qo'llanganligini, ushbu atama o'rnida "marosim folklori" atamasi qo'llanishini to'g'ri deb baholaydi. Bizning nazarimizda ham "lirika" atamasi kengroq tushuncha bo'lib, adabiy turning biri hisoblanadi. Balki, V.Ya.Propp ushbu atamani ko'chma ma'noda qo'llagan bo'lishi, ya'ni marosim folklori janrlari ham ichki kechinmalarga, histuyg'ularga boy bo'ladi va qolaversa marosim folklori janrlari aynan insonning u qanday

bo‘lishidan qat’iy nazar kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham ana shunday nomlagan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Biroq B.Sarimsoqov aytganlaridek “lirika” atamasi aynan bir shaxsning ichki kechinmasini bildiradi. Lirik turga mansub janrlar sheri tarzda bo‘ladi. Marosim folklori janrlari esa hammasi ham she’riy tarzda bo‘lmasligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari yana rus folklorshunosligi bilan aloqador ko‘plab ma’lumotlar ushbu kitobdan joy olgan.

Shu bilan birgalikda Qoraqalpoq maposim folklori tasnifiga ham to‘xtalib o‘tilgan.Unda Q.Ayimbetovning “Qoraqalpoq folklori” nomli kitobida ham, jamoaviy mualliflar tomonidan yaratilgan Qoraqalpoq folklori tarixiga doir ocherklarda ham ko‘zga tashlanadigan [7,25-48 betlar] marosim folklori besh turga – cho‘pon qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, to‘y qo‘shiqlari, motam qo‘shiqlari va diniy tasavvurlarga asoslanhan qo‘shiqlarga ajratiladiki, bu narsa marosim folklori tabiatiga u qadar mos kelmasligini aytib o‘tadi.

B.Sarimsoqov fikrlariga ko‘ra o‘zbek folklorshunosligida boshqa xalqlar folklorshunosligida bo‘lganidek, marosim folklori izchil ilmiy tasnif qilingan emas.

B.Sarimsoqovning “O‘zbek marosim folklori” kitobida marosim folklori tasnifi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lsada, aynan o‘zbek marosim folklori o‘rganilmaganligini, shu davrgacha umuman tasnif qilinmaganligini ta’kidlaydi. Biroq 1974 yilda chop etilgan M.Alaviyaning “O‘zbek marosim qo‘shiqlari” nomli monografiyasida o‘zbek marosim folkloriga dahldor fikrlar ilgari surilganligi e‘tibordan chetda qoldirilgan. Bundan tashqari olim M.Alaviya o‘zbek qo‘shiqlarini tasnif qilishda ham o‘z xissasini qo‘shgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Folklorshunos olim M.Jo‘rayevning “O‘zbek mavsum marosim folklori” asarida ham o‘zbek marosim folklorining tasnif masalalariga dahldor fikrlar keltirilib o‘tiladi.Unda har qanday marosim, urf-odat, irim-sirimlar, inonchlar tarkibida u yoki bu darajada arxaik yoki zamonaviy diniy elementlar mavjudligini maquullab, o‘zbek marosim folklori janrlarini tasnif qilish bilan bog‘liq ilmiy qarashlar orasida professor T.Mirzayev tomonidan ilgari surilgan klassifikatsiya har jihatdan asosli ekanligi ta’kidlanadi. Prof.T.mirzayev qayd qilishicha, o‘zbek marosim folklori “mavsumiy marosimlar folklori”, “oilaviy-maishiy marosimlar folklori” va “diniy-ibodat marosimlari folklori”ga bo‘linadi[9,8-bet].

O‘zbek folklorshunosi B.Sarimsoqov o‘zining marosim folkloriga bag‘ishlangan monografiyasida mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha tasniflagan: 1) Qishki marosimlar folklori (yas-yusun va gap-gashtaklar); 2) Bahorgi marosimlar folklori (shoh moylar, qo‘shchiqarish, loy tutish, navro‘z bayrami, “Sust xotin”); 3) yozgi marosimlar folklori (“Choymomo”); 4) Kuzgi marosimlar folklori (“Oblo baraka” va shamol chaqirish).

Marosim folklorining tasnif masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni kuzatishlarimiz davomida O.Madayev, T.Sobitova muallifligida chop ettirilgan “Xalq og‘zaki poetik ijodi” (akademik litseylar uchun darslik, 2003-2010-yillardagi nashrlar) kitobiga ham nazar tashladik. “O‘zbek marosim folklori” deb nomlangan sahifada marosim folklorining tasnifi (kitobda “turlari” deb yozilgan ) haqida fikr yuritilganda, mavsum marosim haqida to‘liqroq to‘xtalib o‘tilgan.Oilaviy marosimlar haqida fikr yuritilganda to‘ylardan, aza-marakalardan va so‘zning mo‘jizali quvvatiga asoslangan odatlardan tashkil topadi deyiladi[8,151-158-betlar].Oilaviy marosimlar haqida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lsada, so‘zning mo‘jizali quvvatiga asoslangan odatlar deya ta’riflangan jumalarning qanday marosimga xosligi, ularda qanday janrlar kiritilishi haqida ma’lumot berilmagan. Masalan shamon aynimlari bilan bog‘liq kinnalar, badiklar, afsunlar, olqishlar va qarq‘ishlar marosim folklorining qaysi turiga mansubligi haqida fikr yuritilmagan. Bu esa o‘quvchida mavzu bilan bog‘liq ikkilanishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Folklorshunos olim O.Safarovning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” kitobida marosim folklorining tasnifiga va ularning tarkibiy qismlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsada, marosim folklorini tasniflashda ularni uchta katta guruhga bo‘lib ko‘rsadi.

- 1.Mavsum marosim folklori
- 2.Oilaviy-maishiy marosim folklori
- 3.So‘z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori

Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz yuzaga kelmaydi. Ular maxsus uyushtiriladi. Marosimlar etnografik mohiyat kasb etib, xalqning ijtimoiy- madaniy munosabatlarini o'zida aks ettirib turadi. Shu bilan birga, ular xalqning qadimiy animistik, totemistik, fetishistik qarashlari hamda zardushtilik va islomiy e'toqodlari izlarini o'zida saqlab qolgan. Bu xususiyat xatto tirikchilikning asosiy vositasiga aylangan mehnatga munosabatni ifodalovchi qator an'analar va ularning verbal qismini tashkil etuvchi aytim-qo'shiqlarda ham o'z ifodasini topgan. Shu xususiyatlari, qolaversa, o'tkazilish vaqti, o'rni, tarzi, tartibi, ijodkorlari, ishtirokchilari tarkibi va vazifalariga ko'ra o'zbek marosim folklori quyidagi katta guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mavsumiy marosim folklori
2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori
3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori.

**1. Mavsumiy marosim folklori.** O'zbeklar mavsumiy marosimlarga boy xalqlardandir. Bu marosimlar –yilning to'rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarsi bilan aloqador bo'lib, fasllarga qarab, to'rt turga bo'linadi:

**Bahor mavsumi bilan bog'liq marosimlar,** asosan, kishilarning mehnati faoliyatiga aloqadorlikda o'tkaziladi. Bahoriy marosimlar sirasiga “Shox moylar”, “Navro'z”, “Yomg'ir chaqirish” singarilarni kiritish mumkin.

**Yozgi mavsum bilan bog'liq marosimlar.** Folklorshunos olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra bu mavsum bilan bog'liq marosimlardan atigi bittasi saqlanib qolgan. Bu “Choy momo”-shamol to'xtatish marosimi va unga aloqador aytimdir. Bu marosim surunkali davom etgan qattiq shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan.

**Kuzgi mavsum bilan bog'liq marosimlar.** Ushbu marosim bilan bog'liq faqat ikkita, oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish (“Oblo baraka”) va shamol chaqirish “Yo, haydar” marosimlarigina saqlanib qolgan.

**Qishki mavsum bilan bog'liq marosimlar.** Bu marosimlarga “gap-gashtak” va “yas-yasun” marosimlari kiradi.

**2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori.** O'zbek folklorida oilaviy-maishiy marosimlar folklori katta o'rin tutadi. Chunki insonning asosiy umri oilada kechadi. Insonning tug'ilishi, kamolotning ma'lum bosqichi, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish esa o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu an'ana barca xalqlar orasida bor. Inson xayotiga aloqadorligiga ko'ra oilaviy-maishiy marosimlar quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. To'y marosimlari.
2. Motam marosimlari.

Oilada o'tkazilgan marosimlar oilaviy maishiy marosim hisoblanadi. Ular rang-barang bo'lib, kattagina qismi to'y marosimlarini tashkil qiladi.

**To'y marosim folklori.** To'y so'zi “to'ymoq” to'liqsiz felidan olingan bo'lib, katta ziyofatli yig'in ma'nosini anglatadi. Beshik to'yi, o'g'il (sunnat yoki xatna) to'yi, nikoh to'yi, hovli to'yi, yosh to'yi kabi nomlari bilan umumlovchi har bir to'y tadbiri inson hayotidagi eng quvonchli muhim nuqtasini qayd qilishga qaratilgan bo'ladi.

**Motam marosim folklori.** Motam marosimi katta, ommaviy, oilaviy, maishiy marosim. U o'lim yuz berganda o'tkaziladi va inson umrining oxirini qayd etadi. Shuning uchun mungli marosimdir. Undagi hamma narsa: ijro etiluvchi folklor aytishuvlari, marosim ishtirokchilari va azadorlarning kiyim-boshi motamsaroligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Xotin-qizlar orasida motam marosimida turli mavzulardagi yig'i va yoqlovlar, o'lim allalari (marhumning abadiy uyqusidagi oromini ta'kidlovchi), motam yor-yorlari (turmush qurmay, pok, beg'ubor ketgan qiz-yigitlarga nisbatan) kabi folklor namunalari keng ijro qilinishi kuzatiladi.

**3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori.** Badiiy tafakkur taraqqiyotining tadrijiy rivoji davomida yaratilgan ma'naviy qadryatlarimiz tizimida xalqimiz turmush tarzi, ruhiy dunyosi, g'oyaviy va estetik qarashlarini teran aks ettirgan so'z magiyasiga aloqador janrlar alohida o'rin tutadi.

So'z sehriga asoslanuvchi o'zbek marosim folklori janrlariga kinna, badik, afsunlar, olqishlar va qarq'ishlar kiradi. Ular qadimiy e'tiqodiy asoslarga ega bo'lib, xalq orasida keng ommalashganligi,

hududiy-etnografik lokal belgilari, voqeilikni badiiy aks ettirish usuli, ijro shakli, maishiy estetik va poetik vazifalariga ko'ra bir-biridan farqlanib turadi.

Qadimgi odamlar o'zlarini turli-tuman kasalliklar, ziyon-zaxmatlar, ofat-falokatlar, yomon, yovuz ruhlarning tazyiqidan xalos etish uchun maxsus marosimlar tashkil qilganlar va unda so'z sehridan unumli foydalanganlar. So'z magiyasiga bog'liq janrlarni ijrochilari tarkibiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Homiy ruhlar tomonidan tanlangan iqtidorli shaxslar ijro etuvchi janrlar: kinna, badik, shaman aytimlari.

2. Professional ijrochilar tomonidan tanlagan alohida qobiliyatli shaxslar ijro etuvchi janrlar: avrashlar

3. Keng ommaviy tarzda ijro etuvchi janrlar: olqishlar va qarg'ishlar

Insoniyat ongining rivojlanib borishi natijasida yaratilgan folklor namunalari aksari marosim folklorining bir bo'lagidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimizning eng qadimiy epik yodgorliklaridan biri "Alpomish" dostonida ham biz bugun murojaat qilayotgan marosim folklorining sara namunalari berilganligiga guvoh bo'ldik.

Biz o'rganayotgan mavzu, ya'ni o'zbek marosim folklori avvallari M. Alaviya, B. Sarimsoqov, M. Jo'rayev, A. Musoqulov, O. Qayumov, M. Murodova singari folklorshunos olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsada, o'zbek marosim folklorining ayrim janrlari hududiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak, hali chuqur o'rganilmagan, yoki umuman tadqiq etilmagan mavzular borligiga ham guvoh bo'lamiz. Marosim qo'shiqlari nuqtai nazaridan olib qarasa, har bir viloyatning, qolaversa har bir tumanning o'ziga xos marosim bilan bog'liq qarashlari mavjud. O'zbek xalqi marosimlarga boy xalq hisoblanadi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak har bir viloyatlarda o'tkaziladigan marosimlar mazmunan bir-biriga o'xshasada, ayrimlarining verbal qismida, o'tkaziladigan vaqtida farqli jihatlari borligi e'tiborlidir. Ana shunday farqli jihatlarni aniqlash, qiyosiy darajada taqqoslab o'rganish soha vakillarining oldida turgan muhim vazifalardan biridir.


### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sarimsoqov B. "O'zbek marosim folklori" Toshkent: 1986.28-29-bet.
2. K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, J. Safarov "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi"- T, "O'qituvchi", -1990, 36-37-bet.
3. J. Eshonqulov "Mif va badiiy tafakkur" Toshkent: 2019.60-61-bet.
4. Murodova M. "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"-to'y marosim qo'shiqlarini o'rganishning muhim manbai sifatida. (ilmiy maqola) .Ilm sarchashmalari. T.: -2014, №6 49-bet.
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi .Toshkent.: 2010.124-bet.
6. Internet materiali: "Ziyonet" saytidan olingan "Navro'z an'analari . Oilaviy marosimlar tadriji" nomli ma'ruza matni.2-3-betlar
7. Ayimbetov Q. Qoraqalpoq folklori. Nukus.1977.25-48 betlar.
8. Madayev O. Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi Toshkent. 2003-2010 yil. 151-158-betlar.
9. Jo'rayev M. O'zbek mavsum marosim folklori Toshkent.2008 yil, 8-bet
10. M. Alaviya Oq olma, qizil olma. Toshkent, 1972.69-bet.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Mamirova Dilnoza Shirinboyevna,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti,  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası, assistent-  
o'qituvchisi, mamirova@samdchti.uz

## REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-13>

### ANNOTATSIYA

O'zbekistonda reklama boy tarixiy ildizlarga ega bo'lsa-da, mustaqillikka qadar bu soha ilmiy jamoatchilikning nazaridan chetda qoldi. O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risidagi qonuni 1998-yil 28-dekabrda qabul qilindi va uning me'yoriy talablari ijtimoiy til nuqtai nazaridan ham tartibga solina boshladi. Bu sohada bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, A.A.Azlarova reklamalarning samaradorligi masalasini marketing nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, L.I.Karimova esa reklamalarning ijtimoiy psixologik va etnopsixologik jihatlarini tadqiq qilgan. K.V.Mosin shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida reklamaning ta'siri jihatlarini tadqiq qildi. Ammo bugungi kungacha o'zbek tilidagi reklamalar matni lingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilingan emas. Har qanday reklama axborot matnini tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vosita sanaladi. Demak, reklamaning birlamchi va asosiy elementi bu tildir.

**Kalit so'zlar:** peshlavha, shior, afishalar, eshituv (audial) reklamalar, ko'ruv (vizual) reklamalari, ko'ruv-eshituv (vizual-audial) reklamalar, semantik baho

**Мамирова Дильноза Ширинбоевна,**  
Самаркандский государственный институт иностранных языков,  
Кафедра узбекского языка и литературы, ассистент-  
учитель, mamirova@samdchti.uz

## ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ

### АННОТАЦИЯ

Хотя реклама в Узбекистане имеет богатые исторические корни, до обретения независимости эта область оставалась вне поля зрения научного сообщества. Закон Республики Узбекистан «О рекламе» был принят 28 декабря 1998 года, и его нормативные требования начали регулироваться с точки зрения социального языка. В этой области был проведен ряд научных исследований. В частности, А.А. Азларова изучала эффективность рекламы с точки зрения маркетинга, а Л.И. Каримова - социальные, психологические и этнопсихологические аспекты рекламы. К. В. Мосин изучал влияние рекламы на духовно-

нравственное воспитание личности. Однако на сегодняшний день текст рекламы на узбекском языке не изучен с лингвистической точки зрения. Любая реклама - это средство донести до слушателя текст информации. Итак, первичный и основной элемент рекламы - это язык.

**Ключевые слова:** предисловие, слоган, плакаты, слуховая реклама, визуальная реклама, визуальная реклама, семантическая оценка.

**Mamirova Dilnoza Shirinboyevna**

Samarkand state foreign language institute ,  
Department of Uzbek language and literature ,  
assistant-teacher, mamirova@samdchti.uz

## LANGUAGE FEATURE OF ADVERTISEMENT TEXT

### ABSTRACT

Although advertising in Uzbekistan has rich historical roots, before independence this field was left out of the scientific community. The Law of the Republic of Uzbekistan on Advertising was adopted on December 28, 1998, and its normative requirements began to be regulated in terms of social language. A number of scientific studies have been conducted in this area. In particular, AA Azlarova studied the effectiveness of advertising from a marketing point of view, and LI Karimova studied the social, psychological and ethnopsychological aspects of advertising. KV Mosin studied the impact of advertising on the spiritual and moral education of the individual. However, to date, the text of advertisements in Uzbek has not been studied from a linguistic point of view. Any advertising is a means of serving to convey the text of information to the listener. So, the primary and basic element of advertising is language.

**Key words:** preface, slogan, posters, auditory advertisements, visual advertisements, visual advertisements, semantic assessment.

Reklamalar matni ko'cha tilining boshqa turlari (peshlavha, shior, afishalar) matnlariga nisbatan o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. "Reklama - tijorat xarakteriga ega, shuning uchun uni tijorat deb ham atashadi. Shu bilan birga, reklama faoliyati reklama beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda (kompaniyaning reklama bo'limi orqali) yoki maxsus reklama agentliklari yordamida amalga oshirilishi mumkin"[1;4].

Tijorat reklamasi bu sotishni jadallashtirish, xaridor va mahsulot o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, mahsulotlarni targ'ib qilish va ularni qanday sotib olish to'g'risida ma'lumot berish uchun mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot tarqatish; xaridorning qiziqishini va berilgan mahsulotni sotib olish istagini rag'batlantirish vositasi. Savdo reklamasi - bu potentsial xaridorlarga (iste'molchilarga) ularni tovarlar va xizmatlarni sotib olish (foydalanish) bilan bog'liq harakatlar qilishga undash uchun yuboriladigan qisqa, hissiy jihatdan rangli ma'lumot deyishimiz mumkin. Albatta, bunday ma'lumotlarni tayyorlashda reklama matnlariga murojaat qilinadi. Quyida ana shunday matnlar haqida so'z yuritamiz.

Reklamalar o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: jumladan, lingvistik birliklarning qo'llanishiga ko'ra, reklamaning nima haqida axborot berayotganligiga ko'ra, tovar va xizmatlarning kategoriyasiga ko'ra, matn qaysi vosita orqali berilayotganligiga ko'ra, ta'sir doirasiga ko'ra, reklama kimlarga mo'ljallanganligiga va axborotni yetkazish usullariga ko'ra[2;188]. Reklamalarning bu turlari matn tuzilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Ma'lumki, har qanday matndan anglashilayotgan kommunikatsiya asosan til birliklari orqali ifodalanadi. Matnning o'ziga xos xususiyati undagi til birliklarining o'zaro bog'liqligi va yaxlitligidir. Semiotikada matn tushunchasi ostida kommunikatsiyaning har qanday shakli, ya'ni ma'no anglashishi tushuniladi. Matnni to'g'ri qabul qilishni ta'minlovchi vosita faqat til birliklari va ularning o'zaro birikuvi emas, uni tushunish, ya'ni kommunikativ fon ham bo'lishi kerak. Shu sababli ham matnni tushunish, qabul qilish presuppozitsiya bilan bevosita bog'liqdir. Reklamalar matnida til birliklari yetakchi hisoblanadi.

Ko'cha tili matnlari orasida reklamalar strukturasi ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda aks etuvchi yozuvlar, rasmlar, shartli belgilar, simvollar reklama matni semantikasiga bog'liq bo'ladi. Ular majmui reklama matni semantikasini tashkil qiladi. Masalan,



**HYDROLIFE**  
tabiatan musaffo  
tog suvi beg'ubor  
gazlangan 1 l.

Bu reklamada ko'm-ko'k osmon, shaffof suv tasviri ifodalanishi bilan birga, suv solingan idish va uning yorlig'i berilgan. Bu misolda manzara va rasm yozuvlar bilan birgalikda yaxlit holatda reklama matnini tashkil qiladi. Bu reklamada lingvistik birliklar bilan nolingvistik vositalar o'zaro yaxlitlikda reklama matnini tashkil qilgan. Ushbu matni tashkil

qiluvchi rasm yoki yorliq bo'lmaganda edi, alohida so'z yoki so'z birikmasi orqali berilgan kommunikativ ma'lumotlar mantiqsiz va mavhum bo'lar edi. Demak, reklamalar matnida nolingvistik vositalar til birliklari bilan birgalikda reklama matnlarini tashkil etuvchi vositalar sifatida qaralishi kerak. Reklama tili bu nafaqat adabiy qoidalarga nisbatan ommaviy aloqa qoidalariga ko'proq darajada bo'ysunadigan til va tilga oid bo'lmagan ifoda vositalarining tizimi, balki reklama murojaat etuvchisi joylashgan til muhitining sotsiologik, psixolingvistik va lingvistik madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan til tuzilishi.

Darhaqiqat, reklama matnida nafaqat lingvistik vositalar (so'z va so'z birikmalari, jumlar, gaplar), balki nolingvistik vositalar (video tasvirlar, sur'atlar, yorqin ranglar va boshqalar) ham bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun biz reklama matnini ijodiy matn deb belgilaymiz, ya'ni



lingvistik va lingvistik bo'lmagan tarkibiy qismlar semantik va funktsional jihatdan birlashib, adresatga murakkab ta'sir ko'rsatadigan matni yuzaga keltirishda yordam beradi. Reklama matnidagi bu nolingvistik vositalar ma'lum pragmatik ma'noga ega emas. Ular faqat muallif ko'zlagan maqsadga muvofiq bitta reklama matni doirasida boshqa vositalar bilan birlashgandagina ma'no kasb etadi. Ko'plab tilshunoslarning fikriga ko'ra, xususan V.I. Konkov: "Reklama matni an'anaviy matndan farq qiladi va noan'anaviydir. Matn, ya'ni an'anaviy matndan farqli o'laroq, ma'lum bir to'plam bilan tavsiflanadigan sifat jihatidan turlicha bo'lgan matn belgilarini o'z ichiga oladi"[3;102] -deb hisoblaydi.

Reklama matnlari an'anaviy matnlardan farqli ravishda quyidagicha ko'rinishlarga ega deyishimiz mumkin:

-matn bir yoki bir nechta jumladan iborat;

Katta yoki kichik harflardan birida yoziladi;

bitta jumla bitta shriftda yozilgan;

barcha satrlar to'liq to'ldirilgan (birinchi va oxirgi qatorlardan tashqari). Reklama matnlari shakllariga ko'ra xilma-xil bo'ladi: eshituv (audial), ko'ruv (vizual), ko'ruv-eshituv (vizual-audial) reklamalari [4;17].

Eshituv reklamalari -bu radio reklamasidir. Radio orqali turli mamlakatlardagi millionlab kishilar bir vaqtda eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'ladilar. Radio- inson ongiga og'zaki ta'sir qiladigan ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. Eng avvalo, radioda diktorning yoqimli ovozi, esda qolarli matn, yaxshi va yoqimli kuylar orqali sifatli reklamani tayyorlash mumkin. Radioni kun mobaynida uyda, oshxonada, korxonada, tashkilotlarda, transportda, hattoki, ko'chada sayr qilib yurganda ham eshitishadi, shuning uchun radio dasturlarida joylashtirilgan reklama e'lonlarini eshituvchilari yuqori foizni tashkil etadi. "Inson radiodagi axborotni ko'rib emas, balki eshitish orqali 90% ma'lumotni o'ziga qabul qiladi" [5;91]. Radioda reklamani joylashtirishda har xil ovozlardan foydalanish mumkin. Bunga Koka-kola ichimligi reklamasini misol keltirish mumkin.

Psixologlarning ta'kidlashicha, radio bu eshituvchi bilan axborot beruvchi o'rtasidagi ko'prikdir. Diktorga qanchalik tez gapirsa va ko'p so'zlardan foydalansa, shunchalik eshituvchi e'tibor bilan uni tinglar ekan. Shuningdek, ovoqli yozuvning sifati - diktorning ovozi, o'qilayotgan matn,



musiqali fon, hamda musiqiy hamrohlik radio reklamaning sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Bunga qo'shimcha qilib, shuni aytish mumkinki, uzluksiz eshittirish va musiqiy ta'sir tinglovchiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Radio oshxonada, tashkilotlarda, avtomobillarda ham kun bo'yi o'chirilmasligi mumkin. Radioning asosiy roli tinglovchining tasavvurini uyg'otishdir. Radioreklamada o'ziga jalb qilish uchun qo'ng'iroq yoki gudok ovozidan yoki shovqin - suron fonini berishdan foydalaniladi, radioreklamaning yaxshi tayorlanishida ovozlarning yaxshi tanlanishi, reklama qilinayotgan mahsulot turlarining ochib berilishini hamda tinglovchining xohishi bo'yicha yo'naltirilgan tasavvurlar orqali berilishi yaxshi natija beradi.

Ko'ruv (vizual) va ko'ruv-eshituv (vizual-audial) reklamalari (bunday reklamalar ba'zi adabiyotlarda ko'cha, tashqi reklamalar terminlari bilan ham ataladi) ancha keng tarqalgan bo'lib, bunga bosma, yoritgich, bezakli va videoreklama, fotoreklamalar kiradi.

Ko'ruv va ko'ruv-eshituv reklamalari matni lingvistik va nolingvistik birliklarning majmuidan iborat bo'ladi va ular yaxlit holatda matnni tashkil qiladi. Masalan, badiiy matnda til birliklari matnni tashkil qiluvchi asosiy vosita hisoblansa, reklama matnlarida esa lingvistik vositalar bilan bir qatorda yorliqlar, suratlar, turli shartli belgilar reklama matnining unsuri hisoblanib, kommunikativ vazifa bajarishga xizmat qiladi. Lingvistik vositalarsiz bunday matnlar kommunikativ vazifani bajarmasligi mumkin. "Agar fotosuratli reklamada qisqa matn ham bo'lsa reklamani tushunish osonroq" [6;46]. Masalan, video kamera yoki eng so'nggi modeldagi televizor markasi ko'rsatilgan fotosuratli reklama.



Bu reklamani ko'rganda haridorda turli xil fikrlar tug'ilishi mumkin (kameraga olib, televizorda ko'rsatamiz deganga o'xshash, aslida bu sur'atlar shu mahsulotlarni sotish uchun qo'yilgan reklama).

Ko'ruv reklamalarida matn qisqa, aniq bo'lishi, fikr ixcham va lo'nda ifodalanishi kerak. Matnda ob'ekt haqidagi asosiy ma'lumotlarni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajrata bilish, uning eng muhim, asosiy qirralarini ajratib ko'rsatish va diqqatni shunga qaratish lozim.



Masalan: Osmandagi katta sariq to'p choy barglarini boyitadi, bizning shaftolilarni shirinroq qiladi va uning ta'mi yanada mazaliroq bo'ladi. Ko'rdingizmi quyosh nuri hamma narsani yaxshiroq qiladi. Quyosh nuri bilan to'lgan Lipton Ays tee choyi bilan zavqlaning. Agar bu reklamada choyning tarkibida nimalar borligi aytilmaganda va faqat oxirgi jumlaning o'zigina olinganda umuman boshqa ma'nolar kelib chiqar edi. Quyosh nuri bilan to'lgan Lipton Ays tee choyi bilan zavqlaning – quyosh nurida toblanganmi yoki rangini quyosh nuri bilan aloqasi bormi degan savollar ham tug'ilishi

mumkin edi. Bu jihatlarni hisobga olgan matn tayyorlovchi barcha tafsilotlarni qisqa matnga joylagan. Reklama matnining qay darajada muvaffaqiyatli tuzilganligi ham ko'zlangan maqsad uchun juda muhimdir. Bu borada reklamashunos R. Rivzning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor – "Reklama yaxshi mahsulot sotilishini rag'batlantirib, yomon mahsulotning muvaffaqiyatsizligini tezlashtiradi. U mahsulot sifatli ekanligini tasdiqlab, xaridorda bu mahsulotning haqiqatdan ham

qanday - sifatli yoki sifatsiz ekanligini tekshirib ko'rishga da'vat uyg'otadi" [7;3]. Tilning ifodali vositalari reklama qilayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochishda muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlar va xizmatlarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, reklama xabarlaridagi til vositalarini tanlash, tashkil etish va mumkin bo'lgan o'zgartirishlar, nafaqat reklama qilinadigan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari, balki maqsadli auditoriyaning o'zi, ya'ni uni tashkil etuvchi shaxslar maqomi, ularning psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu haqda yuqorida fikr bildirib o'tdik. Demak, bunday vizual reklama matnlarida lingvistik vosita sifatida asosan yuqori emotsional - ekspressivlikka ega bo'lgan so'z va so'z birikmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek tilida bunday xususiyatlar asosan sifat turkumiga oid so'zlarda o'z aksini topgan. Chunki reklama qilayotgan xizmatlar, tovarlarning xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatish asosan sifat so'z turkumi orqaligina amalga oshiriladi. Masalan, **xushbo'y, nozik, shaffof, sof, asl, toza, haqiqiy, tabiiy, chin, arzon, ommabop, hammabop, yoqimli, ko'rkam, yorqin, porloq, xushbichim, orasta, zebo** va hokazo. Brendini ta'kidlash uchun raqobatchilar orasida turli xil til texnikalariga murojaat qilinishi mumkin. Sifatlarning yorqin ifodali xususiyatlari ushbu vazifani bajarishda yordam beradi. Baholash mazmuniga ega bo'lgan eng ko'p ishlatiladigan sifatlar: issiq, shov-shuvli, hayratlanarli, zamonaviy, noyob, hayoliy, mukammal va shunga o'xshash so'zlar. Ularning barchasi ijobiy semantikaga ega. Bunday sifatlar ham o'z navbatida turli ma'no guruhlariga ega bo'ladi. "Reklama tarkibidagi ma'lumotlar ishonchlik mezonlariga javob berishi kerak, shu jumladan, iste'molchining mahsulot (xizmat), uning sifati, iste'molchi xususiyatlari haqidagi to'g'ri, haqqoniy g'oyasini shakllantirish uchun. Shu munosabat bilan, reklama qilayotgan ob'ektning boshqa tovarlar bilan taqqoslanadigan xususiyatlaridan foydalanish, masalan, "eng yaxshi", "birinchi", "birinchi raqam" so'zlaridan foydalanib taqqoslash amalga oshiriladigan va ob'ektiv tasdiqlangan aniq mezon ko'rsatilishi kerak".

Shu fikrlarga asoslanib xususiyat sifatlaridan biri bo'lgan aqlli sifatini quyidagi mahsulotga nisbatan qanday mezon asosida qo'llanganini reklama mazmunidan bilib olamiz:



### **Samsung yaxshi hayot uchun aqlli texnikalar taqdim etdi!**

"Aqlli" maishiy texnika nafaqat zamonaviy ko'rinishga ega, balki bizning tez rivojlanib borayotgan asrimizda barcha ishimizni osonlashtiradigan haqiqiy yordamchi hamdir.

Telefon va televizorlar "aqlli" yordamchiga aylanib bo'ldi, ularning ishlab chiqaruvchilari esa bu nuqtada

to'xtab qolmoqchi ham emas. Barchamizga ma'lum bo'lganiday, mukammallikning cheki yo'q. Maishiy texnika ham tinimsiz o'zgarib, samaradorligi oshmoqda, sezdirmay ishlab, hayotimizga qo'shimcha qulaylik taqdim etayotgan yangi funksiyalarga ega bo'lib bormoqda. Keling, Samsung kompaniyasi misolida texnologiyalar hayotimizni yaxshi tomonga qanchalik o'zgartirganligiga nazar solamiz.

**Televizorlar**-Samsung'ning yangi QLED televizorlari xona interyeriga juda oson va oddiy tarzda mos tushaveradi.

Afzalliklari: **Ambient rejimi**-2018-yil Samsung kompaniyasi QLED televizorlari uchun innovatsion rejim taqdim etdi. Ambient rejimida qurilma displeyiga oboy rangi yoki tasvirini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish mumkin, bu esa o'z navbatida televizor xona interyeriga a'lo darajada mos kelishini ta'minlaydi. Ambient rejimi orqali televizordan ob-havo va yangiliklar haqidagi eng muhim ma'lumotlarni ko'rsatib turilishi uchun foydalanish mumkin.

**One Invisible Connection - ko'rinmas ulanish tizimi**-One Invisible Connection\* - bu quvvat va ma'lumotlarni uzatish kabellarini o'zida birlashtirgan bitta ingichka sim. Yangi QLED televizorlari uchun boshqa hech qanday qo'shimcha ulanishlar, o'tkazuvchilar va simlar talab etilmaydi. Ushbu sim hech qanday muammosiz xonangizning interyeriga juda mos tushadi.

**Bevosita yoritish texnologiyasi (Direct Full Array)**-Bevosita yoritish texnologiyasi orqali (DFA) Q8F va Q9F modeli QLED televizorlari yuqori kontrast darajasiga ega ajoyib tasvirlarni namoyish

qiladi. “Aqlli” texnologiyalar poygasi endi boshlanmoqda. Aqlli sifatining qo’llanilishi birgina televizor reklamasi orqali isbotlandi. Demak, Mana shunday samaradorlikning isboti bilan berilgan reklamalarda sifat ham o’z ma’nosiga ega bo’ladi. Ichimlik reklamasidan:  
Ichimlik reklamasidan:



“Reklama matnida sifat bilan ifodalangan xususiyatlarni shartli ravishda xarakterlovchi va baholovchi deb ajratish mumkin”. Bu reklamadagi mevali, quvnoq, ajoyib sifatleri mahsulotning haqiqiy xarakterli xususiyatiga, holatiga mos keladigan va bu mahsulotni iste’mol qilganda ana shunday ta’ m va hissiyotlarni his qilishga yordam beradigan so’zlar sifatida tushuniladi.

Reklama matnida mahsulot xususiyatini ochib berishda kerakli sifatdan foydalanish orqali quyidagilarni xulosa qilish mumkin bo’ladi: Sifat leksik-grammatik birlik darajasiga ko’tariladi, matnni baholash tuzilmasini yaratishda qatnashadi, uning axborot qiymatining oshishiga hissa qo’shish va mahsulot sifatini farqlashga ko’mak berish kabi semantik ma’nolarni berishda xizmat qiladi


### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Марочкина С.С. Введение в специальность. Реклама. Учебного пособия. Москва-2012. 23 ст.
2. Щепилова Г.Г. Критерии классификации рекламы в печатных сми. сер. 2010. № 4. 188-199 - ст.
3. Коньков В.И. Русская речь в средствах массовой информации: Речевые системы и речевые структуры / Под ред. В.И.Конькова, А.Н.Потсар. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2011. -399 ст.
4. Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва, 1981. -125 ст.
5. В.В. Inatullayev. Ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasida reklama fani bo’yicha ma’ruzalar matni. Namangan -2014, 190 bet.
6. Лобин А. М. Редакторская подготовка рекламных материалов: методические указания для студентов специальности 021500 «Издательское дело и редактирование». Ульяновск: УлГТУ, 2004. Ст 45. – 48 с.
7. Ривз Р. Слова в рекламе. – Москва, 1973. -110 ст.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Нуруллаева Сарвиноз Мажидовна,  
Бухоро давлат университети,  
Ўзбек адабиёти кафедраси таянч докторанти  
**Ўринова Мафтуна Нўмон қизи**,  
Бухоро вилояти Ғиждувон тумани,  
60-мактаб ўқитувчиси

## ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-14>

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада халқ оғзаки ижодига мансуб қуш кўринишидаги мифологик образларнинг замонавий ўзбек шеъриятидаги тасвири ва талқини ҳақида фикр юритилган. Замонавий ўзбек шеъриятида қуш кўринишидаги мифологик образларни стилизациялаш ва метафоризациялаш орқали ижодкор туйғу, кечинмалари ва мақсади ўқувчи-адресатга ҳиссий таъсирчан қилиб етказилади. Жумладан, Ҳумо, Семурғ, Анқо, Самандар, Жестирноқ каби қуш қиёфасидаги мифологик образлар шеъриятда бахт, омад, бойлик, садоқат, ноёблик, тинчлик, вафо каби тимсолий маъноларни ифодалаш учун бадий восита бўлиб хизмат қилади. Ушбу мақолада Ҳумо, Семурғ, Самандар, Ҳаққуш каби қуш қиёфасидаги мифологик образлар замонавий ўзбек шеъриятдан олинган мисоллар ёрдамида таҳлил қилинган.

**Таянч сўзлар:** мифологик образ, стилизация, метафоризация, мифонимлар, Ҳумо, Семурғ, Самандар, Ҳаққуш.

Нуруллаева Сарвиноз Мажидовна,  
Бухарский государственный университет,  
докторант кафедры узбекского литературы  
**Уринова Мафтуна Нумон қизи**,  
Школа № 60, Бухара, преподаватель

## ОПИСАНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ВИДЕ ПТИЦЫ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается изображение и интерпретация мифологических образов в виде птиц, принадлежащих к фольклору, в современной узбекской поэзии. В современной узбекской поэзии посредством стилизации и метафоризации мифологических образов в виде птиц, эмоционально передаются читателю - адресату чувство, переживания и цели поэта. В частности, мифологические образы в виде птиц, такие как Ҳумо, Семурғ, Анқо, Самандар, Джестирноқ, служат художественным средством выражения в поэзии символических



значений, таких как счастье, удача, богатство, верность, уникальность, мир, верность. В данной статье на примерах из современной узбекской поэзии анализируются мифологические образы в виде птиц, таких как Хумо, Семург, Самандар, Хаккуш.

**Ключевые слова:** мифологический образ, стилизация, метафоризация, мифонимы, Хумо, Семург, Самандар, Хаккуш.

**Nurullaeva Sarvinoz Majidovna,**  
Bukhara State University, PhD Student  
of the Department of Uzbek Literature  
**Urinova Maftuna Numon qizi**  
School №60, Bukhara, Teacher

## DESCRIPTION AND INTERPRETATION OF MYTHOLOGICAL IMAGES APPEARANCE OF BIRDS IN MODERN UZBEK POETRY

### ANNOTATION

This article discusses the description and interpretation of mythological images in the form of birds belonging to folklore in modern Uzbek poetry. In modern Uzbek poetry, through the stylization and metaphorization of mythological images in the form of birds, the poet's feelings, experiences and goals are emotionally conveyed to the reader - the addressee. In particular, mythological images in the form of birds, such as Humo, Semurg, Anko, Samandar, Jestirnak, serve as an artistic means of expressing symbolic meanings in poetry, such as happiness, luck, wealth, loyalty, uniqueness, peace, fidelity. In this article, using examples from modern Uzbek poetry, mythological images in the form of birds, such as Humo, Semurg, Samandar, Hakkush, are analyzed.

**Key words:** mythological image, stylization, metaphorization, mythonyms, Humo, Semurg, Samandar, Hakkush.

Ўзбек шеърятини ранг-баранг образлар тизимига эгадир. Улар орасида мифологик образлар ҳам борки, ўзига хос вазифаси, хусусиятлари ва поэтик талқини билан алоҳида диққатга сазовордир.

Инсон яралибдики, ўзини ўраб турган атроф-оламни ўрганишга, ҳодисалар сабабини билишга интилади. Шу интилиш ва қизиқиш натижасида пайдо бўлган дастлабки билимлар мифологик қарашларни ташкил этади. Зеро ибтидоий одамнинг оламни образли тасаввур қилиши натижасида ҳиссий образлар сифатида мифологик образлар пайдо бўлган. Мифологик образлар барча халқларда мавжуд бўлиб, улар ҳар бир халқнинг миллий, маданий тушунчалари асосида кодлаштирилган.

Мифологик образлар замонавий ўзбек шеърятинида кўчма маънода қўлланилиб, инсоннинг турли кечинмаларини бадий ифодалашга хизмат қилади. Жумладан, ялмоғиз очкўзлик, шайтон айёрлик, аждар ёвузлик, Азроил шафқатсизлик, дўзах азоб-уқубат, дев душманлик каби семаларда инсон нафратини интенсив ифодалаш рамзига айланган бўлса, пари гўзаллик, фаришта беозорлик ва бегуноҳлик, жаннат фаровонлик, Хизр омад, Хумо ва Семург бахт ва давлат, Самандар вафодорлик маъносини ифодалаш учун қўлланилади.

Рус олими Н.Д. Арутюнова “сўзнинг маъноси қанчалик мавҳум ва камситувчи бўлса, шунчалик осон метафоризация қилинади”, деб ҳисоблайди.[1]

Рамз ва метафора, асосан, бадий асарнинг ўзига хос ифода услуби сифатида қўлланилади. Бу шуни англатадики, метафоризациялаш орқали ўқувчининг тасаввурига конкрет образ тасвири етказиб берилади.

Энг кенг қўлланиладиган куш кўринишидаги мифологик образлардан бири Хумодир. Хумо эзгулик рамзи бўлган афсонавий куш номи бўлиб, халқнинг ишонч-этикодида кўра, агар у кимнинг бошига кўнса ёки сояси тушса, ўша киши энг бахтли бўлади, давлат ва

салтанатга эришади, деб қаралади. Шундан келиб чиқиб, эътиқод қилинган бу афсонавий кушни “бахт куши”, “давлат куши” ҳам дейдилар.[13,561]

Ўзбек фольклорида Ҳумо куши образини махсус тадқиқ қилган олим К.Имомовнинг кайд этишича, Ҳумо кушининг мифологик маъноси “куёшга қўнган куш”дир. Ҳар бир ҳаракати эса илоҳий ва магик қудрати билан боғлиқ белгиларда тавсифланган. [4,24]

Замонавий ўзбек шеърятининг ёрқин вакилларида бири О.Ҳожиёвнинг “Хонадон” шеърдан олинган куйидаги мисраларда Ҳумо образи тўғридан-тўғри бешикка ўхшатиш ва ушбу образ рамзий маънода бахтни, инсоннинг гўдаклик чоғлари энг бахтли ва беғам онлар эканлигини кўрсатиш хизмат қилган:

Шўх юлдузлар ҳақидаги қўшиғинг  
Ўқтин-ўқтин тушиб қолса эсинга,  
Кўзмунчоклар безаб турган бешигинг  
Ҳумо кушдай кўринади кўзинга. [14,78]

Ж.Сирождиннинг “Даъват” шеърида ҳам Ҳумо куши давлат ва бахт, омад, фаровонлик маъносида стилизация қилинган:

Золим замон ўтиб, мазлумга дўнар,  
Бўлур озод Ватан маҳрам работим!  
Тобақай тўнкага Ҳумо куш қўнар?!  
Озод бўл, обод бўл, эй хароботим. [9,4]

Шоир ватанида зулм, тобелик ҳукм сураётган замонни тўнкага Ҳумо куши қўнганига менгзаб, унинг бошимизга соя соладиган вақти келганлигини таъкидлайди, хароб юртни озод ва обод қилишга чақиради. Ж.Сирождин қаламига мансуб куйидаги сатрларда ҳам Ҳумо образи бахт, омад, фаровонлик, гўзаллик, хушвақтлик маъноларини умумийлаштириб келган:

Ажаб кушхонани кўрғил, ажаб кушхонани кўрғил!  
На парвозу, на роз, бозу-ҳумоларни соғинган дил. [9,111]

Кўриниб турибдики, юқоридаги мисраларда мустамлака юрт кушхонага (қафасга), унда зулм ҳукм сураётгани кушхонадаги ҳолатга ўхшатиш. Мутеликда қўнғил куши на эркин парвоз қила олади, на ўйнаб кула олади. Шу боис юрак бахтли, хуррам кунларни соғинганини шоир Ҳумо мифологик образи орқали ифодалайди.

Шоира Ҳ.Аҳмедованинг “Ҳаммаси ўткинчи...” шеърида эса “бахтли кунлар” маъноси хумолар метафораси воситасида берилган. Ташвишли кунлар ўткинчи, ойнанинг ўн беши қоронғу, ўн беши ёруғ эканлигини рамзий ифодалаган:

Ҳаммаси ўткинчи, ҳаммаси,  
Барини кечирар самолар.  
Замин интиҳосиз айланаверар –  
Минг бора туғилар хумолар. [2,30]

Тўра Сулаймон ижодида ҳам Ҳумо мифологик образидан фойдаланилган. Чунончи:

Бахт куши топмиш қўналға шонли Туркистон айланиб –  
Ўз ҳолиға келмиш Турон замондин замон айланиб.  
Ҳазрати Хизр юрибди ҳур Ўзбекистон айланиб,  
Туғросига қўнмиш Ҳумо мустаҳкам Кўрғон айланиб,  
Чор атрофга зоғ йўлатмас Семурғ доvon айланиб.  
Амир Темур руҳи шодмон иззатли Султон айланиб,  
Бу не бахтким, юрса Ҳудҳуд Тўра Сулаймон айланиб! [10,18]

Шоирнинг “Айланиб” шеърдан келтирилади ушбу мисраларда бахт куши номини олган Ҳумо, Семурғ образларига мурожаат қилинмоқда.

Юқоридаги шеърда Ҳумо куши образи орқали шонли Туркистонга яна қайта бахт инъом этган истиқлолдан шодланиш, руҳланиш, ғурурланиш ғояси илгари сурилмоқда. Бугунги кунда ҳур Ўзбекистон заминида яшаётган ҳар бир инсон худди бошига Ҳумо куши қўнгандай ёхуд Ҳазрати Хизрга йўлиққандай, ўз орзу-истагига тез етишаётгани ёритилмоқда.

“Шайдолик” шеърида эса Ҳумо образи Ҳумой шаклида ифодаланган:

Юлдузлар йиғилиб Ой бўлса кошки,  
 Ҳар қандай куш Ҳумой бўлолса кошки.  
 Ҳар ким ҳам Ҳотамтой бўлолса кошки,  
 Диёнат не қилсин мунофиқ зотда. [10,21]

Ойдин Ҳожиеванинг “Яшил май” шеърида ҳам худди шундай шаклда учрайди ва галаба, зафар, дўстлик маъноларини умумлаштириб келади:

Битар эдим сайллари забаржад ой деб,  
 Биродарлик кўшиқларин кашф этган сана,  
 Галабадан дарак берган қутлуғ **хумой** деб,  
 Хосиятли қадамига – офтоб кўрмана! [14,249]

Ҳумо образи Семурғ шаклида ҳам қўлланилади. Семурғ шарқ халқлари оғзаки поэтик ижодидаги афсонавий куш образи бўлиб, ижобий қаҳрамоннинг дўсти, ҳомийси, ҳимоячиси, ҳамроҳи сифатида тасвирланади ва осмонда учиш, узоқ манзилни яқин қилиш ҳақидаги асрий орзу-умидларнинг рамзий ифодаси ҳисобланади. Дастлаб Эрон мифологиясида пайдо бўлган семурғ куши “Авесто”да “сенемурғ” шаклида ишлатилган. Туркий халқларда Семурғ Ҳумо, Анқо, Давлат куши, Бахт куши, Марқумомо, Кунтубулғон, Булбулигўё каби вариантларда учрайди.

Шеъриятда семурғ образига мурожаат қилиш орқали, асосан, бахт, нажот, рўшнолик тиланади. Чунончи, Жамол Сирожиддиннинг “Бас-эй сассиқ сўкуш...” деб бошланувчи шеърида шоир Семурғга мурожаат қилиш орқали озодлик, эркинликни истаётганини, ундан нажот кутаётганини билдиради:

Ажаб қисмат йилон бирла ўшал сиймурғ қафасдошмиз,  
 Ўзинг қутқар аё Семурғ самоларни соғинган дил [9, 111].

Халқ қарашларига кўра, Семурғ, Анқо кушларининг макони Қоф тоғи бўлиб, уни топиш мушкул ва ҳаттоки имконсиздир. Шеъриятда ушбу мифологик образлар аксарият ҳолларда ёнма-ён келади:

**Кўхи Қоф**нинг бошига,  
**Семурғ** солганда соя,  
 Ёмғирни йиғлатганда,  
 Онам айтган ҳикоя  
 Бор эдимми, йўқ эдим... [3,51]

Яна бир зооморф мифологик образ самандар бўлиб, у зардуштийлик динида улуғланган афсонавий ва муқаддас жонивордир. Уни куш ёки калтакесаксимон мавжудот сифатида талқин қиладилар. Афсонага кўра, у ўт ичида туғилади ва ўт ичида яшайди. Оловдан чиқса, ҳалок бўлади.

Шоир Ж.Камолнинг “Бўлмагай” шеърида самандар образидан куйидагича фойдаланилган:

Бўлмагай кўнглим самандардек ҳавойи ишқ аро,  
 То унинг остида оташ устида кул бўлмагай. [5, 217]

Мумтоз шеъриятда кўпинча самандар образи ишқ туфайли ёнган кўнгилга ўхшатилади. Ишқ ўтисиз ошиқ кўнгли самандардек нобуд бўлиши тасвирланади. Ж.Камолнинг юқоридаги мисраларида ҳам кўнгил самандарга, ишқ ўт-оловга менгзалган. Самандар оловдан ҳавога кўтарилса, нобуд бўдгани каби кўнгил ишқни тарк этса вайрон бўлади. Шу боис шоир ишқ олови бор экан, уни кўнглим тарк этмайди, ишқ ичра ёниб яшайди, кўнглим ишқ билан тирик дейди.

Тўра Сулаймон шеъриятида ҳам реал образлар билан бир қаторда мифологик образлар келтирилганига гувоҳ бўлиш мумкин.

Шоир шеърларида учрайдиган мифологик образлардан бири Ҳаққушдир. Жумладан, шоирнинг “Илтижо” шеърида Ҳаққуш образи қўлланилган шундай мисралар учрайди:

Баҳор келса, бошланур боғда булбул хониши,  
 Саъва, кумри нағмаси, суралай товланиши,  
 Қирларда лола сайли, қишлоқларда йил боши:

Тўхтагай табиатдан Ҳаққушлар зорланиши

Баҳор, кетма менинг боғимдан.[11,9]

Ҳаққуш образидан шоир “Ўхшар” сарлавҳали шеърида ҳам фойдаланган:

Ҳаққушга хатарсиз ошён муносиб,

Қўклам қушларига чаман муносиб.

Йигит-қизга аҳду паймон муносиб,

Бусиз кўнгил зилу замбилга ўхшар[11,19].

“Сулув” шеърида эса кўнгил изтиробини, мунгни ифодалаш мақсадида най билан параллел қўллайди:

Субҳ елидан маст бўлиб

Ҳаққуш сайрамоқдайди,

Қайлардадир най саси...

Кўнгил яйрамоқдайди[11,39].

Ҳаққуш – узун оёқли қушлар туркумининг қарқаралар оиласига кирувчи парранда.[13,523] У халқ орасида Ҳаққув деб ҳам юритилади. Бу қушнинг келиб чиқиши инсон билан боғланади ва шуниси билан афсонавийлик касб этади.

Умуман олганда, қуш кўринишидаги мифологик образлар тасвири ва талқинида бир қатор умумийлик ва хусусийлик белгилари мавжуд бўлиб, уларни қуйидагича тавсифлаш мумкин:

- хумо – бахт ва давлат қуши, тарихий илдизлари “Авесто”даги олов маъбудди (бахт ва толе тимсоли) Хварна Фар билан боғланади;

- семурғ – бахт қуши, келиб чиқиши сув илоҳи Анаҳита билан ҳам боғланади;

- анқо – бахт ва толе қуши, унинг асосий белгиси кўзга кўринмаслик бўлиб, йўқликнинг рамзий тимсоли саналади.

Демак, ушбу мифологик образлар “бахт” белгиси орқали умумийликка эга бўлиб, аждодларимизнинг азалий орзу-истакларининг ифодачиси ўлароқ юзага келган.

Хуллас, қуш киёфасидаги мифологик образларнинг образлилик, тасвирийлик категориялари хос бўлган бадиий нутқда қўлланилиши орқали тилнинг эстетик функцияси намоён бўлади. Ўқувчига алоҳида куч билан таъсир қилиш, образ яратиш учун тасвирий восита сифатида, асосан, метафорадан фойдаланилади. Шунинг учун улар орқали инсоннинг турли эмоцияси экспрессив тарзда ўз ифодасини топади. Биз таҳлилга тортган мифологик образлар воситасида, асосан, инсоннинг ижобий ҳис-туйғулари ифодаланади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М., 1990.
2. Аҳмедова Ҳ. Эрк дариҷаси: Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 120 б.
3. Аҳмедова Ҳ. Умид сояси (Шеърлар). – Т.: Ниҳол, 2008. – 168 б.
4. Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо қуши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2011. – №5. – Б. 24.
5. Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Фан, 2007. – 336 б.
6. Majidovna NS, Saidakhmedovna UD. Expression of war events and people through mythological images. // ACADEMICIA: International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 10, Issue 8, August 2020. Impact Factor: SJIF 2020=7.13. – P. 461 – 465.
7. Nurullayeva SM. Metaphorization of the “devil” myth in modern Uzbek poetry. “Сўз санъати халқаро журнали / Международный журнал искусство слова / International Journal of Word Art”. – Т. 2019. - №4. – Б.25-29.
8. Nurullaeva S.M., Uraeva D.S. Metaphorization of the “dragon” image in Uzbek classic poetry. – World Science: Problems and Innovations. – Пенза, 2020. – С. 119 – 221.
9. Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (Шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – 136 б.




10. Сулаймон Т. Гулшан. – Т.: Ғ.Ғулом, 1988. – 100 б.
11. Сулаймон Т. Истар кўнгил (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Ғ.Ғулом, - 1984. – 222 б.
12. Ўраева Д.С. Замонавий шеърятда бадий кўчимларнинг янгиланиши. – Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро. – 2014. – № 4 (56). – Б.50-53.
13. ЎТИЛ. 5 жилдлик. 5-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2008. – 592 б.
14. Ҳожиева О. Мушфиқ онажон (Шеърлар ва шеърый қисса). – Т.: Ғ.Ғулом, 1983. – 274 б.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**З.Б. Джалилова**

БухДУ, Инглиз адабиёти кафедраси ўқитувчиси

## ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-15>

### АННОТАЦИЯ

Шеърият дунёсида турфа ўсимликлар билан бир қаторда гуллар инсон фазилатлариб ташқи қиёфаси ва унинг табиатини тавсифлаш учун кенг қўлланилади. Ушбу иш инглиз шеъриятида инсон сифатларининг гуллар воситасида ифодаланишига бағишланган. Мақолада Франсис Томпсон, Уильям Эрнест Хинли, А.Э.Хаусман, Оскар Уайлд ва Фиона Маклеод каби XIX-XX аср инглиз адабиёти намоёндаларининг шеърлари таҳлил қилинган.

**Таянч сўзлар:** фитоним, образ, гул, рамз

**З.Б. Джалилова**

БухГУ, учитель кафедры Английской литературы

## ВЫРАЖЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЦВЕТАМИ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ

### АННОТАЦИЯ

В мире стихов растения наряду с цветами широко используются для характеристики человеческих качеств, внешнего вида и человеческой натуры. Данная статья посвящена анализу стихотворений, в которых цветы используются для описания человеческих качеств. В статье анализируются стихи представителей английской литературы XIX-XX веков, таких как Фрэнсис Томпсон, Фиона Маклауд, Оскар Уайльд, А.Э. Хаусман, Уильям Эрнест Хинли.

**Ключевые слова:** фитоним, образ, цветок, символ.

**Z.B.Djalilova**

Teacher of English literature department, BSU

## EXPRESSING HUMAN FEATURES BY FLOWERS IN ENGLISH POETRY

### ANNOTATION

In the world of poems, plants along with flowers are widely used to characterize human qualities, physical appearance and human nature. Current paper is devoted to the analysis of poems where flowers are used to describe human features. The article analyses the poems of the XIX-XXth century English literature representatives such as Francis Thompson, Fiona Macleod, Oscar Wilde, A.E.Housman, William Ernest Hinley.

**Key words:** phithonym, image, flower, symbol

Бадий ижодда образ яратиш, фикрни поэтик кўринишда ифодалаш учун хизмат қилган фитонимлар фитопозетонимлар даражасига кўтарилади. Фитонимлар сингари фитопозетонимларда ҳам халқнинг деҳқончилик, боғдорчилик, сабзавотчилик, полизчилик, гулчилик сингари маданиятининг лисоний бадий ифодаси юзага чиқади.

Шеъриятда фитонимлар, жумладан, гул ёки ўсимликлар номи кўчма маънода шахс сифатини ифодалаб келиши кўп кузатиладиган анъанавий поэтик ҳодисалардан биридир. Айтайлик бадий образни яратиш ёки тавсифлаш учун гул турлари номларидан фойдаланишда унинг маъносини инсонга кўчириш, албатта, гул ва шахс орасидаги маълум ўхшашликларга асосланади. Бундай қиёслашлар эса кўпроқ шеъриятда маъшуқанинг ташқи гўзаллигини тасвирлашда қўлланилади.

Гулларнинг рамзий образ сифатида шеъриятга кириб келиши қадимги одамларнинг эътиқодлари, илк тасаввур-тушунчалари, тотемистик қарашлари билан боғлиқ [6,573; 2,77; 3,139-181].

Шеърларда гул тимсоли баъзан умумий, баъзан конкрет номда ифодаланиб келади. Жумладан, Франсис Томпсоннинг “Daisy” – “Момақаймоқ” шеъри бу жиҳатдан фикримизга далил бўла олади:

She listened with big-lipped surprise,  
Breast-deep 'mid flower and spine:  
Her skin was like a grape whose veins  
Run snow instead of wine [9,35].

Ушбу мисраларда шоир ёшлигида кўнги кўйган севгилиси ҳақида сўз юритмоқда. У кенг яшил яйловда бирга чоғиб ўйнаб, болаларча беғуборлик билан суҳбатлар қилган севгилисини эслар экан, уни ўша гўзал табиат кўйнида барқ уриб яшнаган гулларга ўхшатади. Хусусан, қизнинг энди кўтарилиб келаётган кўкракларини гуллашга бош кўтарган момақаймоқ гулига менгзади. Унинг юз териси эса узум донасидек таранг эканлигига, томирларидан оқаётган қони винодек қизиллигини оппоқ қордек бадани яширишга ожизлигини таъкидлайди. Бу билан у севгилисининг ниҳоятда оппоқ, чиройли, жозибадор, соғлом эканлигини билдирмоқчи бўлади. Умуман айтганда, хотин-қизларнинг гўзал ва ёқимли чеҳрасини, момиқ ва оппоқ бадан тузилишининг бўлиқлигини момақаймоқ гули воситасида тасвирлаш жаҳон шоирлари ижодида ўзига хос анъана тусини олган. Кейинги мисраларда шоир яна ўз фикрини давом эттириб, шундай дейди:

Oh, there were flowers in Storrington  
On the turf and on the spray;  
But the sweetest flower on Sussex hills  
Was the Daisy – flower that day! [9,35]

Шоир ёшликдаги муҳаббат туйғуларини хотирлар экан, ўшанда Сторрингтонда очилиб ётган кўплаб гулларни, лекин улар орасида Сассекс тепалигидаги энг ёқимли гул – момақаймоқ бўлганлигини эслайди.

Аслида daisy – инглиз тилида фитоним сифатида гулнинг бир тури бўлган момақаймоқни атаб келса-да, худди бошқа тилларда, жумладан, ўзбек тилида ҳам гул номларининг киши номи тарзида антропоним бўлиб келиши кузатилади. Айнан бунинг далилини юқоридаги банднинг сўнгги мисрасида антропоним сифатида келтирилган Daisy исми мисолида кузатиш мумкин. Бу исм, асосан, қизларга нисбатан қўлланади. У эски инглиз тилидаги day's – куннинг, eye – кўзи сўзлари бирикувидан ҳосил бўлган [10]. Бундай ном олишига унинг эрта тонгда куёш чиқишига қараб очилиб, кеч шомда куёш ботиши билан юмилиши сабабдир.

Момақаймоқ – сариқ тўпгулли, шамолда учиб кетадиган тўзгоқ уруғли ўт; қоқийт. У кўчма маънода юз, бадан тузилиши бўлиқ ва ёқимли кўринишга эга бўлган аёлларга нисбатан ишлатилади [7,713].

The fairest things have fleetest end,

Their scent survives their close:  
But the rose's scent is bitterness  
To him that loved the rose.

Ушбу мисраларда яна бир гул – атиргул номи бир неча бор такрорланган. Атиргул ҳам дунё миқёсида бадий ижодда энг кўп қўлланадиган гул фитопоэтонимларидан биридир. Атиргул раънодошлар туркумининг хушманзара ўсимлик сифатида экиладиган бир қанча турининг умумий номи [7,136] бўлиб, шеъриятда кўчма маънода кўпинча гўзал қизлар ва ёш болалар образини рамзий-тимсолий ифодалашда кенг қўлланиши кузатилади. Бунга жаҳон шоирлари ижодидан ёрқин далиллар келтириш мумкин. Жумладан, инглиз шеъриятидаги Уильям Эрнест Хинлининг “A Bowl of Roses” шеъридан олинган куйидаги мисралар ҳам фикримизга далил бўла олади:

It was a bowl of roses:  
There in the light they lay,  
Languishing, glorying, glowing  
Their life away.  
And the soul of them rose like a presence,  
Into me crept and grew,  
And filled me with something – some one –  
O, was it you?[9,22]

Атиргулни севиш учун унинг тикони захридан ҳамда ўткир ифори таъсиридан чўчимаслик лозим. Шунинг учун атиргул воситасида кўпинча севги, маъшуқа тимсоли бадий ифода этилар экан, бевосита ошиқ муҳаббат азобларини енгишга чорланади.

А.Э.Хаусманнинг куйида келтирилган “With Rue My Heart is Laden” (“Қалбимдаги афсуслар”) шеърида лаби атиргулни эслатадиган гўзал қизлар таърифланган:

With rue my heart is laden  
For golden friends I had,  
For many a **rose-lipt** maiden.  
And many a lightfoot lad.  
By brooks too broad for leaping  
The lightfoot boys are laid;  
The **rose-lipt** girls are sleeping  
In fields where roses fade [9,39].

Куйидаги мисраларда эса шоир Оскар Уайлд “Requiescat” номли шеърида вафот этган яқин аёлини нилуфар гулига қиёслаган. **Нилуфар** – йирик баргли, чиройли катта-катта гулли, сувда ўсадиган кўп йиллик ўсимлик. У халқимиз орасида хотин-қизларнинг исми сифатида ҳам учрайди [7,37]. Эътиборлиси шундаки, бундай исм инглиз халқи орасида ҳам мавжуд. Lily – нилуфар гули номи билан боғлиқ антропоним сифатида кузатилади.

Tread lightly, she is near  
Under the snow,  
Speak gently, she can hear  
The daisies grow.  
All her bright golden hair  
Tarnished with rust,  
She that was young and fair  
Fallen to dust.  
Lily – like, white as snow,  
She hardly knew  
She was a woman, so  
Sweetly she grew [9,42].

Шеъриятда вафот этган инсонни гулга менгзаш ҳодисаси азалий поэтик аънаналардан бири бўлиб, унинг тарихий илдизлари қадимий анимистик ҳамда тотемистик қарашларга бориб тақалади. Хусусан, жаҳон халқлари фольклорида мавжуд йўқлов қўшиқларида бу

анъана ёрқин кузатилади. Агар келтирилган шеърнинг мазмунига эътибор қаратсак, унда ҳам бевақт вафот этган аёл хотираси ёдга олинган. Шоирнинг унга нисбатан самимий муҳаббати, ҳурмати, соғинчи мадҳ қилиниб, ширин хотираси эъзозланган. Шоир аёл зиёратига келганларни у ётган қор остидаги тупроқни қаттиқ босмасликка, оҳиста қадам ташлашга, баланд овозда эмас, секин ва мулойим гапиришга, шу орқали мархума руҳини безовта қилмасликка, абадий уйқусини бузмасликка ундайди. Чунки унинг ҳали ҳам ўз яқинида эканлигига, ҳаммасини кўриб турганлигига, айтилаётган ҳар бир гапни эшита олишига ишонади. Фақатгина унинг бир вақтлардагидай тилларанг тусдаги гўзал сочли аёл кўринишида эмас, момақаймоқ гули шаклида намоён бўлиб турганини айтади. Шеърдаги мисралар унинг баҳор яқинлашаётганда ёзилганини кўрсатади.

Қизиғи шундаки, Марказий Осиё ва Эрон халқлари, жумладан, ўзбеклар орасида Наврўз олдида қабр бошига чиқиб, ўтганларни хотирлаш удуми ҳалигача сақланиб келмоқда[4,31;8,30-33]. Шу жараёнда кўйланадиган махсус йўқловлар ҳам яратилган. Уларда кўпинча табиатда юз бераётган гўзал ўзгаришлар, чор-атрофнинг турфа гулларга бурканиб бораётганини ўтганларнинг кўролмаётганлигига ачиниш бадий ифода қилинган. Ўзбек халқи орасида лола ва лолақизғалдоқ ўтган эски йилда ўлган мархумларнинг қонидан униб чиқади деган тасаввурларни бадий ифодалантирган афсоналар ҳам бор[4,42]. Афсоналарга кўра, ер ўлганларнинг қонини ўзига сўриб олиб, кейин уларни баҳор гулларига берармиш [8,32].

Шу таҳлиллар билан юқоридаги шеър мазмуни таҳлили ўзаро боғлаб мушоҳада қилинса, унда ҳам айнан мархуманинг гулга қиёслантирилаётгани бежиз эмаслиги англашилади.

Ўзбек халқи орасида ҳалигача ёш вафот этганлар ҳақида “Ўн гулидан бир гули очилмай сўлган” ибораси ишлатилади. Аёли вафот этган эркаклар хотинига “вой, гулим” дея овоз солиб, қуйидаги каби йиғи кўшиқларини куйлашади:

Куймасин ҳеч кимнинг ҳаргиз кулба бирлан хонаси,  
Сарғаймасин, вой алам-е, ҳаргиз гулдай танаси [1,75].

Тирик ва соғлом инсоннинг танаси қизғиш тусда бўлса, мархумлар сарик тусда бўлади. Юқоридаги мисраларда шу табиий ҳолатга ўзига хос ишора мужассам. Шунинг учун “гулдай тана” ҳамиша мадҳ қилинади.

Қабр зиёратига борганлар гул олиб бориб қўйиши одати деярли барча халқларда ҳозиргача сақланиб келмоқда.

А.Э.Ҳаусманнинг “To an Athlete Dying Young”, яъни эрта вафот этган спортчи-атлетга бағишланган шеърда шундай мисралар келтирилган:

Smart lad, to slip betimes away  
From fields where glory does not stay,  
And early though the laurel grows  
It withers quicker than the rose[9,38].

Лавр – бу дафна дарахтининг япроғи. Дафна, аввало, юнон мифологиясидаги дарё маъбудининг қизи номини англатади. Яна бир томондан эса лаврдошларга мансуб дарахт номидир. Дафна Ўрта Ер денгизи ҳудудида ўсади. Кўринишига кўра кичик, сербарг, хушбўй, доимо яшил тусда бўлади. Қадимда Греция пойтахти Афинада ўтказилган спорт мусобақалари, олимпиадаларда ғолибларнинг бошига шу дарахтнинг барглари ва новдаларидан шуҳрат, ғалаба белгиси ёки олий мукофот сифатида ғолиб кишининг бўйнига осиладиган ёки бошига кийдириладиган гулчамбар ясалган. Шоир мана шу қадимий одатни ёдга олиб, дафнанинг атиргулдан кўра тезроқ сўлишини айтади ва пойгада ғолиб бўлган атлет ҳаётини унга қиёслайди:

And round that early-laurelled head  
Will flock to gaze the strengthless dead,  
And find unwithered on its curls  
The garland briefer than a girl's[9,35].

Шоир дафна гулчамбарли бошга ўлим эрта соя солганидан куйинмоқда.

Инглиз шеъриятида ҳам кўпинча бола образи гулга қиёсланади. Масалан, Фиона Маклеоднинг “The Vision” шеърида шундай мисралар келтирилган:

In a fair place  
Of whin and grass,  
I heard feet pass  
Where no one was.  
I saw a face  
Bloom like a flower –  
Nay, as the rainbow – shower  
Of a tempestuous hour.  
It was not man, or woman:  
It was not human:  
But, beautiful and wild,  
Terribly undefiled,  
I knew an unborn child [9,27].

Мисралар мазмунига кўра, шоира бир гулдек очилган юзни кўрдим, лекин у на эр, на аёл, балки гумона бир мурғак жон, дея ҳали туғилмаган чақалоқ тасвирини келтиришга уринмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, умумжаҳон шеъриятида бўлгани каби инглиз шоирлари ижодида ҳам инсон сифатларини гуллар тимсоли орқали ифодалаш ўзига хос анъана тусини олган. Бу кўпроқ ошиқнинг ўз маъшуқасига дил изҳорларини ифодаловчи мисраларда, ёш болаларни тавсифловчи сатрларда, ўтганларни хотирлашга бағишланган байтларда ёрқин кузатилади.


### Адабиётлар рўйхати

1. Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. – Бухоро, 2004.
2. Зеленин Д. Тотемы-деревья в сказаниях и обрядах европейских народов. – М.-Л., 1937.
3. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы. // Древние обряды верования и культы народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986.
4. Наврўз йўқлови // Наврўз (Наврўз билан боғлиқ кўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар). Тузувчилар: Т.Мирзаев ва М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992.
5. Пещерева Е.М. Праздник тюльпана (лола) в сел. Исфара Кокандского уезда. // Сб. «В.В.Бартольд». – Т., 1927.
6. Тайлор Э. Первобытная культура. – М.: Политиздат, 1989. – 573 с
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Учинчи жилд. Н – Тартибли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
8. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004.
9. Untermeyer L. Modern British Poetry. – N.Y.: The Quinn & Boden company, 1920.
10. <https://www.etymonline.com/word/daisy>

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Салойдинова Наргиза Шухратовна  
Тошкент Архитектура Курилиш Институту,  
“Хорижий тиллар” каф. катта ўқитувчи,  
Ўзбекистон Давлат Жаҳон Тиллари Университети,  
мустақил изланувчи

## ҚУРИЛИШ ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ БОШҚА ФАНЛАР ТЕРМИНОЛОГИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-16>

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ўрганилаётган курилиш терминлар тизими бошқа соҳа фанлари билан мукамал даражада боғлиқлиги ва замонавий ягона бир тизимни яратиш учун бир неча соҳа терминларини бир-бирига боғлаш ва уларни бошқа маънода ишлатилишини мунтазам равишда учратиш мумкинлиги ҳақида ёзилган. Курилиш соҳасига оид терминларнинг бошқа фанлар билан боғлиқлиги турли моделлар орқали курилиш соҳасида пайдо бўлганлиги ҳақида маълумот берилган. Терминларнинг бошқа фанлар орқали кириб келиш моделлари, соҳа йўналишларининг бир-бири билан боғлиқлиги кўрсатиб берилган, терминологиянинг модели бир неча билим майдони орқали шаклланиши ҳақида ёзилган.

**Калит сўзлар:** термин, терминология, филиацион модель, контаминацион модель, гетероген модел, гомоген модель,

Салойдинова Наргиза Шухратовна  
Ташкентский архитектурно-строительный институт,  
старший преподаватель кафедры «Иностранные языки»,  
соискатель Узбекского Государственного Университета Мировых Языков,  
E-mail. nargiza.shuhratovna@gmail.com

## ПРИНЦИПЫ ВЗАИМОСВЯЗИ СТРОИТЕЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ С ТЕРМИНОЛОГИЕЙ ДРУГИХ НАУК

### АННОТАЦИЯ

В этой статье описывается, как изучаемая система построения терминов соотносится с другими дисциплинами, в том числе как можно связать термины нескольких дисциплин которые используются вместе в разных смыслах на регулярной основе для создания современной единой системы одного предмета. Они появились в строительной сфере благодаря этим дисциплинам. Их появление повлияло на построение и пополнение словарного запаса в сфере строительства. Показаны модели проникновения терминов через другие дисциплины, взаимосвязь направлений полей, о формировании терминологии из нескольких областей знаний.

**Ключевые слова:** термин, терминология, филиационная модель, контаминационная модель, гетерогенная модель, гомогенная модель.

**Saloydinova Nargiza Shuhratovna**

Tashkent institute of architecture and civil engineering,  
department of “Foreign languages”, senior teacher,  
independent researcher of Uzbek State World Languages University

## PRINCIPLES OF CONNECTING CONSTRUCTION TERMINOLOGY WITH THE TERMINOLOGY OF OTHER SCIENCES

### ANNOTATION

This article describes how the researching term system relates to other disciplines, including how they can connect the terms of several disciplines that are used together in different senses on a regular basis to create a modern, unified system of one subject. They emerged in the construction industry from these disciplines, and their emergence has influenced the building and vocabulary development of the construction industry. Models of the formation of terms through other disciplines, the interrelation of the directions of fields, the formation of terminology from several areas of knowledge are shown.

**Key words:** term, terminology, filiation model, contamination model, heterogeneous model, homogeneous model.

Терминологияда терминлар маълум ва аниқ бир фанга оид маълумотни берувчидир. В.Ф.Новодранованинг фикрича “термин инсон томонидан бериладиган маълумотни кўпайтириб, унга аниқ натижани кўшиб маънони янада мукамалроқ қилиб бериши мумкин” [Новодранова 2000: 68]. Юқорида келтириб ўтилгандек, қурилиш термин тизими яқинда пайдо бўлган ва шаклланиб бораётганлардан ҳисобланади. Бу тизимга бошқа фанлар тегишли бўлган, яъни маъноси кескин фарқ қиладиган терминлар ҳам қиради. Лекин изланиш давомида энг узок тарихга эга муҳандислик соҳасининг турли тармоқларини ўз-ичига олган терминларниам кўриш мумкин. [Абдурахманова А.3.2016 346]. Ҳар бир иншоот ва конструкциялар инсоният томонидан қурилиш муҳандислари томонидан яратилиётган санъат асаридир. Бу тармоқ кўпгина биоларнинг режаси, лойиҳаси ва қурилиш жараёнигача бўлган жараёни ташкил этади. Буларнинг ҳаммаси қурилиш муҳандислиги соҳасига тегишлидир. Муҳандислик қурилиши ҳар томонлама бошқа соҳаларни ҳам ўз-ичига олган ва дунё инфратузилмасини яратувчи тармоқдир. Туннеллар, каналлар, саноат заводлари, турар жойлар, темир йўллар, аэропортлар ва бошқа иншоотларни қуриш қурилиш саноатини фақатгина бир қисмидир. Қурилиш терминологиясининг яратилиши қурилиш соҳасининг бошланиши ва биоларнинг барпо этилиши билан боғлиқдир. Виноградовнинг фикрича, “терминологиянинг тарихи- бу табиат ва жамиятдаги қонун-қоидаларнинг, айрим соҳаларнинг маданияти, илм-фанини мужассам этшан яхлит тизимдир. Ҳар бир фаннинг тарихи терминларнинг маъноси ва шаклланиш тарихидан ташкил топган. [Виноградов 1961: 67; Суперанская, Подольская, Васильева 2004: 19].

Ўрганаётган қурилиш терминлар тизими бошқа соҳа фанлари билан мукамал даражада боғлиқдир. Замонавий ягона бир тизимни яратиш учун бир неча соҳа терминларини бир-бирига боғлаш ва уларни бошқа маънода ишлатилишини мунтазам равишда учратиш мумкин. Бир лексик тизим бир неча фанлар доирасида ишлатилиши мумкин. Қурилиш унга боғлиқ фанлар сўзларни ассимиляция қилиши мумкин- техникага оид-(қурилиш физикаси, қурилиш механикаси, қурилишда ишлаб чиқариш технологияси, қурилиш материаллари, архитектура, транспорт, ирригация, гидравлика, геодезия, океан олди ва қирғоқ бўйидаги қурилиш технологиялари), табиий фанлар (тупроқшунослик, кимё, экология), ижтимоий фанлар (иктисод, менежмент), математика фанига оид (олий математика, геометрия) ва фанлараро фанга айлантериши мумкин.



Терминологиянинг модели бир неча билим майдони орқали шаклланади: 1) мавжуд фандан янги билим майдонини ажралиш натижасида; 2) икки фаннинг бирлашмасида; 3) бир қатор ўзаро фанларнинг таъсири натижасида; С. Г. Казарина термин тизимини қуйидаги алоҳида моделларга ажратган. [Казарина 1998]. [Абдурахманова А.З.2016 356].

1. **Филиацион модель** □ филиацион усул ёрдамида (узлуксиз ажратиш) алоҳида билим майдонинг терминологияси асосида шаклланиш. Бу модельга тегишли терминларнинг асосини ўзлашма ва манбалардан кириб келган қўшма ва мураккаб ташкил қилади.

2. **Контаминацион модель** — бир-бирига боғлиқ иккита фан доирасида шаклланган бўлиб, конгломерат термин, яъни ёзилиши бир хил аммо маъносини фан доирасида ўзгаради.

3. **Гетероген модел** □ бир неча фанлар доирасида шаклланган термин тизими бўлиб, бу терминологиянинг таркиби бир хил бўлмайди.

4. **Гомоген модел**- шаклланиб бўлган фанлар доирасидаги терминларга хосдир, умумий ишлатиладиган миллий тиллар асосида пайдо бўлган терминлардир. [Казарина 1998: 73–74].

Қурилиш соҳасидаги терминларини ўрганади, таҳлил қиладиган бўлсак уни гетерогенлигига тўла-тўқис ишонч ҳосил қилиш мумкин, чунки у муҳандислик соҳасидан ажралиб чиққан бўлиб, **конгломерат** терминлардан ҳам ташкил топган.

Шунинг учун терминологиянинг гетероген таркиби ва унинг чегараларини аниқлаш қийинлигини бўлиш мумкин. Тадқиқот олиб борилган терминология тизимини тузиш учун биз луғатлар, журналлар ва дарсликларга эътибор қаратдик ва узлуксиз намуна олиш усули билан танланган қурилиш терминологиясининг барчасини тизимлаштирдик. Шундай қилиб, қурилиш фанлари тузилиши бўйича профессионал маълумотлар асосида бизнинг намунамиздаги барча терминологик бирликлар тегишли гуруҳларга ажратилди.

Шунинг учун терминологиянинг гетероген таркиби ва унинг чегараларини аниқлаш қийинлиги келиб чиқади. Ўрганилган терминология тизимини тузиш учун луғатлар, қўшимча ҳаволалардан, журналлар ва дарсликларга узлуксиз намуна олиш усули билан танланган қурилиш терминологиясининг бутун ҳажми тизимлаштирилган.

Шундай қилиб, қурилиш фанлари тузулиши бўйича профессионал маълумотлар асосида бизнинг намунамиздаги барча терминологик бирликлар тегишли гуруҳларга ажратилади.

Терминларни қурилиш соҳасида фаол қўлланиладиган тегишли соҳаларини аниқлаш натижаларида кўриш мумкин.

1. **Архитектура йўналиши**-ланшафт дизайни, уй-жой дизайни, шаҳарсозлик, архитектура ёдгорликлари реконструкцияси ва реставрацияси.

2. **Муҳандислик қурилиш инфратузилмаси**- муҳандислик коммуникациялари қурилиши ва монтажи, қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб чиқариш, муҳандислик коммуникациялари, деворбоп-пардозбоп қурилиш материаллари технологияси, геодезия, картография ва кадастр функциялари бўйича, экология ва атроф-муҳитни муҳофазаси.

3. **Био ва иншоотлар қурилиши**-нефть ва газни қайта ишлаш саноати объектлари қурилиши, гидротехника қурилиши, сув таъминоти ва канализация тизимларини лойиҳалаштириш ва эксплуатацияси.

4. **Қурилишни бошқариш**- шаҳар қурилиш ҳамда коммунал инфратузилмани ташкил этиш ва бошқариш, қурилишда иқтисодиёт, қурилишда менежмент, қиймат-инжиниринги ва кўчмас мулк экспертизаси, метрология, стандартлаштириш ва маҳсулот сифати менежменти.

Терминларни тармоқлар бўйича тақсимлаш бир неча лингвистик мезонлар асосида бўлади:

Терминологик бирликларнинг таркибий қисмларига асосланган турдош фанларга тегишли (математик таҳлил, кимёвий таркиби, геодезия таҳлили, техник-иқтисодий асос, меъморий дизайн, юк хати); каби ҳужжатларга мурожат қилинди.

С. В. Гринев луғат ёзувида тематик атрибуциянинг лексикографик параметрининг мавжудлиги таъкидлаган. Ушбу мезон луғат ёзувига тегишли бўлиб билим соҳасининг кўрсаткичини назарда тутади.

Синонимик атама, умумий ёки ўзига хос тушунчалар, бошқа атамаларга ҳаволалар алоқани кўрсатадиган ассоциатив жиҳат мавжуд.

Қурилиш соҳаси мутахассиси бўлмаган тилшунос учун бундай вазиятларда атамаларни ажратиш ва қурилиш атамашунослигига аниқ тегишли бўлган соҳани аниқлаш қийин вазифа бўлиши мумкин. Шунинг учун, санаб ўтилган мезонларга боғлиқ соҳани аниқлашга ёрдам бермаган ҳолатларда, биз қурилиш соҳасидаги мутахассисларга мурожаат қилдик.

Терминлар махсус тушунчани ифодаловчи лингвистик белги сифатида тилшунослар томонидан талқин қилинади. Терминология бўйича назарий ишлар ҳар доим бир хил талқин қилинмаслиги мумкинлиги аниқланди, ҳар бир олим терминларга турлича таъриф берган. Терминология- бу умумий таркибий хусусиятларга асосланган ҳолда бир предмет соҳаси доирасида ўз-ўзидан ривожланиб келган лексик бирликларнинг бирикмасидир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

---


1. Абдурахманова А.З. «Лингвистическое моделирование строительной терминологии» дисс. 2016 й
2. Виноградов 1961: 67; Суперанская, Подольская, Васильева, “Журнал о терминологии” 2 в. 2004 й
3. Казарина С.Г. “Типологическое терминоведение как дифференцированная лингвистическая дисциплина” 1998 й
4. Татаринов В.А. Общее терминоведение: энциклопедический словарь. М.: Московский лицей, 2006 й
5. Гринев-Гриневиц С.В. Терминоведение. Учебное издание. 2008 й
6. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. 2009 й
7. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики, 1961
8. Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. 1995й
9. Сейгер Дж.К. Классификации терминов, 1987 й
10. Хакимова Г.Г. Развитие терминологии как отдельной дисциплины и ее статус в современном языкознании, 2012 й

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Курбоназарова Наргис Шодиевна**

Термиз давлат университети  
Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси  
kurbanazarovanargis@gmail.com

## ЛИСОНИЙ ТИЗИМДА ЭТНОГРАФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТИ (СУРХОНДАРЁ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ МИСОЛИДА)

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-4-17>

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада баъзи бир тўй маросими этнографизмларининг лингвомаданий жиҳатлари таҳлил этилган. Этнографизмларнинг тил тизимида тутган ўрни, уларнинг семантикаси ҳақида ҳам маълумотлар берилган. Тилшуносликнинг лингвокультурология соҳаси ҳақида қисқача таъриф билан бирга реалия, стереотип, лакуна терминлари ҳақида ҳам тўхталиб ўтилган. Машҳур тилшунос олимларнинг мавзуга оид фикрларига муносабат билдирилган. Тўй маросимларининг миллий реалия ва стереотип ифодаси эканлигига мисоллар келтирилган. Таҳлилга олинган этнографизмлар Сурхондарё воҳаси тўй маросимлари намуналаридан танлаб олинган.

### Калит сўзлар

Лингвокультурология, Эдуард Сепир, реалия, муқобилсиз лексика, “Алпомиш” достони, стереотип, маросим, улоқ, шоҳ улоқ, куёв улоқ, қари жилик, сарпо аллалатар.

**Kurbanazarova Nargis Shodiyevna**

Lecturer, Teacher of Department Uzbek language  
of Termez State University  
kurbanazarovanargis@gmail.com

## LINGUOCULTURAL ASPECT OF ETHNOGRAPHIC UNITS IN LINGUISTIC SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA WEDDING CEREMONIES)

### ANNOTATION

This article analyzes the linguocultural aspects of some wedding ethnophisms. In the article given information about the role of ethnophisms in the language system and their semantics. Along with a brief description of the field of linguoculturology of linguistics, there are also given descriptions of realiae, stereotypes, terms. There given comments to the views of well-known I scholars on the subject. The national realiae and stereotypical terms of wedding ceremonies were also discussed. Examples are given that wedding ceremonies are an expression of national realiae and stereotypes. The analyzed ethnophisms were selected from the samples of wedding ceremonies of Surkhandarya oasis.

**Keywords:** Linguoculturology, Edward Sapir, realiae, inequivalent lexis, “Alpomish” epic poem, stereotype, ritual, ulok, shoh ulok, groom’s ulok, qari jilik, sarpo allalatar.

**Курбаназарова Наргис Шадиевна**

Термезский Государственный университет  
преподаватель кафедры узбекского языкознания  
kurbanazarovanargis@gmail.com

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ СВАДЕБНЫХ ОБРЯДОВ СУРХАНДАРЬИ)

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются лингвокультурные аспекты некоторых свадебных этнографизмов. Также, описываются реалии, стереотипы и термины. Указана роль этнографизмов в языковой системе, приведена информация о семантических свойствах данных единиц. Рассматриваются национальные реалии и стереотипные свадебных церемоний. Прокомментированы взгляды известных лингвистов по данной научной проблеме. Приводятся примеры доказывающие что свадебные церемонии являются выражением национальных реалий и стереотипов. Для анализа этнографизмов были выбраны образцы свадебных обрядов Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** Лингвокультурология, Эдвард Сапир, реалии, неэквивалентная лексика, эпическая поэма “Алпомиш”, стереотип, ритуал, улок, Шох улок, улок жениха, Кари джилик, сарпо аллалатар.

### KIRISH

Ҳар бир тилнинг лисоний тизимида шу тилдан фойдаланувчи миллат маънавияти, тарихий тажрибаси ва маданиятини акс эттирувчи бирликлар тизими мавжуд. Мазкур унсурларнинг ички шакли тилга олинган белгиларни ўз семантик қўламида жамловчи ходиса сифатида миллий тилнинг асл руҳиятини намоён этади. Экспрессия, эмоционаллик билан тўйинган ушбу семантика, ўз навбатида, миллий фольклор семантикасини бетакрор коннотат билан бойитади. Бу бирликлар – этнографизмлардир. Мазкур мақоламизда этнографизмларнинг тил билан боғлиқлиги ва ўзига хос лингвомаданий жиҳатларини таҳлил қиламиз.

Тил – ҳар бир халқнинг урф-одатлари, қадриятлари, миллий маданиятининг асосий хусусиятлари, инсоннинг дунёга бўлган муносабатини ўзида ифода этувчи, хулқ-атворининг энг юқори кўрсаткичи сифатида алоҳида қимматга эга. Шунга кўра, кишиларнинг алоқа воситаси ҳисобланган тилни ўрганиш ва тадқиқ этишда мулоқот жараёни, вазият, алоқа қилувчиларнинг мақсади, ҳатти-харакати, руҳиятини инобатга олиш муҳимдир. Чунки тилдан фойдаланиш жараёни кўпқиррали, кенг вазифали фаолият бўлиб, у нафақат инсон, балки бутун бошли миллат, халқ ҳақидаги тасаввурларни ўзида ифодалайди. Тил – маданиятнинг кўзгуси бўлиб, унда нафақат инсонни ўраб турган реал борлик, унинг реал яшаш шароитлари, балки халқнинг ижтимоий ўзини ўзи англаши, унинг менталитети, миллий характери, ҳаёт тарзи, анъаналари, урф-одатлари, ахлоқи, қадриятлар йиғиндиси ва дунёқараши ҳам акс этади. Бунда, инсон тил ва маданият боғловчиси ҳисобланади. Тил ва маданият ўзаро шундай боғланганки, тилсиз маданият, маданиятсиз тил мавжуд эмас. Яъни, Эдуард Сепирнинг таъкидлаганидек, маданият – турмуш тарзимизни тавсифловчи, ижтимоий мерос қилиб олинган амалий малакалар ва ғоялар мажмуи бўлса, тил унинг яшаш даврийлигини таъминловчи воситадир. Тил ва маданият бир-бири билан қанчалик яқин алоқада бўлмасин, уларни фарқланувчи томонлари ҳам бор. Маданиятшунослик илми билан шуғулланувчи олимларнинг мақсади аслида маданият нима эканлиги, этика, эстетика каби тушунчаларнинг асл моҳиятини ўрганиш ва тушунтириш бўлса, тилшунос олимларнинг вазифаси маданиятнинг тилга ва тилнинг маданиятга таъсирини аниқлашдир.

Тилшуносликнинг лингвомаданият соҳаси тилнинг айнан мана шу томонларини ўрганади ва таҳлил қилади. Бундан ташқари, лингвомаданият – тилшунослик, маданиятшунослик, этнография, психолингвистика чорраҳасида вужудга келган мураккаб (интегратив) илмий фан бўлиб, тил ва маданият, тил ва халқ, тил ва миллий менталитетнинг ўзаро боғлиқлиги ва ўзаро таъсирини ўрганади. Шундай қилиб, лингвомаданиятнинг асосий принциплари, тушунчаларини таҳлил қилиш, тил бирликларини лингвомаданият жиҳатларини изоҳлаш усуллари билан танишиш, тилнинг яширин кўриниши – инсоннинг яшаш шароити билан боғлиқ бўлган тилни ўрганишимизга имкон беради.

### ASOSIY QISM

Лингвомаданият соҳаси терминлари орасида миллий реалия ўзига хос ўрин тутади. Миллий реалиялар – бу муайян халқнинг ҳаёти, турмуши, маданияти, ижтимоий-тарихий тараққиёти учун характерли бўлган предметлар, ҳодисалар ва объектларни номловчи, бошқа халқлар учун унчалик таниш бўлмаган ёки бегона бўлган, уларнинг тилларида аниқ муқобили бўлмаган, миллий колоритини ифодаловчи сўзлар ёки сўз бирикмалари; муқобилсиз лексика турларидан бири.

Ўзбек миллий лингвомаданиятидаги миллий реалия кўринишлари бошқа дунё халқлари маданияти ва миллийлигидан ўзига ҳослиги билан ажралиб туради. Ўзбекистон халқини турли миллат ва элат вакиллари ташкил этади. Улар бир ҳудудда кўп асрлардан буён ёнма-ён яшаб, қариндошлик ришталари билан боғланган бўлсаларда, ўзига хос урф-одат ва маросимлари билан фарқланадилар. Хусусан, республикаимизнинг қадим Сурхондарё воҳаси ўзининг этнографик макон эканлиги, аҳолисининг ўзига хос маданияти, урф-одатлари, маросимлари билан бошқа ҳудудлардан фарқланади. Маданиятни энг ёрқин ифода этувчиси – маросимлар воҳа тарихини намоеън этувчи, халқнинг маданиятидани кўрсатувчи миллий реалиялардан ҳисобланади.

Маросим инсон моддий ва маънавий турмушининг талаб ва эҳтиёжи билан юзага келган ва келадиган, табиий ҳатти-ҳаракат, безак ва матнга эга бўлган ҳаётий саҳна асаридир. Шу боисдан дунёда ўз маросимларига эга бўлмаган бирорта ҳам халқ йўқ. Бинобарин, у муайян халқнинг бошқа халқлардан фарқланиб туришини таъминловчи муҳим этнографик белгилардан бири бўлиб хизмат қилади. Чунки ҳар қандай маросим у ёки бу халқнинг маълум бир тарихий тараққиёт этапидаги иқтисодий, сиёсий ҳамда маданий ривожланиш даражасини кўрсатувчи асосий белгиларни ўзида нисбатан тўла мужассамлаштирилган ҳолда вужудга келади ва яшайди.

Сурхондарё тўй маросимлари, хусусан никоҳ тўйи маросимлари воҳа миллий реалияси кўзгусидир. Ундаги ҳар бир лексема ўзида миллийликни ифода этади. Халқ тарихи билан таниш бўлмаган кишида бошқа маъно англатувчи ҳатти-ҳаракатлар ва сўзлар, аслида бутунлай бошқа мазмун касб этади.

Тўй ҳар бир халқ маданиятида ўзига хос тарзда нишонланади ва турли халқлар томонидан бир бирига ўхшаш бўлмаган урф-одатлар, рамзлар ва сўзлар орқали ифода этилади. Бу эса бир тил ёки маданият эгасининг бошқа бир тил ёки маданият эгасига билдирмоқчи бўлган фикрини, келтирмоқчи бўлган таърифини тушунтиришда мураккаблик, ноқулайлик туғдиради. Юқоридаги фикрлар тўй маросимларининг лакуна эканлигини кўрсатади. Лакуна (лот. *lacuna* “бўшлиқ, чуқурлик, чўнқир жой”; франс. *lacune* “бўшлиқ, бўш жой”) – бирон халқнинг маънавий, маданий, ижтимоий ва тарихий ҳаёти учун характерли ва бошқа халқ учун бегона бўлган, бошқа тилда аниқ муқобили бўлмаган сўз ва сўз бирикмалари. Тўй маросимлари этнографизмлари эса лакунанинг ўзига хос намунаси. Қуйида шундай этнографизмлардан бир нечтасини таҳлилга оламиз.

Улоқ – эчкининг боласи. Дунёнинг жуда кўп халқлари тилига айнан эчкининг боласи, кичкина эчки тарзида таржима қилинади ва ўз маъносида келганда лакуна ҳисобланмайди. Аммо лингвомаданият жиҳатдан ушбу реалия қадимдан чорвачилик билан шуғулланиб келган Сурхондарёда ҳар қандай вазиятда ҳам тўй белгисидир. Қадимдан халқимиз урф-одатлари орасида мавжуд бўлиб, “Алпомиш” достонида куйланган ва бутунги кунда ҳам мавжуд реалия:

Ўзбаклар расими шундай бўлади:  
 Чошка-тушда соп йигитлар келади,  
 Ҳакимбекдан “куёв улоқ” сўради,  
 Сўраган одамлар куруқ қолмади,  
 Буларга ҳам битта сарка беради,  
 Вақти хуш бўп булар кетиб боради.

“Куёв улоқ” куёвжўраларга келиннинг уйига тўй жўнатишдан олдин, куёв томонидан берилади, ёки сўйиб зиёфат қилинади. Шунинг учун айнан куёв лексемаси билан боғланади.

Воҳада бундан ташқари “улоқ”, “шов улоқ”, “шоҳ улоқ” каби луғавий воситалар орқали: 1. Йигит бўлажак келиннинг уйига тўй жўнатишда ( Бу ерда тўй – сеп, сарпо-сурук маъносида. Қадимги урф-одатларга кўра жонлик – қўй ҳам берилади. Бунда томонлар ўзаро келишувига биноан, куёвнинг иқтисодий имкониятига қараб иккитадан, ўнтагача берилган.) тўй қўйларнинг олдида борадиган “шор улоқ” (фонетик ўзгаришга учраб, “шов” тарзида талаффуз қилинади, (Бой., Қизи., Қумқ.). “Шор” – “шов” – шўх, қочағон, тутқич бермас, талаш. Бундай номланишига сабаб, бўйнига рўмол ва пул боғланган ушбу улоқ биринчи бўлиб тутган кишига берилади. Шунинг учун кўпчилик орасида талаш бўлади. Оламандан сесканган улоқ қочади. Ниҳоят кимдир улоқни тутиб, ўзиники қилади. Жуда кўп ҳолларда сурхонча бағрикенглик ва меҳмондўстлик билан улоқни тутган киши уни тўй эгасига беради ва улоқ сўйилади. 2. Юқоридаги маросимда ҳам сезилган “талаш”, “талашиш”, “талаш бўлиш” маъноси, кўпқаридаги “улоқ” лексемасининг маъносидир. Яъни кўпқари майдонига ташланган улоқ чопағонлар орасида талаш бўлади. Яқунда кимгадир насиб этади ва у бош совринни қўлга киритади.

Воҳанинг баъзи туманларида айнан “шов улоқ” - “шоҳ улоқ” тарзида айтилади (Муз., Тер., Шер.). 3. “Шоҳ улоқ” ҳам куёв томонидан бўлажак келиннинг уйига жўнатилган тўйга қўшилади. Фақат бунда, юқоридаги “шор – шов” – шўх, қочағон, тутқич бермас, талаш маъносидан ташқари “шоҳ” – бошлик, бош бўлиб борувчи, олдинда турувчи маъносини ҳам ифодалайди. Бундан ташқари “Сарпони улоқ қилар” маросими ҳам мавжуд бўлиб (Узун, Олт.), унда ҳам улоқ ўз маъносидан бошқа маънода қўлланилган. Бу ерда келиннинг сеплари талаш қилинади (улоқ қилар бу ўринда талашиш маъносида қўлланган. Яъни, кўпқаридаги талаш қилинадган улоқ билан бир хил маъно билдирган). Бу маросимда одатда аёллар, кизлар ва ёш болалар иштирок этади. Улар давра қурадилар. Келиннинг сепларини бирорта аёл бир кучоқ қилиб даврани айланиб югуради. Атрофдагилар сепдан бирор бир нарса олишга ҳаракат қилади. Келиннинг сепи қут, бахт рамзи ҳисобланади ва ўзида кўплаб яширин маънолар ифодалайди. Бу реалияда сурхон халқига хос стереотип намунаси бўй кўрсатган бўлиб, сурхондарёликлар қадимги ирим-сиримларга ишонувчи халқ эканлигини кўрсатади. Маълумотларни йиғиш жараёнида мълумот берувчиларнинг яна бир фикрига кўра, “Сарпони улоқ қилар” маросими келиннинг қанча йигитлардан талаш бўлиб, айриб олингани ифодаси ҳам ҳисобланар экан. Сурхон халқида мақсад қўйилдими, қанча қийинчиликлар бўлсада унга эришиш руҳи устувор бўлади. Достонларда қуйланган, Алпомишдан мерос бўлган бу характер сурхонликлар учун стереотип ҳисобланади.

Қарижилик – тўй – никоҳ тўйи куни куёв олдида қўйиладиган таом. Сурхондарёнинг Термиз, Шеробод туманларида ошиқ жилик шакли ҳам учрайди. Мазкур реалия ҳам бошқа тил эгалари нутқида лакуна ҳисобланиб, ўзбек маданияти ва урф-одатлари ҳақида тўлиқ тушунчага эга бўлмаган кишиларда бутунлай бошқа маъно-мазмунни англатади. Бунда, куёв келинни олиб кетиш учун унинг уйига ўртоқлари ва яқинлари билан борганда куёв дастурхонига қўйилади. Уни аввал куёв, кейин унинг ўртоқлари навбат билан тишлаб гўштидан ейди. Қарижилик, аслида қари молнинг эмас, ёш молнинг илиги бўлади. Бу суяк молнинг олдинги оёғи бўлиб, илик (суяк ёғи) шу оёқдан бошланади ва аввал шу оёқ ёғга тўлади. Бу ўриндаги ном куёвнинг узок умр кўриб, қариганда ҳам куч-қувватга тўлиб юришига нисбатан айтилган. Ошиқ жилик деб номланганда эса суякнинг бошидаги бирикиш қисмига ишора берилади. Бунда ошиқ-мошиқ (мошиқ – маъшук), яъни бир-бирини тақозо этишлик назрада тутади. Айнан ошиқ бўлиб қолмоқ бирикмасидаги ошиқ (севиб қолмоқ,

шайдо бўлиб қолмоқ, ўрганиб қолмоқ каби) манашу суяк номи билан боғлиқ (ушбу одат воҳанинг деярли барча худудларида бор). Бу ерда мазкур реалия ифода этаётган Сурхондарёда яшовчи халқнинг чорвачилик билан шуғулланиши, гўшт маҳсулотларини яхши кўриб истеъмол қилиши, ҳурматли ва азиз меҳмонларнинг дастурхонига гўшт кўйиши фақат сурхонликларга хос стереотип бўлиб, маданиятни кўрсатувчи лингвомаданий бирликдир.

Кўриниб турибдики, бирор бир халқ ҳақида тасаввурга эга бўлиш учун унинг миллий реалиясига этибор қаратиш лозим. Маданиятни ифодаловчи “ички” тил маъноларини тушунмай туриб, у халқ тўғрисида фикр билдириш қийин. Ўзига ҳослик, бошқалардан ажралиб туриш маданиятни ифодаловчи тилнинг имконияти билан баҳоланади десак, адашмаймиз. Мана бу тил ва маданият муштараклигига яққол мисолдир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Б. Саримсоқов. Ўзбек марросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
2. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ўзиб олувчи М. Зарифов. Тошкент: Шарқ, 1988.
3. Э. Сепир. Избранные труды по языкознанию и культурологии. М., 1993.
4. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
5. Потенбня А. Мысль и язык. Оглавление. Философия языка и мифа. – Харьков: Мирный труд, 1913. [http://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Linguist/poteb/intro.php](http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/poteb/intro.php); Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, [1946] 1986. – 366 с. <http://royallib.ru/>; Пятигорский А.М. Мифологические размышления. [http://modernlib.ru/books/pyatigorskiy/aleksandr/moiseevich/mifologicheskie\\_razmishleniya](http://modernlib.ru/books/pyatigorskiy/aleksandr/moiseevich/mifologicheskie_razmishleniya).
6. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015.
7. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent 2019.
8. Kurbonazarova N.Sh. Linguistic study of some uzbek ethnographisms expressing wedding ceremonies. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN:1475-7192. London, United Kingdom. 2020, may.
9. Makhmaraimova Sh.T. The Role of Metaphoric and Empirical Knowledge in the Process of Cognition. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. London, NW1 8JA. United Kingdom. 2020, January. (1), pp. 218-222.
10. Kurbonazarova N.Sh., 2019. A review of some wedding customs in the Surkhandarya area. Theoretical & Applied Science, (12), pp.405-410.

**СЎЗ САНЪАТИ**  
**ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ**  
4 СОН, 3 ЖИЛД

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**  
**ИСКУССТВО СЛОВА**  
НОМЕР 4, ВЫПУСК 3

**INTERNATIONAL JOURNAL**  
**OF WORD ART**  
VOLUME 4, ISSUE 3

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000